

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2024 Vol. 4 (1)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosarlari

Qozoqboy Yo'ldoshev

Roza Niyozmetova

Mas'ul kotib

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Shohida Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Nusratillo Jumaxo'ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo'rayeva, Shahnoza Rahmonova, Gulnoza Axmedova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Sohiba Umarova, Akbar Ro'ziyev, Munira Shodmonova, Mahfuza To'ychiyeva, Matluba Jabborova, Iroda Ishonxanova, Muazzam Dedaxonova, Muhabbat Madaminova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma'lumot

“Metodika” seriyasi — Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. “Metodika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat. “Metodika” seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Marg'uba Abdullayeva	
Turkiy adabiyotda lirik asarlarni o'qitish muammolari.....	4
Nilufar Abduraxmonova, Saodat Boysariyeva	
O'zbek tili o'quv lug'atchiligining amaliy masalalari	11
Shaxlo Yuldasheva	
O'zbek tili mashg'ulotlari uchun mashq va topshiriqlarning raqamli transformatsiyasi masalasi.....	20
Orifjon Madvaliyev	
O'zlashma shaxs nomlari va geografik nomlar imlosi: tahrirdagi muammo va yechimlar.....	29

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Klaraxon Mavlonova	
"Ona tili" darsliklarida matn tuzilishini o'rgatishga doir imkoniyatlar.....	35
Sanobar Kuldashева	
Til ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish.....	44
Nilufar Turg'unova	
10-sinf "Ona tili" darsligida loyihaga asoslangan topshiriqlarning berilishi.....	53
Husnora Baxtiyorova	
6-sinf o'quvchilariga matn tuzilishini o'rgatish.....	59

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Dilafruz Nazarova	
Alisher Navoiy va Xojaning Iskandar Zulqarnayn haqidagi hikoyatlari tahlili.....	67
Azamat Xayrullayev	
Normurod Norqobilov hikoyalarining kompozitsiyasi.....	75
Mahmuda Yuldasheva	
Adabiyot darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish.....	83
Intizor Jumaniyazova	
G'azal tahlilida yangicha yondashuv	90

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR**TURKIY ADABIYOTDA LIRIK ASARLARNI O'QITISH MUAMMOLARI**Marg'uba Abdullayeva¹**Annotatsiya**

Mumtoz adabiyotni o'qitishda nazariy bilimlarni berish o'quvchilarning adabiyotdan va boshqa fanlardan olgan bilimlari, orttirgan tajribalari, ko'nikma va malakalariga tayanish bugungi kunda yuqori samara garovi bo'lib xizmat qilmoqda. O'quvchilarda mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirmay turib, ularning mumtoz asarlarni ham aqliy, ham ruhiy idrok etish malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlab bo'lmaydi. Buning uchun har bir pedagog mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishgan hamda mumtoz asarlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Mazkur maqolada ayni shu ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratildi. G'azallarni sharhlab o'qitish va tahlil qilish usullarining ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: *badiiy, lirik asar, tahlil, muammo, tadqiq, sharh, g'azal janri, tamoyillar, ilmiy tahlil, o'quv tahlili.*

Kirish

Adabiyot o'qitishning vazifalaridan biri badiiy asar ustida ishlash mobaynida, uni o'zlashtirish va his etishda o'quvchida bilim hamda hissiyot birligini ta'minlashdan iborat. Badiiy asarlarni o'rganish samaradorligi o'quvchi tuyg'ularining samimiyligiga bevosita bog'liq. Asar ustida ishlash bir vaqtning o'zida o'quvchini yangi bilimlar bilan boyitadi, adabiy-nazariy rivojini ta'minlaydi. Shunday ekan, ta'limda badiiy asarlarni o'rganishdagi yondashuvlar va usullarni alohida tadqiq etish zarurati mavjud. Umuman olganda, badiiy asarlarni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- **Genetik tahlil.** Bu tahlil tamoyilida asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etiladi;
- **Tipologik tahlil.** Asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o'xshash hamda farqli tomonlari, asar muallifi bilan o'zga adiblar orasidagi ijodiy ta'sir hamda adabiy jarayon qonuniyatlarini aniqlashga e'tibor qaratiladi;
- **Filologik tahlil.** Badiiy asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo'llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtayi nazaridan tekshiriladi;
- **Psixologik tahlil.** Asar muallifi shaxsiyatida o'ziga xoslik, adibning asar ustida ishlash usuli, ijodiy jarayon psixologiyasi, muallifning tasvir uslubini tayin etgan omillar o'rganiladi;
- **Funksional tahlil.** Asarning ijtimoiy ta'sir kuchini aniqlashga alohida ahamiyat beriladi. Asarning muayyan millat ma'naviyatidagi, milliy adabiyotdagi o'rni tekshiriladi, yaratilgan zamonidagi yoki tekshirilayotgan davrdagi kishilar tafakkuriga qilgan ta'siriga alohida diqqat qilinadi. Asardagi qaysi obraz yoki tasvir orqali qanday ijtimoiy qonuniyat yoxud muammo yoritilgani aniqlanadi.

Mazkur tamoyillar badiiy asarlarni ilmiy-filologik jihatdan o'rganishga xizmat qiladi. O'quv tahlili esa didaktik jihatdan amalga oshiriladi. Shu o'rinda bu ikki tahlil turini farqlash zarur. Ilmiy-filologik tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalar mantiqiy tushunchalar, estetik qonu-

¹ Marg'uba Abdullayeva — filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

E-pochta: margubaabdullayeva507@gmail.com

ORCID ID : 0000-0003-2088-6040

Iqtibos uchun: Abdullayeva M. 2024. "Turkiy adabiyotda lirik asarlarni o'qitish muammolari". O'zbekiston: Til va madaniyat. 4[1]: 4—10.

niyatlar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Ilmiy tahlilda o'rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o'rni va badiiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri aniqlanishi kerak. "Filologik tahlil adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qarashni taqozo qiladi. Ilmiy tahlildagi asosiy narsa adabiy asarning badiiyligi, ta'sirchanligi, jozibasi va seyrini ta'minlagan jihatlarni ko'rsata bilishdir. Shu ma'noda, filologik tahlil ilmiy-estetik faoliyatdir" [K.Йўлдош, М.Йўлдош. 2016: 101].

Q. Yo'ldoshev o'quv-didaktik tahlili "badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir" [K.Йўлдош, М.Йўлдош. 2016: 48], deb ta'kidlaydi. Didaktik tahlil filologik tahlilga nisbatan tashkiliy-mazmuniy jihatdan farqlanadi. O'quv tahlili o'quvchi yoki talabalarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir.

O'quv tahlili tamoyillari talabini to'laqonli bajarishda tahlilga tortilayotgan asarlarning tur va janr xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tahlil avvalida o'rganilayotgan badiiy matnning adabiy tur xususiyatlari, janr imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Shunga ko'ra lirik asarlarni o'rganishda qo'llanilgan usullarni aynan qo'llab, epik yoki dramatik asarlarni tahlilga tortishning iloji yo'q. Har bir tur o'z estetik mohiyati, badiiy qonuniyatlariga ko'ra tahlil usullari va tamoyillariga tayangan o'zgacha yondashuvlar, o'ziga xos munosabatni talab qiladi. Asarning badiiy tabiatida tur xususiyatlari muhim o'rin tutar ekan, demak, tahlilda ham ana shu o'ziga xoslik qat'iy saqlanadi.

Asosiy qism

Badiiy asarni ifodali, ijodiy yoki sharhlab o'qish usullaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z taassurotlariga tayanib tahlil qilishga yo'llash mumkin.

- O'quvchini badiiy asarlarni adabiy-tanqidiy nuqtayi nazardan baholashga o'rgatishda keng qamrovli tahlil, qiyosiy tahlil, muammoli tahlil kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

- Tadqiqot usullariga tayanib adabiy asarlarni o'rganish va tahlil qilish orqali o'quvchilar estetik tahlil tamoyillarini o'zlashtirishga erishadilar, ularda adabiyotshunosga xos malaka shakllanadi.

- Matn asosidagi tahlil vositasida esa o'quvchilar ijodkor uslubining o'ziga xos qirralarini aniqlashga, badiiy asar tilini o'rganish asnosida yozuvchi mahoratiga estetik baho berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada, ularda xilma-xil asarlarni mustaqil o'qib o'rganish va badiiyat talablari asosida baholash malakasi tarkib topadi.

Lirik asarlarni o'rganishda sharhlab o'qitish usullari muhim ahamiyatga ega. Mumtoz adabiy asarlar, ayniqsa, lirik janrga mansub bo'lgan asarlar matni ustida ishlashda ulardagi tasvir vositalari, til xususiyatlari ham diqqat markazida bo'lishi kerak. Alisher Navoiyning ko'pgina g'azallari adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan sharhlab o'rganilgan. Jumladan, N.Komilovning "Jon va jonon mojarosi", E.Vohidovning "Junun vodiysida", M.Alining "El komin ravo ayla", J.Kamolning "Qizil, Sorig', Yashil", I.Haqqulovning "Parim bulsa uchub qochsam" nomli g'azallariga bag'ishlangan sharhlari mavjud. Masalan:

*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zg'orimni.*

"Bu g'azal dunyoning g'amu anduhidan zardob bo'lgan shoir qalbining afg'onidir. Inson yuragi va tafakkuri haddan ziyod sevinchni ham, g'amni ham qabul qilolmaslik xususiyatiga ega. Tuyg'ularning ofatli seli kishini telba qiladi. Shoir o'z jonini junun, ya'ni telbalik vodiysiga moyil ko'radi, buzilgan hayot-ro'zg'ori uni aqldan ozdirgani, endi telbalikni bo'yinga olib dashtu sahrolar kezishdan o'zga iloji qolmaganini va telbalik — buzish, vayron qilish ekan, demak, buzilgan hayotini bir yo'la vayron qilmoq tilagini faryod bilan ifsho qiladi" [E.Vohidov. 1990: 4] tarzida

baytni sharhlab o'tadi. Sharhda ilmiy yondashuv asosida badiiy tafakkur mohiyati ochib beriladi. Bunda asar muallifining bilish va anglashga doir qarashlari aks etadi" [Abdullayeva, 2023: 61].

Taniqli metodist olim Ulug'bek Dolimov sharh usuli haqida ma'lumot berar ekan, sharh beruvchilarni shorihlar deb ataganlar. Shorihlar mudarris-pedagog bo'lish bilan birga o'z davrining bilim doirasi ancha keng olimlari ham bo'lganlar. Ko'p hollarda shorihlar sharhlarni kitobning har bir beti hoshiyasiga yozganlar. Bunday sharhni "sharhi muhashsho" yoki hoshiyali sharh" deb ataganlar" — deya sharh usuliga yanada keng ma'lumot beradi [Долимов, 2012: 52]. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov Alisher Navoiyning 50 ta g'azalini sharhlashda quyidagi usullardan unumli foydalangan: birinchi, asar tilidagi hozirgi kitobxonga tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini berish; ikkinchi, baytlarning nasriy bayonini berish; uchinchi, g'azalning umumiy ma'nosi, badiiy xususiyatlari ustida mulohaza yuritish. Mumtoz asarlar sharhida olimning ushbu sharh usullarini qo'llash anchayin samaralidir [Комилов, 2012: 4]. M.To'raqulovanning "Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish usullari" [M.To'raqulova, <file:///C:/Users/admin/Downloads/To%E2%.pdf>] nomli maqolasida bu mavzu nazariy jihatdan yaxshi yoritib berilgan. Maqolada Tursunoy Mahkamovanning madrasalar ta'limiga oid ma'lumotlaridan foydalanilgan.

G'azal tahlil qilish metodikasi maxsus tadqiqot sifatida o'rganildi. Jumladan, To'xliyeva Difuza-ning "G'azal tahlil qilish metodikasi" [To'xliyeva, 2023:136] monografiyasida bu janrning tahlil qilish usullari ishlab chiqildi. G'azal o'qitishda ontologik tahlil metodining imkoniyatlari ochib berilgan. Ishda muallifning dastlab "ontologiya" atamasiga to'xtalib, borliq haqidagi ta'limot ekanligini ta'kidlaydi. Turk olimi Ismoil Tunali "San'at ontologiyasi" [Tunali, 1971] asarida mavjudlik nazariyasi asosida badiiy asarlarni tekshirishning yangi usulini ishlab chiqadi. Bu usulni "ontologik tahlil" deb ataydi. Ismoil Tunali "Badiiy asarlarda borliq qatlamlarini" tadqiq qiladi va badiiy asarlar tuzilishi jihatidan bir necha qatlamlardan tashkil topishini aytadi. Mana shu qatlamlarni aniqlashda "ontologik tahlil"dan foydalanadi.

Bu metodni birinchi bo'lib g'azal janrida qo'llagan olim Yavuz Bayramdir. U "Devon she'rlari matnlarining ontologik tahlili" [Bayram, 2008: 182] nomli maqolasida Ismoil Tunali nazariyasini amaliyotga tatbiq qiladi. Yavuz Bayram g'azallarni tahlil qilishda ikki xil yondashadi.

1. G'azal bir butun holda olinib qatamlarga ajratiladi.
2. G'azalning har bir bayti alohida qatlamga ajratilgan.

Turk adabiyotida, odatda, badiiy asarlar old (shakl) va orqa (mazmun) tarkibga ajratib tahlil qilinadi.

D.To'xliyevaning tadqiqotida g'azallar bir qancha metodlar bilan tahlilga tortilgan. Jumladan, "Tizimli tahlil" metodi asosida Alisher Navoiyning "Meni men istagan..." deb boshlanuvchi g'azali tahlil etiladi. Tadqiqotchi bu g'azalni ikki tizimda: shakliy tarkib va mazmuniy tarkib bo'yicha o'rganishni taklif qiladi [Qarang: To'xliyeva, 2023:-136]. Bundan tashqari "Mos maqolni top", "Uchinchisi ortiqcha", "Blis so'rov" kabi metodlarni g'azal tahliliga tatbiq qiladi.

N.Saidovanning "G'azal tahlilida germevntik yondashuv" [Saidova, <http://sjfactor.com/passport.php?id=22257>] maqolasida bu janrdagi asarlarni germevntik yondashuv asosida o'rganish yaxshi natija berishini ta'kidlaydi. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "G'aroyib ussig'ar" devonidan joy olgan "Topmadim" radifli g'azali tahlilga tortilgan. Shu o'rinda germevntik yondashuv haqida qisqacha to'xtalib o'tish zarur. "Germevntika" (grekcha hermeneutike) — "o'rganish, sharhlash" yoki "tushunish", "tushuntirib berish" singari ma'nolarni bildiradi. "Germevntika" atamasi mumtoz adabiyotshunoslikda "sharh", "tavsir" atamalar bilan yonma-yon turadi. Umuman olganda, "germevntika" talqin nazariyasi bo'lib, badiiy asarlarni tadqiq etib, tushuntirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvni lirik janrlarni o'rganishga tatbiq etish — matn mantig'ini anglab yetishga, matnda shakllangan begona insonning tuyg'ularini, fikri va qarorini uqishga, muallifning maqsadini anglashga xizmat qiladi. Lirik asarni muallif ifoda etgan tasvirga asoslanib tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, badiiy matn tahlili bilan shug'ullanadigan — germevntika usuli matn bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda juda qo'l keladi. Germevntik tadqiqot usuli ham

nasriy, ham she'riy asarlarning o'ziga xos ohangini, ruhini anglashga, uni to'laqonli tushunishga turtki beradi, yo'l ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari. Mumtoz lirik janrdagi asarlarni o'rganish, boshqa janrdagi asarlardan ancha murakkab. Shu bois g'azal, ruboiy, tuyuqlarni tahlil qilishda, sharhlashda muammolar uchraydi. Bu muammolarning yechimi sifatida lirik asarlarni tahlil qilish usullarini ko'rsatib o'tamiz. Shundan "g'azal" janridagi lirik asar tahliliga to'xtalamiz.

G'azalni tahlil qilish tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. *G'azal matni bilan tanishish;*
2. *G'azal mavzusi va g'oyasini aniqlash;*
3. *G'azal vazni va bahrini aniqlash;*
4. *Murakkab so'zlar lug'atini tuzish;*
5. *Baytlarning nasriy bayoni;*
6. *G'azaldagi badiiy san'atlarni aniqlash, ijodkor badiiy mahoratiga baho berish.*

B.To'xliyevning "Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish" [Qarang: Тўхлиев, 2013: 77] monografiyasida mumtoz lirik asarlarni tahlil qilishdagi yondashuvi ham yuqoridagi tartibga mos tushadi.

Bilamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur nozik didli so'z san'atkori bo'lish bilan bir qatorda umrining ma'lum qismini sarson-u sargardonlikda, jang-u jadallarda o'tkazgan, taqdir hukmi ila "o'z yurti qolib, o'zga yurtlarda shoh bo'lgan" buyuk tarixiy shaxs. Shunga ko'ra shoir lirikasi-ning asosiy mavzusi — Vatan, Vatan sog'inchi; yetakchi g'oyasi — vatanparvarlik, adolatpeshalik, samimiyatga boy mehr-muhabbat, sadoqat tarannumi. Uning bir umr talpinib yetolmagan, halovati, oromini o'g'irlagan, yuragiga bitmas og'riq solgan, "gul yuzi hajrida sarg'aytirgan", "oyog'iga xazon bargidek to'kilib yolvortirgan", "toley'idan nolitgan" berahm ma'shuqasi — Vatan; tomirida oqayotgan qoni, bo'g'zidan otilayotgan nafasi — Vatan sog'inchi. Adib umrining har daqiqasida Ona yurti ishqida yonib yashadiki, bu otashin qalbdagi muhabbat harorati, sog'inish iztirobi har bir g'azal satriga singib kirdi.

Shoir ijodining ayni xususiyatlarini chuqur anglagan, uning alam-iztiroblarini yurakdan his qila olgan kitobxon nazdida Bobur bilan bir vaqtda Vatan tushunchasi gavdalandi, Vatan tuyg'usi, muhabbat kamolga yetadi. Buni biz shoir g'azallari misolida ko'rib o'tamiz.

*Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim,
Ko'rib rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.*

*Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingg'a tushib, bargi xazondek muncha yolbordim.*

*Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,
Men arshi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim.*

*Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Bahar rangi, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim.*

*Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,
Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.*

*Ulusning ta'n-u, ta'rifi menga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zimni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.*

Mazkur g'azal 6 baytdan iborat bo'lib, hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Yakpora g'azal. G'azal mavzusi — hijron. Lirik qahramon shoirning o'zi.

Taqti': V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Lug'at

- *rux* — yuz
- *zard* — sariq
- *sarkash* — o'jar, qaysar
- *sabz-u xurram* — yashnaganlik
- *arshi* — agar
- *dahr* — dunyo
- *tanaffurda* — nafar
- *bahar rangi* — har qalay
- *bihamdilloh* — Ollohga maqtov
- *ulus* — xalq
- *axtar* — yulduz
- *avroq* — varaqlar.

Ushbu g'azalda ma'shuqaga Boburona murojaat yaqqol aks etib turganini ilg'ash qiyin emas. Chunki har bir she'rida ma'shuqaga turli-tuman ifodalar bilan murojaat qilish shoir lirikasining yetakchi xususiyatlaridan biri. Boburning ushbu g'azalida kuz manzarasi ta'rifi orqali lirik oshiq sifatida ma'shuqaga murojaat qilar ekan, birinchi va ikkinchi bayt mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan alohida-alohida tasviriy iboralar qo'llaydi.

"Adabiyotshunos I.Haqqul ushbu matla' bilan boshlanadigan g'azalni — manzara g'azal, unda go'yo ikki yaratuvchi-ikki suvratkash ishtirok qiladi: biri — tabiat, ikkinchisi — shoir, deydi. Chindan ham shunday. "Xazon yaprog'i" iborasi alohida olinganda ham lirik qahramon ahvolini sharhlaydi. Zotan, hijron dardi tufayli uning chehrasi sarg'ayganki, qismati ham "xazon yaprog'i"-ga o'xshash. Ayni paytda buni yorning gul yuzi, lola kabi gulgun chehrasi bo'rttirib namoyon etadi" [Bobomirzayeva. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/xosiyat-bekmirzayeva-bobur>].

Birinchi baytda "ey lola rux", ikkinchi baytda "ey gul", murojaat shakllarini ya'ni undalmani kuzatish mumkin. Ushbu undalmalar istiora san'atini yuzaga keltirgan. Shoir qo'llagan bu undalmalar o'z ma'nosida emas, balki, majoziy ma'noda go'zal mahbubaga murojaat tarzida qo'llanilgan. Bu she'riyat jozibasini ta'min etishga va o'quvchida ham oshiqqa ergashib, ma'shuqadan shafqat kutish istagini paydo qiladi. Chunki ushbu baytlardagi zid ma'noli xazon yaprog'i, gul yuz, lola ruh, chehrai zard (sariq yuz) so'zlarda tazod san'ati asosida oshiq va mashuqning xarakterlari o'z ifodasini topgan. Sarv qadli ma'shuqa o'ta darajada o'jar, uning ayog'iga yiqilib bargi xazondek yalborguvchi oshiqqa zarracha muruvvat ko'rsatmaydi.

G'azalning uchinchi baytida qo'llangan: gulshan, gul, bog', yafroq singari uyadosh so'zlaridan ustalik bilan foydalanib, Bobur tanosub san'atini yaratgan. Bu esa g'azal jozibasini yana bir pog'ona ko'taradi. Oshiq bemuruvvat ma'shuqadan hech xafa bo'lmaydi. Aksincha, bir umr uni shu go'zallik, joziba tark etmasligini istaydi.

To'rtinchi baytga murojaat qiladigan bo'lsak, bu baytda Bobur kuzning sariq-qizil ranglarini ifodalovchi sifatlarni yuz va ko'z yoshiga ko'chirib, oshiqning ayanchli holatini ko'rgan elning nafratidan o'zini bir amallab qutqargani uchun Ollohga shukronalar aytadi.

Beshinchi baytida yana shoir axtari (yulduz), falak so'zlari yordamida tanosub san'ati orqali o'z baxt yulduzini topolmaganligi sababini anglay olmay hayronalar bo'ladi.

G'azalning so'ngi baytida shoir oshiqning holatini yorqinroq ifodalash, uning mashuqa vasliga yetishish uchun har qanday to'siqlarni yengishga qodirligi, o'z e'tiqodiga sadoqatli, oshiq ko'ngil, tanti va jo'mardligi yana zid ma'noli ta'na-ta'rif, yaxshi-yamon so'zlarni qo'llab tazod san'ati orqali o'z e'tiqodiga sadoqatini namoyon bo'ladi. G'azalda *sarg'ardim*, *zardim*, *bordim*, *yol-bordim*, *qutqordim*, *o'tkardim* kabi so'zlar o'zaro qofiya bo'lib kelgan.

Xulosa

Mumtoz lirik asarlar ma'no-mazmunini o'zlashtirishni sharhlash usulisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mumtoz asarlarni bugungi kun o'quvchisi uchun qadrli, qiziqarli qilish, ularni mutolaa qilishni hayotiy ehtiyojga aylantirishda tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi. Bu esa o'sha asarni haqqoniy baholashga, o'z davri doirasida o'rganish va bugungi kunimizga bog'lab tushunishga imkon beradi. Xullas, lirik asarlarni o'qitish badiiy asarga nisbatan, izohni, tahliliy yondashuvni, ilmiy bilimlarni va keng mushohadani talab qiladi. Murakkab, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni ma'no va mohiyati jihatidan tushuntirishga xizmat qiladi. Yashirin, tagma'no qirralarini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tarixiy voqealar, tasviriy vositalar orqali ochadi. Lirik asarning filologik, o'quv tahlili badiiy asardagi ilmiy-estetik hamda didaktik xususiyatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. 2016. Бадий таҳлил асослари. —Тошкент: Камалак.
- Абдуғафуров А. 2010. Бир ғазал таҳлили. Тил ва адабиёт таълими. №-10.
- Комилов Н. 2012. Маънолар оламига сафар. — Тошкент: Тамаддун.
- Тўхлиев Б. 2013. Бадий асарларни шарҳлаб ўрганиш. — Тошкент.
- Мирқосимова М. 2015. Ҳозирги ўзбек адабиёти намуналарини шарҳлаб ўрганиш. Услубий қўлланма. — Тошкент.
- Турсунова М. 2017. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. — Тошкент: Mumtoz so'z.
- To'raqulova M. Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish usullari. Maqola havolasi. <file:///C:/Users/admin/Downloads/To%E2%80%98.pdf>
- Қодиров В. 2019. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Докторлик диссертацияси. — Наманган.
- Ҳожиаҳмедов А. 1999. Мумтоз бадийят малоҳати. — Тошкент: Шарқ.
- To'xliyeva D. 2023. G'azal tahlil qilish metodikasi. —Toshkent: BAYOZ.
- Bobomirzayeva X. Bobur she'riyatida hijron timsoli. Maqola havolasi: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/xosiyat-bekmirzayeva-bobur-she-riyatida-hijron-timsoli>
- Tunali I. 1971. San'at ontologisi. Istanbul. Edabiyat Fakultesi Matbaasi. Bayram Y. 2008. Divan šiiri matnlarinin ontolojik tahlili uzerine. Anısına Uluslararası Dıvan Edabiyotı. İstanbul.
- Saidova N. 2022. G'azal tahlilida germeneytik yondashuv. Maqola havolasi: Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>
- Головацкая, Н. Ф. 2018. Анализ поэтического текста с помощью эйдос-конспекта. 5—7-е классы. // Педагогическая мастерская «Первое сентября». URL: <http://открытыйурок.рф/%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8/412223/> (дата обращения: 17.07.2018).

Abstract

Providing theoretical knowledge when teaching classical literature based on the knowledge, experience, skills and qualifications of students of literature and other subjects today serves as a guarantee of high efficiency. Without developing classical artistic thinking in students, it is impossible to ensure that they acquire the skills of both intellectual and spiritual perception of classical works. To do this, every teacher must be familiar with examples of classical literature and have the skills to analyze classical works. This article focuses on developing these skills. The importance of teaching methods and analysis of ghazals was explained.

Key words: *artistic, lyrical work, analysis, problem, research, review, ghazal genre, principles, scientific analysis, pedagogical analysis.*

References

- Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. 2016. Бадий таҳлил асослари. —Тошкент: Камалак.
- Абдуғафуров А. 2010. Бир ғазал таҳлили. Тил ва адабиёт таълими. №-10.
- Комилов Н. 2012. Маънолар оламига сафар. — Тошкент: Тамаддун.
- Тўхлиев Б. 2013. Бадий асарларни шарҳлаб ўрганиш. — Тошкент.
- Мирқосимова М. 2015. Ҳозирги ўзбек адабиёти намуналарини шарҳлаб ўрганиш. Услубий қўлланма. — Тошкент.
- Турсунова М. 2017. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. — Тошкент: Mumtoz so'z.
- To'raqulova M. Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish usullari. Maqola havolasi. <file:///C:/Users/admin/Downloads/To%E2%80%98.pdf>
- Қодиров В. 2019. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Докторлик диссертацияси. — Наманган.
- Ҳожиаҳмедов А. 1999. Мумтоз бадийят малоҳати. — Тошкент: Шарқ.
- To'xliyeva D. 2023. G'azal tahlil qilish metodikasi. —Toshkent: BAYOZ.
- Bobomirzayeva X. Bobur she'riyatida hijron timsoli. Maqola havolasi: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/xosiyat-bekmirzayeva-bobur-she-riyati-da-hijron-timsoli>
- Tunali I. 1971. San'at ontologisi. İstanbul. Edabiyat Fakultesi Matbaasi. Bayram Y. 2008. Di-van şiiri matnlarinin ontolojik tahlili uzerine. Anısına Uluslararası Divan Edabiyotu. İstanbul.
- Saidova N. 2022. G'azal tahlilida germeneytik yondashuv. Maqola havolasi: Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>
- Головацкая, Н. Ф. 2018. Анализ поэтического текста с помощью эйдос-конспекта. 5—7-е классы. // Педагогическая мастерская «Первое сентября». URL: [http://открытыйурок.рф/%D1\(дата обращения: 17.07.2018\).](http://открытыйурок.рф/%D1(дата обращения: 17.07.2018).)

¹ Marg'uba Abdullaeva — Doctor of philology (DSc), Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: margubaabdullaeva507@gmail.com

ORCID ID : 0000-0003-2088-6040

For citation: Abdullaeva M. 2024. "Puzzles of teaching lyrical works in Turkish literature". Uzbekistan: Language and Kulture. 4 [1]: 4—10.

O'ZBEK TILI O'QUV LUG'ATCHILIGINING AMALIY MASALALARI

Nilufar Abduraxmonova¹Saodat Boysariyeva²**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek o'quv lug'atchiligining davrlashtirish masalasi, o'zbek tilida yaratilgan o'quv lug'at namunalarining leksikografik xususiyatlari bayon etilgan. Akadem va o'quv lug'atlarning farqli jihatlari hamda o'quv lug'atlarining til ta'limidagi roli tavsiflangan. Mazkur xarakterdagi lug'atlarning umumiy va xususiy jihatlari tahlilga tortilgan. Yangi avlod o'quv lug'atlarini yaratishga doir olib borilayotgan tadqiqotlarning o'zbek lug'atchiligini rivojlantirishdagi ahamiyati borasida ayrim mulohazalar yuritilgan. Tilning faol leksikonini aniqlash o'quv lug'atlarini yaratishning dastlabki bosqichlaridan sanaladi.

Kompyuter dasturlari yordamida o'zbek tilining imkoniyatlarini namoyon etuvchi, o'quvchining mustaqil ta'lim olishga qulaylik yarata oladigan elektron o'quv lug'atlarining yaratilishi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda lug'atlarning kontentini boyitishda korpusga asoslangan yondashuv muhim ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, elektron shakldagi morfem o'quv lug'atini tuzishning lingvistik va leksikografik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *ona tili ta'limi, lug'at, akadem lug'at, o'quv lug'at, elektron lug'at, morfemika, so'z yasalishi, asosdosh so'zlar.*

Kirish

Barcha davrlarda jamiyat iqtisodiy, siyosiy, ilm-fan jihatdan yetakchilik qilgan davlatlar tilini o'rganishga ehtiyoj sezgan. Shu sababli asrlar davomida ikki tilli tarjima-o'quv lug'atlari muomalada bo'lgan. XX asr oxirlarida o'quv lug'atlarining leksikografik imkoniyatlari lingvodidaktika bilan hamkorlikda amalga oshirilgan bo'lsa, XXI asrga kelib bir qancha sohalar bilan integrallashganini kuzatish mumkin. Shu jumladan, bugungi kundagi tadqiqotlar o'quv lug'atchiligining pedagogika, lingvododaktika, kompyuter texnologiyalari, leksikogarfiya, tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishni talab qilmoqda. Yillar davomida ikkinchi tilni o'zlashtirish uchun vosita sifatida qaralgan o'quv lug'atlari endilikda ona tili ta'limiga yo'nalganlik tabiati orqali o'z foydalanuvchilari e'tiborini tortmoqda. Jamiyatda har bir shaxs o'z o'rniga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishi uchun undan ona tilidagi savodxonlik talab etilmoqda. O'z adabiy tilining normalarini targ'ib etishni maqsad qilgan tillarda ona tilida so'zlashuvchilar uchun yaratilgan o'quv lug'atchiligining maqsad va vazifalari shakllanib ulgurgan.

O'quv lug'ati atamasining dastlab rus leksikografi E.D.Polivanov "Ixcham ruscha-o'zbekcha lug'at"ida termin sifatida qo'llagan. Muallif lug'atga ta'rif berar ekan, "o'z hajmi bo'yicha u ma'lumotnoma lug'atining vazifasini bajarmaydi va o'quv lug'atlari toifasiga kiradi", — deb izohlagan [Polivanov E. D. 1926, 51]. O'zbek tilidagi onlayn ensiklopediya (qomus.info)da A. Madvaliyev tomonidan "Leksikografiya" haqida berilgan ta'riflarda bir qancha lug'atlar tipologiyasini izohlaydi hamda o'quv leksikografiyani *til o'rganishga ixtisoslashgan lug'atlarni o'rganuvchi soha*, deya

¹ Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori.

Elektron pochta: n.abduraxmonova@nuu.uz

ORCID ID: 0000-0001-9195-5723

² Boysariyeva Saodat Baxtiyor qizi, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

Elektron pochta: sboysariyeva@tersu.uz

ORCID ID: 0009-0000-4187-9005

Iqtibos uchun: Abduraxmonova N., Boysariyeva S. 2024. "O'zbek o'quv lug'atchiligining amaliy masalalari". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 11—19.

izoh beradi [Madvaliyev A.].

Aksar adabiyotlarda o'zbek tilidagi dastlabki o'quv lug'ati sifatida 1909-yil tuzilgan S.Toshkandiyning "Lug'ati salos" asari keltiriladi [Bahriddinova B. 2020, 80]. Bu o'sha davr kommunikativ vaziyatiga muvofiq uch tillik arabcha-forscha-turkcha lug'at til ta'limi uchun zarur edi. Shuningdek, 1953-yilda nashr etilgan "O'zbek klassik adabiyoti asarlarini o'qitish uchun qisqacha lug'at"i esa dastlabki sohashtirilgan o'quv lug'ati sifatida baholashimiz mumkin.

A.Yusupova XIX asr tatar tilining leksikografik manbalarining tadqiqiga bag'ishlangan ishida tatar, qirg'iz, qozoq tillari qatorida o'zbek tilida yaratilgan lug'atlarni sanab o'tadi. Uning fikricha, XIX asrda o'zbek tilida lug'at va grammatik qo'llanmalar yaratish an'anasi shakllangan edi. Misol tariqasida V.P. Nalivkinning 1884-yilda tuzilgan ruscha-sartcha, sartcha-ruscha lug'ati hamda 1895-yilda S. Lapin tomonidan tuzilgan "ruscha-o'zbekcha lug'at"larini keltirib o'tgan [Yusupova A. 2010, 50—51].

1975-yil fors tilini o'rganuvchilar uchun A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarovlarning "Forscha-o'zbekcha o'quv lug'ati" birinchi tajriba hisoblanadi. Fors adabiy tilidagi matbuot va radioda qo'llaniluvchi 9200 dan ortiq so'zlarning o'zbek tildagi eng ko'p qo'llanuvchi ma'nolari berilgan.

O'zbek lug'atchiligining XIX asr so'nggi choragida turkiy (o'zbekcha)-arab, turkiy (o'zbek)-fors, o'zbek-turk juftligida yoki aksincha tartibdagi lug'atlar ta'limiy xarakterdagi o'quv lug'atlari mavjud bo'lgan bo'lsa, XIX asr oxiri — XX asrda bular qatoriga rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan, hind va boshqa tillardagi lug'atlar ham qo'shildi. Ayniqsa, davr talabi bo'lgan ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar bular orasida eng faoli edi. 1950—1990-yillar oralig'ida katta hajmli o'quv-ta'limiy xarakterdagi o'nlab kichik hajmli ruscha-o'zbekcha lug'atlar yaratildi.

1930-yili K.D.Gormatovichning "Asosiy o'zbek tili" darsligining 2-nashriga qo'shimcha sifatida "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (2090 ta so'z va 710 ta so'z birikmasi) va "o'zbekcha-ruscha lug'at" (2475 ta so'z va 170 ta so'z birikmasi) ilova qilingan. Maktablar hamda oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim sifatini oshirishga, rusiyabon o'quvchilarning o'zbek tilini, o'zbek o'quvchilarining rus tilini puxta egallashlariga ma'lum darajada yordam bergan.

Dastlabki sartcha-ruscha, turkiycha-ruscha lug'atlar muallifi A.Starchevskiy o'z kitobida aytib o'tganidek [Starchevskiy A. 1—2], bunday lug'atlar mustamlaka hududlarga yuborilayotgan amaldorlarga shu hududda yashovchi aholining tilini o'rganishga ko'maklashishi ko'zda tutilgan edi.

B.Bahriddinova o'zbek o'quv lug'atchiligining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etib, o'quv lug'atlari hamda o'quv lug'atchiligi xarakter-xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi [Bahriddinova B. 2020, 102]:

1. Ta'lim, ma'lumot berish, tilni tasvirlash, me'yorlashtirish, til o'rganish vazifalarini ochib beruvchi.

2. Muayyan tilga xos o'quv lug'atlarining tarixini o'rganib, o'quv lug'atlari turlarini aniqlash va ularni takomillashtirishni yo'lga qo'yuvchi.

3. O'quv lug'atchiligining taraqqiyotini amaliy fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishini ta'minlovchi.

4. Yevropa va turkiy tillar doirasida yaratilgan o'quv lug'atchiligi tadrijiy rivojlanishi, yutuq va muammolarini tahlilga tortuvchi.

5. O'zbek o'quv lug'atchiligining davriy bosqichlari, hozirgi holati hamda istiqbolli vazifalarini belgilab beruvchi.

Amaliy leksikografiyaning muhim tarmog'i hisoblangan o'quv lug'atchiligi o'zida lug'atshunoslik va ta'lim sohalarini birlashtirgani bilan ajralib turadi. B.Bahriddinova o'zbek o'quv lug'atchiligi xarakter xususiyatlarni quyidagicha izohlaydi: boshqa tillarda yaratilgan o'quv lug'atlaridan nusxa olish, tarjima qilish va lug'atchiligidagi akadem lug'atlarni ixchamlashtirish natijasida yaratilganligi; ushbu sohaning tilshunosligimizda chuqur tadqiq etilmagani, bunday lug'atlarning tuzish prinsiplari ishlab chiqilmaganligi uchun o'quv lug'atlariga so'z tanlash ularni izohlashda turlicha yondashuvlar mavjudligi, lug'atlarning strukturasi har xillik ko'zga tashlanadi. Olima o'zbek o'quv lug'atchiligining taraqqiyot bosqichlarini 4 bosqichga ajratadi [Bahriddinova B. 2020, 65]:

O'quv lug'at chiligining taraqqiyot bosqichlari

	Davr	Lug'at turi	Vazifasi
1	X—XIV	Arabcha-turkcha, turkcha-arabcha lug'at-grammatikalar	Arab va turkiy tilni o'rganishga xizmat qiluvchi lug'at
2	XV—XVII	Forscha-turkcha, turkcha-forscha lug'at-grammatikalar	Badiiy-marifiy asarlarni sharhlovchi forsha-turkiycha, turkiycha-forscha lug'atlar
3	XIX—XX	Me'yorlashtiruvchi o'quv lug'atlari	Ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha tarjima, adabiy tilni me'yorga soluvchi
4	XXI ~	Me'yorlashtiruvchi, ta'limiy, kompyuter lug'atlari	Yangi avlod o'quv lug'atlari, korpusga asoslangan lug'atlar

Hozirgi o'zbek o'quv lug'at chiligini 2 ga ajratishimiz mumkin:



1. An'anaviy (bosma) o'quv lug'atlari.
2. Zamonaviy (elektron) o'quv lug'atlari.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini mustahkamlash hamda adabiy til me'yorlarini targ'ib etishga qaratilgan, maktab ona tili darsliklariga yordamchi vazifasini bajaruvchi o'quv lug'atlarga ehtiyoj sezila boshladi va buning natijasida 2006—2009-yillar oralig'ida bir qator maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan lug'atlar yaratildi. B.Mengliyev va B.Bahriddinovaning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" (2007, 2009), O.Shukurov, B.Boymatovanning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), B.Mengliyev, B.Bahriddinova va O.Xoliyrovning "O'zbek tilining so'z yasalihi o'quv lug'ati" (2008), U.To'rayeva va D.Shodmonovanning "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), I.Islomov va Sh.Bobojonovning "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati" (2007, 2009), Y.Xamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), B. Mengliyev va M.Xudoyberdiyevaning "O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati" (2007, 2009), T.Nafasov va V.Nafasovanning "O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati" (2007), X.Suvonova va G.Turdiyevaning "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), N.Abduraxmonova va G.Abdurahobovning "O'zbek tili omonimlarining o'quv lug'ati" (2022), N.Mahmudov va boshqalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" (2022) kabi lug'atlar o'zbek tili ta'limi uchun muhim o'quv vositasi sifatida baholanadi.

O'zbek o'quv leksikografiyamizning aksariyat o'quv lug'atlari akadem lug'atlarni ixchamlashtirish natijasida yaratilganligi haqida aytib o'tgan edik. Quyidagi jadvalda akadem va o'quv lug'atining chog'ishtirmasi keltirilgan.

Akadem va o'quv lug'atlar qiyosi

Lug'at turi	Akadem lug'at	O'quv lug'at
Imlo lug'at	"O'zbek tilining katta imlo lug'ati"	"O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati"
Nashr yili	2023-yil	2023-yil
So'zlar miqdori	90 000	27 000
Yozuv	Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi	Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi
Qidruvi	Alifbo tartibi	Alifbo tartibi

Auditoriyasi	Ta'lim tizimining barcha bo'g'ini: o'qituvchi, o'quvchi, talabalar, OAV xodimlari, nashriyot muharrir va musahhihlari, keng kitobxonlar ommasi	Umumta'lim maktablari, akademik litsey o'quvchilari
So'zlar ro'yxati		
Strukturasi	1. So'zboshi 2. Lug'atning tuzilishi va tarkibi 3. Lug'atda berilgan ayrim so'zlarning imlosiga oid ayrim qaydlar 4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari 5. Harflar imlosi 6. Ayrim so'zlarning yozilishi bo'yicha tuzuvchilarning tavsiyalari 7. Shartli qisqartmalar 8. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi 9. A dan Ch gacha bo'lgan so'zlar	1. So'zboshi 2. Lug'atning tuzilishi va tarkibi 3. Lug'atda berilgan ayrim so'zlarning imlosiga oid ayrim qaydlar 4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari 5. Ayrim so'zlarning yozilishi bo'yicha tuzuvchilarning tavsiyalari 6. Shartli qisqartmalar 7. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi 8. So'zlar

Globallashuv hamda ilm-fanga kompyuter texnologiyalarining integrallashuvi turli sohalarda o'zgarishlar bo'lgani kabi o'zbek o'quv lug'atligining keyingi bosqichida elektron lug'atshunoslik yetakchilikni o'z qo'liga oldi. Insoniyat bilimlariga tayanib ish ko'ruvchi sun'iy intellekt texnologiyalari uchun leksikografik bilimlar zaruriyati paydo bo'ldi.

Kompyuter dasturlari yordamida o'zbek tilining imkoniyatlarini namoyon etib, o'quvchiga qulaylikni yarata oladigan elektron o'quv lug'atlarining yaratilishi lug'atshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, mobil qurilmalar insoniyatning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan davrda lug'atshunoslar o'z mahsulotlarini shaxsiy kompyuter va mobil qurilmalarga xoslangan ko'rinishlarini taqdim etishi zarur. Bu borada leksikografik yondashuvga ega bo'lmagan, dasturchilar tomonidan taqdim etilgan bir qancha mobil lug'atlar iste'molda mavjud. Ammo lug'at tuzish alohida soha hisoblanadi. Bunga leksikografik nuqtayi nazardan yondashuvchi mutaxassis, albatta, zarur.

Mobil telefonlarning qulayligi tilni o'rganayotgan o'quvchiga matn va unga tegishli kichik hajmdagi lug'at (vocabulary) bilan ishlashga imkoniyat beradi. Mobil qurilmaning ishlash tezligi, qulayligi, qo'shimcha funksional imkoniyatlarga egaligi o'quvchining dars mashg'ulotidan tashqari mustaqil ishlash va bilimini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Til ta'limida o'quv lug'atlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurgan. So'nggi yillarda o'quv lug'atchiligiga doir o'zbek tili o'quv lug'atchiligi, til ta'limida lug'atlarning o'rni, yangi avlod o'quv lug'atlari yaratish zaruriyati, kompyuter hamda mobil lug'atlar yaratishning leksikografik jihatlarini ochib berishga qaratilgan bir qator tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin.

O'quv lug'atlarining nazariy asoslarini belgilashga doir tadqiqotlar soni ham ortmoqda. Xususan, B.Bahriddinova [Bahriddinova B. 2020, 20] tadqiqotida dastlabki o'zbek tilidagi o'quv lug'atlari hukumat buyurtmasiga ko'ra yuzaga kelgani, mazkur lug'atlarni yaratishda izohli, ensiklopedik, darslik-grammatika kabi turlari mavjud bo'lgani hamda yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzishda jahon o'quv lug'atchiligida sinovdan o'tgan tajribalardan foydalanish lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, bugungi kundagi o'zbek o'quv lug'atchiligining istiqboldagi vazifalari sifatida leksik minimumlar, o'quv terminologik lug'atlar, o'quv assotsiativ, o'quv ensiklopedik lug'atlarni elektron shaklda yaratish mezonlarini yaratish kerakligi haqida fikrlarini keltirib o'tgan.

Z.Rajabovanning frazeologik birliklar o'quv lug'atini yaratishning lingvistik jihatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotida o'quv lug'atchiligida o'quv frazeologik lug'atga so'z tanlashda ilmiy asoslanganligi, frazeologik lingvistik, didaktik, metodik jihatlarini lug'atga moslashtirish, lug'at samaradorligini oshirish uchun bugungi kun talablariga mosligini ta'minlashga qaratilgan nazariyalarni ochib berishga harakat qilingan [Rajabova Z. 2022, 3—5].

G'. Abduvaxobov omonim mobil o'quv lug'atini yaratish asnosida leksik, affiksial, frazeologik til birliklarining omonim paradigmasini shakllantirishga doir fundamental tadqiqot olib borgan e'tiborga loyiq. Tadqiqotchi tomonidan mobil ta'lim nazariyasidan kelib chiqqan holda omonimlar o'quv lug'ati yaratishning lingvistik asoslarini ochib berilgan. G'. Abduvaxobovning tadqiqoti o'zbek o'quv lug'atchiligi hamda elektron lug'atshunoslikning yangi davri boshlanganidan dalolat beradi [Abduvaxobov G'. 2023, 22].

Tadqiqotlarda o'quv lug'atining strukturasi quyidagi ko'rinishlarda shakllantirish mumkinligi ta'kidlangan [Rajabova Z. 2022, 15]:

1. Lug'at so'zligini mavzuviy tartiblash.
2. Lug'at maqolalarini asosiga ko'ra tartiblash.
3. So'zlikni turkumiga ko'ra tartiblash.
4. So'zlikni alfavit tartibida berish.

Yuqorida tavsiflangan o'quv lug'atchiligiga doir barcha tadqiqotlarda bugungi kunda lug'atlarni elektronlashtirish zaruriyati mavjudligi ta'kidlangan. Hozirgi axborot asrida ma'lumotlar kompyuter texnologiyalar vositasi orqaligina insoniyat qo'lga yetib bormoqda.

Elektron lug'atlarni yaratishda quyidagi funksional jihatlar inobatga olinishi lozim:

1. Sodda va intuitiv interfeys.
2. Lingvistik ta'minotda so'zlarni boyitib borish imkoniyati.
3. Tezkor qidiruv.
4. Ovozli qidiruv.
5. Qidiruvda imlo xatolarini tuzatish.
6. Ro'yxatni tezkor ko'rib chiqish imkoniyatini yaratish.
7. Ro'yxatda shrift o'lchamini sozlash.
8. O'zbek tili uchun lotin va kirill alifbolarini hisobga olish.

Bundan tashqari, lug'atning so'zlar bazasini boyitish va uning to'liq imkoniyatlaridan foydalanishi uchun qo'shimcha kontentlarni sotib olishni taklif etish zarur.

Shuningdek, o'quv lug'atlarining asosiy maqsadi hisoblangan o'quvchining so'z boyligini oshirishga qaratilganligini hisobga olgan holda mazkur lug'atda so'zlarning faol va nafaolligini (aktiv va passiv lug'at) aniqlashda A. Hojiyevning "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati" dan foydalanish mumkin. Bu orqali o'quvchi so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda qancha so'zdan faol

foydalanishini baholay oladi. Lug'at faqat hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanayotgan so'zlar qamrab olingan. Shuningdek, lug'at keng jamoatchilik uchun mo'ljallanmaganligi uchun kasbiy va ilmiy atamalarga kiritilmagan, undagi so'zlar bugungi o'zbek vaqtli matbuoti va nashr qilingan badiiy asar matnlari tarkibidan o'rin olgan so'zlardan tashkil topgan [Hojiyev A. Nurmonov A. va b.q. 2001, 3—4]. Mazkur lug'atda o'zbek tilining so'z yasash qonun-qoidalari asosida tuzilgan, so'z yasash asosi va so'z yasovchi kabi tarkibiy qismlarga bo'linadigan, xuddi shunday xususiyati bilan hozirgi o'zbek tili so'z yasash tizimiga kiradigan so'zlar yasama so'z sifatida qayd etilgan.

Elektron shakldagi o'zbek tili morfem o'quv lug'ati shu vaqtga qadar yaratilgan morfem lug'atlardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. Lug'at o'zida sinxron yondashuvga asoslangan morfem tahlilga ega.
2. Lug'atdan foydalanuvchi olgan bilimlarni tekshirish imkonini beruvchi grammatik topshiriqlar mavjud.
3. Qidiruv interfeysida so'zlarning grammatik shakllari aniqlangan.
4. Grammatik qo'shimchalar kombinatsiyasi hisobga olingan.
5. Morfem hosila birliklari modellashtirilgan.
6. Lug'at tarkibidagi so'zlar faol-nofaol so'zlarga ajratilgan.
7. Lug'at tuzish asosida o'zakdosh so'zlar lug'ati shakllantirilgan.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish uchun so'zlarni morfem tarkibga ajratish muhimdir, so'zlar yasashining lug'atlarda aks etishi lug'at foydalanuvchisiga so'zlarni turkumlarni o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Lug'atlarning elektronlashuvi an'anaviy lug'atlarda imkonsiz bo'lgan tildagi barcha grammatik shakllangan so'zni o'zida qamrab olish muammosiga yechim bo'ldi. Ayniqsa, katta hajmli korpus ma'lumotlar bazasi yordamida hosil qilingan tokenni solishtira olish grammatik ma'lumotning aniqligini ta'minlab beradi. Bundan tashqari, an'anaviy lug'atdagi alifbo tarkibini morfem lug'atga nisbatan qo'llash imkonsiz edi, qidiruvga asoslangan elektron lug'atlar tildagi so'zlarni aniq va tezkor morfem tarkibga ajratishga yordam beradi.

Chet tilini o'zlashtirishda muayyan tildagi so'z yasash modelini o'rganish so'z turkumlari ni yaxshi o'zlashtirishga ko'maklashadi. Ikkinchi tilni o'zlashtirishda so'z yasashini o'rganish ixtiyoriy ravishda lingvistik bilimlarni kengaytirishga yordam berishi mumkin. Shuni ta'kidlash o'rinliki, ona tili va chet tilini o'zlashtirish jarayonida so'z yasashini o'rganish o'quvchining til savodxonlik darajasini oshishiga yordam beradi [Tschichold C., Hacken P. 2015, 4—6]. Shu sababli ham ko'pgina tadqiqotchilar so'z yasashi bu faqat ilg'or o'quvchilar uchun deb ta'kidlashadi.

Xulosa

O'quvchining lug'at boyligini oshirishda so'z yasash qonuniyatlarini nechog'lik o'zlashtirganligi muhim sanaladi. So'z yasashi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunuvchi, tilni va til o'rganuvchining so'z boyligini boyituvchi vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda o'zbek tilidan amaliy foydalanish kompetensiyasini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Jamiyatda tillararo kommunikatsiyani ta'minlash, til qurilishini tadqiq etish, tilni me'yorlashtirish, til egasining tafakkuri, nutqini o'stirishda hamda til o'zlashtirishda lug'atlarning o'zni beqiyosdir.

Adabiyotlar

Abduraxmonova, N. va b. 2021. O'quv lug'atini tuzishning nazariy metodologik asoslari // Сўз санъати. — Тошкент. — №4/4. — Б. 103—108.

Abduraxmonova, N. va b. 2022. Til pedagogikasida mobil lug'atlardan foydalanishning amaliy masalalari // Ona tili ta'limida o'qitish va baholash muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Toshkent. — B. 255—262.

Boysariyeva, S. 2024. Electronic dictionaries as a new stage of lexicography // Science and Innovation. — T., 3. — №. 2. — C. 32—34.

Бахриддинова, Б. 2020. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари. (DSc) диссертацияси автореферати. — Самарқанд. 69 б.

Поливанов, Е. 1926. Краткий русско-узбекский словарь — [Ташкент; Москва]: Б.и.; (Туркпечать). XII, 218.

Мадвалиев, А. Онлайн энциклопедия. Лексикография. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-1/leksikografiya-uz/>

Юсупова, А. 2010. Лексикографическое наследие татарского языка. — Казань: Алма-лит. — 133 с.

Старчевский, А. Спутник русского человека в Средней Азии... — С. 1—2.

Ражабова, З. 2022. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. — Қарши.

Abduvohobov, G'. 2023. Yangi avlod omonimlar o'quv lug'ati mobil ilovasini yaratishning lingvistik asoslari: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)... dis. avtoref. — Farg'ona.

Hojiyeva A., va b. 2001. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. — T.

Nilufar Abdurakhmonova¹

Saodat Boysariyeva²

Abstract

The article describes the issue of periodization of Uzbek educational dictionary, the lexicographic features of the first examples of a educational dictionary. The differences between academic and educational dictionaries and the role of academic dictionaries in language education are described. Micro and macro schemes of dictionaries of this nature are compared. Considerations on the importance of Uzbek lexicography are given in the current research on the creation of new generation educational dictionaries. Determining the active lexicon of the language is one of the first conditions for creating an educational dictionary. The issue of clarifying the level of activity of existing words in the language for dictionaries of an educational character is also mentioned.

It has been revealed that the creation of electronic educational dictionaries that demonstrate the possibilities of the Uzbek language with the help of computer programs and can create convenience for the student is one of the tasks facing our lexicology. Research works on the formation of a unique style of our lexicography in the creation of new types of digital dictionaries are analyzed. Linguistic and lexicographical aspects of creating a morpheme educational dictionary in electronic form are also highlighted.

Key words: *mother tongue education, dictionary, academic dictionary, educational dictionary, electronic dictionary, morphemics, word formation.*

References

- Abduraxmonova, N. va b. 2021. O'quv lug'atini tuzishning nazariy metodologik asoslari // Сўз санъати. — Тошкент. — №4/4. — Б. 103—108.
- Abduraxmonova, N. va b. 2022. Til pedagogikasida mobil lug'atlardan foydalanishning amaliy masalalari // Ona tili ta'limida o'qitish va baholash muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Toshkent. — B. 255—262.
- Boysariyeva, S. 2024. Electronic dictionaries as a new stage of lexicography // Science and Innovation. — T., 3. — №. 2. — C. 32—34.
- Баҳриддинова, Б. 2020. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари. (DSc) диссертацияси автореферати. — Самарқанд. 69 б.
- Поливанов, Е. 1926. Краткий русско-узбекский словарь — [Ташкент; Москва]: Б.и.; (Туркпечать). XII, 218.
- Мадвалиев, А. Онлайн энциклопедия. Лексикография. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-1/leksikografiya-uz/>
- Юсупова, А. 2010. Лексикографическое наследие татарского языка. — Казань: Алма-лит. — 133 с.
- Старчевский, А. Спутник русского человека в Средней Азии... — С. 1—2.

¹ Abdurakhmonova, Nilufar, Doctor of philology (DSc), Professor of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

E-mail: n.abduraxmonova@nuu.uz

ORCID ID: 0000-0001-9195-5723

For citation: Abdurakhmonova, N., Boysariyeva S. 2024. Applied issues of Uzbek language educational lexicography. Uzbekistan: Language and Culture. 4 [1]: 11—19.

² Boysariyeva Saodat Baxtiyor qizi, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

E-mail: sboysariyeva@tersu.uz

ORCID ID: 0009-0000-4187-9005

For citation: Abduraxmonova N., Boysariyeva S. 2024. Applied issues of Uzbek language educational lexicography. Uzbekistan: Language and Culture. 4 [1]: 11—19.

Ражабова, З. 2022. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. — Қарши.

Abduvohobov, G'. 2023. Yangi avlod omonimlar o'quv lug'ati mobil ilovasini yaratishning lingvistik asoslari: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)... dis. avtoref. — Farg'ona.

Hojiyeva A., va b. 2001. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. — T.

**O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARI UCHUN MASHQ VA TOPSHIRIQLARLARNING
RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI MASALASI**Shaxlo Yuldasheva¹**Annotatsiya**

O'quv mashg'ulotlarida davomat va o'zlashtirishning pasayib borayotganligi, bugungi talabalarining "oldingi talabalar emas"ligi bo'yicha muhokamalar allaqachon institut, universitet devorlaridan tashqariga chiqib dunyo miqyosidagi muammo sifatida yechim izlanmoqda. Shunday vaziyatda butun dunyoda kuzatilayotganligi kabi O'zbekistonda ham OTMlarning raqamli transformatsiyasi sodir bo'lmoqda. Bu holat qator savollarni ko'ndalang qo'yadi. Axborot va raqamli texnologiyalar mavjud holatga qanday ta'sir ko'rsatadi? Universitet va institutlar hamda muayyan fanlarni o'qitish jarayoni raqamli ta'lim uchun qay darajada tayyor? An'anaviy ta'lim vositalarining raqamli transformatsiyasi qanday amalga oshiriladi? Maqolada mana shu savollarga mashq va topshiriqlarning raqamli transformatsiyasi orqali javob berishga harakat qilingan. Tadqiqotda mashq va topshiriqlarni raqamli transformatsiyalash imkoniyatlariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili, sayt va platformalar tahlili, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini pedagogik kuzatish kabi usullardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, mashq, topshiriq, raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, Live-worksheets, Quizziz, LearningApps.*

Kirish

O'quv mashg'ulotlarida davomat va o'zlashtirishning pasayib borayotganligi, bugungi talabalarining "oldingi talabalar emas"ligi bo'yicha muhokamalar allaqachon institut, universitet devorlaridan tashqariga chiqib dunyo miqyosidagi muammo sifatida yechim izlanmoqda. Shunday vaziyatda butun dunyoda kuzatilayotganligi kabi O'zbekistonda ham OTMlarning raqamli transformatsiyasi sodir bo'lmoqda. Bu holat qator savollarni ko'ndalang qiladi. Axborot va raqamli texnologiyalar mavjud holatga qanday ta'sir ko'rsatadi? OTMlari hamda muayyan fanlarni o'qitish jarayoni raqamli ta'lim uchun qay darajada tayyor? Ta'lim vositalarini, xususan, mashq va topshiriqlarni raqamlashtirish o'quv jarayoniga qanchalik ijobiy ta'sir qiladi? Raqamli resurslar, multimedaviy mashqlar talabalarni faollashtirishga xizmat qiladimi?

Davrimizda turli yoshdagi kishilarning tillarni o'rganishga qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Bir paytlar xorijiy tillarni magnitofon va kassetalar vositasida audiomateriallarni tinglash orqali o'rganish urf bo'lib, kompyuter texnologiyalari imkoniyatlarining kengayishi sababli ularning siqib chiqarilganligini hisobga olsak, smartfonlar va planshetlarning shaxsiy kompyuterlar o'rnini egallab olayotganligini nazarda tutsak, ta'lim kontentlarini mobil ilovalar tarzida tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqayotganligini sezish qiyin emas. "XXI asr jahon ijtimoiy taraqqiyotida raqamlashtirish yangi trend" [Xalin, Chernova, 2018] sifatida namoyon bo'ldi. Vaholanki, 2017-yildayoq internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismi 18 yoshgacha bo'lgan bolalar ekanligi bildirilgan edi [Unisef.org].

Bugungi kunda ta'lim industriyasi va bozori keng quloq ochib rivojlanmoqda. Birgina ingliz tili misolida aytish mumkinki, bu tilda dunyoning 110dan ortiq davlatida 400 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Bu raqamlar kundan kunga ortib bormoqda. Talab va ehtiyojlar ingliz tilini o'qitish

¹ **Yuldasheva Shaxlo Shukurlayevna** — pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori.

E-pochta: shahlondpi@gmail.com.

ORCID ID: 0000-0001-9797-8635

Iqtibos uchun: Yuldasheva Sh. 2024. O'zbek tili mashg'ulotlari uchun mashq va topshiriqlarning raqamli transformatsiyasi masalasi. O'zbekiston: til va madaniyat. 4[1]: 20—28.

nazariyasi va metodikasini ham rivojlantirmoqda. Ingliz tilini, shuningdek boshqa xorijiy tillarni o'rganish uchun internet tarmog'ida turli ilovalar va ta'lim resurslari son-sanoqsiz. O'zbekistonda ham o'zbek tilini mamlakatda va xorijda rivojlantirish, nufuzini oshirishga qaratilgan til siyosatining mustahkamlanayotganligi o'zbek tilini o'qitish, o'rgatish ishlarini yangi shiddatli oqimga tushayotganini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar sinf/auditoriyalar, mashg'ulotlar jihozlarning takomillashuviga imkoniyat yaratdi. Bu esa til mashg'ulotlarining "joni" hisoblangan mashq va topshiriqlarni raqamli transformatsiyalash jarayonini jadallashtirdi.

Asosiy qism

Raqamli transformatsiyaning muayyan fanlarni o'qitishga ta'siri va xususiyatlari, raqamli ta'lim jarayoniga o'qituvchilarning tayyorgarligi masalasi [Brown, 2001], raqamli ta'lim muhitida pedagoglar faoliyatidagi vazifaviy o'zgarishlar, zamonaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida zamonaviy pedagogning o'rni va uni amalga oshirish [Nevolina, 2022], ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari [Kamolovich, 2022] tadqiq qilingan. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilganda uning afzalliklari qatorida elektron ta'lim o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati cheklangan aholi uchun potensial sharoit yaratishi mumkinligi alohida qayd etiladi [Journell, 2018; Hillier, 2018].

Xorijiy olimlarning elektron/raqamli ta'limning mohiyatini va xususiyatlarini aniqlash sohasidagi tajribalarida, xususan, Börje Holmberg [Brown, 2001], Loboda O.V., Grudin A.M., Alimagadova S.A., Zenkova T.L., Orlova O.I., Sheveleva A.A. [Loboda, 2023] kabi mutaxassislarining tadqiqotlarida raqamli ta'lim tizimi bir jihatdan moslashuvchan bo'lsa, ikkinchi jihatdan o'ta murakkab jarayon ekanligi ta'kidlanadi. Binobarin, juda murakkab bo'lgan raqamli ta'lim tizimi teskari natijalarga olib kelishi muqarrar, chunki murakkab tizimni nazorat qilish ham murakkablashadi. Garchi ta'lim jarayoniga elektron-hisoblash texnikasini joriy qilish Sobiq Ittifoqda rasman 1985-yildan boshlangan bo'lsa ham [Budensev, 2020], bu jarayonni ilmiy tadqiq qilishga 2000-yillardan kirishilgan bo'lib, kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari, raqamli ta'limning psixologik va pedagogik masalalari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlari И.Б.Побе́рт [robert-school.ru], А.В.Хыто́рской [khutorskoy.ru], В.А.Тра́йнев, И.В.Тра́йнев [Traynev, 2004], Е.С.Пола́т [Polat, 2010] kabi rus olimlari tomonidan o'rganilgan. Bu masala til o'qitish muammosi bilan uzviylikda muhim tadqiqotlar doirasida o'rganilmoqda. Dunyoning yetakchi markazlari va oliy ta'lim muassasalari qatorida Rossiya Federatsiyasi (Qozon federal universiteti EduTech raqamli ta'lim texnologiyalari markazi), Turkiya Respublikasi ("Firsatlarini Artırma ve Teknolojiyi İyileştirme Hareketi (FATİH)", "YÖK Dijitalleşiyor" loyihaları) raqamli ta'lim markazlari va laboratoriyalarida keng miqyosdagi loyihalar olib borilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, o'zbek tiliga qarindosh sanaluvchi Turkiya turkchasini o'qitishda "FATİH" loyihasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyiha tufayli 2011-yildan kompyuterlar, planshetlar, aqlli doskalar kabi texnologik vositalar turk tilini o'qitishga joriy qilinishi jadallashgan. "OAK Byulleteni" jurnalida e'lon qilingan izlanuvchilarning dissertatsiya tadqiqotlari mavzularini o'rganish shuni ko'rsatdiki, 2020 — 2022-yillarda pedagogika fanlari tarmog'i bo'yicha 59 ta mavzu tarkibida (axborot texnologiyalari, elektron ta'lim terminlarini istisno qilganda) "raqamli" yoki "raqamlashtirish" so'zlari mavjud bo'lib, raqamli texnologiyalar bilan aloqador ilmiy tadqiqotlar miqdori ortgan. Ularning faqatgina 4,7 foizi til o'qitishda raqamli texnologiyalar tatbiqiga bag'ishlangan. O'zbekistonda raqamli ta'limni tashkil etish, axborot texnologiyalarini, o'qitish uslublarini qo'llashning didaktik va metodik masalalari A.Abduqodirov, A.Pardayev [Abduqodirov, 2009], R.H.Hamdami, U.S.H.Begimkulov, N.I.Taylaqov [Hamdamov, 2010], M.E.Mamarajabov [Mamarajabov, 2022] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda yoritilgan. Mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi [O'R VMQ-475] raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashda muhim qadam bo'ldi. U.Jumanazarov tadqiqotida "raqamli ta'lim — yangi-yangi texnologiyalar, platformalar va interfaol ta'lim metodlarini ishlab chiqish hamda ularni bugungi hayotga joriy etish orqali mavjud kundalik ta'lim mazmunini o'zgartirish, mutlaqo yangi ta'lim tizimiga ko'chirish", — degan ilmiy g'oya ilgari surilgan. "Raqamli ta'lim bu — axborot, jumladan, personal axborotdan foydalanish hisobiga ta'lim

ishtirokchilari, ya'ni "ta'lim oluvchilar" va "ta'lim beruvchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, uning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi yangicha tizimdagi ta'limdir", degan nazariy xulosasi ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan [Jumanazarov, 2021].

Ta'lim jarayoni samaradorligi interfaol didaktik o'yinlar va mashqlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o'quvchilarning jamoa bo'lib yoki individual faoliyatida malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham, tillarni o'rganishda amaliy ishlar muhim o'rin egallaydi. Dars va mashg'ulotlarining ko'proq qismi mashqlar bajarishga sarflanishi kutilgan natijalarga yaqinlashtiradi. Shu bois J.Jalolov chet tillarini o'qitishda "til o'rganish bu mashqlar jarayoni" degan edi [Jalolov, 2012]. Olim jarayon deganda mashqlar ustida bajariladigan harakatlar — dinamika tomonini nazarda tutadi. J.Jalolov mashqning ikkinchi — statik tomonini esa darslik va o'quv qo'llanmada muayyan belgi: raqam yoki harf bilan ajratib ko'rsatilgan o'quv-metodik kategoriya deb ta'riflaydi. Mashqning "mashq talabi (sarlavhasi)" va "mashq material" dan iborat ikki qism bo'lishiga e'tiborimizni qaratadi. O'zbek tili mashg'ulotlarini ham mashqlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Darhaqiqat, "mashqlar mavzuni o'zlashtirish maqsadida muayyan bir harakatlarni takroran bajarishdir" [Yuldasheva, 2023].

Til o'rgatishda nutqiy faoliyatning to'rtta turi: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan og'zaki va yozma mashqlarni to'g'ri tanlash taqozo qilinadi. Bu talab raqamli mashqlarga ham taalluqlidir. Bunda rasm va matnli axborot tovushli va harakatdagi shakllardan iborat axborot bilan integratsiyalanadi.

Uzoq yillar davomida o'zbek tili va xorijiy tillarni o'qitish jarayonida mashqlardan foydalanish jarayonini kuzatish va o'rganishlar shuni tasdiqladiki, o'zbek tili va xorijiy tillar, xususan, ingliz tilini o'qitish amaliyotida an'anaviy mashqlar, interfaol mashqlar, multimedaviy mashqlardan foydalanish va ularga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek ularning ahamiyatini bir xil deb baholash mumkin emas. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida raqamli resurslar qatorida multimedaviy mashqlarga murojaat qilishda muntazamlik kuzatilsa, aksincha, o'zbek tili mashg'ulotlarida multimedaviy mashqlar emas, balki an'anaviy mashqlarga ustuvorlik berilmoqda. Bu farqni bartaraf qilish yo'llari va imkoniyatlarini topish uchun tadqiqot amalga oshirildi. Xorijiy tillarni o'qitishda yuqori samara berayotgan raqamli mashqlarni andoza qilgan holda o'zbek tili darslariga mos raqamli mashqlarni yaratish bo'yicha mavjud nazariy va metodik adabiyotlar tahlil qilindi va lingvodidaktik maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lgan onlayn platformalar o'rganib chiqildi.

O'zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rganishda internetning sinxron va asinxron raqamli resurslarga, ta'limiy platformalarga murojaat qilish esa o'qituvchi va talabalar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Xo'sh, ta'limiy platformalar nima? Avvalo, platforma konseptini pedagogika, metodika sohasida qo'llash borasida to'xtalib o'tish zarur. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha izohlangan: Platforma so'zi fransuzcha, tekis shakl degan ma'noni anglatadi va ko'p ma'noli so'z bo'lib, to'g'ri ma'noda temir yo'l sohasida, ko'chma ma'noda siyosatda va boshqa sohalarda qo'llanadi.

Ta'limiy platforma so'z birikmasi informatika sohasiga oid lug'at va adabiyotlardagi ta'rifiga ko'ra, **internet orqali ta'lim olishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'rtasidagi vositachi servis sanaladi. Ular o'ziga xos sayt bo'lib, o'quv materiallari ishlab chiqilishi va fond sifatida joylashtirilishi, shu bilan birga virtual sinflarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi mumkin.** Aksariyat platformalar bilim, ko'nikma va malakalarni baholash instrumentlarining qulayligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Xususan, iqtisod va jamiyatning barcha sohalarida qatorida ta'lim sohasida ham **Udemy, Skillshare, Coursera, edX, Duolingo** kabi kompaniyalar va ularda faoliyat yuritayotgan xodimlarning yirik biznes platformalar safida butun jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatayotganligini e'tirof etish lozim [Kowalski, 2020]. So'nggi paytlarda **uzbekonlaynshkola** platformasi [schoolandcollegelists.com] o'zbek tilini o'rganuvchilar orasida ommalashmoqda. Bu kabi interfaol platformalarda foydalanuvchilarning istalgan vaqtda o'quv materiallariga murojaat qilishlari uchun imkoniyat yaratiladi, o'qituvchi boshqa videoaloqa vositalarining funksiyalaridan foydalanib mashg'ulotlar tashkil qila oladi. Bu

xizmatdan foydalanishda kirish mashg'uloti muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda o'zbek tilini bi-lish darajasi aniqlanadi va shu asosda o'rganuvchi tegishli o'quv kursiga yo'naltiriladi. Shu tariqa muayyan reja bo'yicha o'rganuvchi bilan muvofiqlashtirilib ishlab chiqilgan o'quv dasturi, asosiy va yordamchi o'quv materiallari, muntazam nazorat qilinadigan topshiriqlar tufayli o'zbek tilini o'qitish samarali va qiziqarli mashg'ulotlarga aylanadi.

O'zbek tili fani uchun ta'limiy platformalar tanlashda ahamiyatli yana bir jihat borki, bu o'quv materiallarini tayyorlashda platformaning o'zbek tilini qo'llab-quvvatlashi masalasidir. Ya'ni o'quv materiallarini o'zbek-kirill, o'zbek-lotin alifbosida taqdim qila olish, raqamli mashqlar va topshiriqlarni bajarish jarayonida teskari aloqada platforma interfeysida o'zbekcha qo'llab-quvvatlash mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasidir.

Jahon tajribasida an'anaviy mashqlarni elektronlashtirish uchun ko'pincha ishlash qulay va tushunarli bo'lgan PowerPoint dasturiga murojaat qilinadi. Tillarni o'qitish vositalarini o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashqlarni axborot va multimedia texnologiyalari bilan integratsiyalash uchun test yaratishga mo'ljallangan dasturlar fan o'qituvchilarining mehnatini yanada yengillashtiradi. Xususan, Ispring, Hotpotatoes va b. O'zbek tilini o'qitishda mazkur dasturlar muayyan darajada tatbiq qilingan.

O'rganishlarimiz natijasiga ko'ra, onlayn platformalar orasida *Quizziz*, *Liveworksheets*, *LearningApps* konstruktorlarining afzalliklari aniqlandi. Mazkur onlayn platformalarda o'zbek tili darslarining muayyan bosqichlari va o'quv material mazmuniga mos o'quv faoliyatini inobatga olgan holda raqamli mashqlar turlaridan foydalanib darslarning qismlari namuna sifatida modellashtirishirildi.

Muallifning Liveworksheets platformasida o'zbek tilidagi mashqlarning raqamli transformatsiyasiga bag'ishlangan maqolada platforma imkoniyatlari batafsil yoritib berildi [Yuldasheva, 2023].

LearningApps.org o'quv jarayonida foydalanishga qulay bo'lgan interfaol resurs hisoblana-
di. Turli shablonlardan, masalan **Choose the right item, Match the pictures with the words, Fill in the gaps, etc.; Make up a dialogue (or Put the lines in the right order), Describe the picture / Compare two pictures, etc.** kabi mashq turlaridan foydalanib, audio, video fayllar bi-
lan turli qiyinchilik darajasi uchun topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. **My classes** ilovasi orqali kichik guruhlarda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil qilish mumkin.

Raqamli qurilmalarda (kompyuter, qo'l telefoni) mashq bajartirish — o'quv jarayonida va mustaqil ravishda ishlashda katta o'rin egallaydigan, ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyat-
larini tashkil qilish va boshqarish usuli o'rnini bosuvchi, tegishli predmetning mazmuniga mos bilim, ko'nikma va malakalarni maqsadga yo'naltirgan holda shakllantirish vositasi bo'lgan ta'lim metodlarining bir formasi hisoblangan, nazariya bilan amaliyotning aloqa vositasi bo'lgan ko'p qirrali ta'lim hodisasidir. Til ta'limida mavjud bo'lgan an'anaviy mashq turlarining deyarli bar-
chasini raqamlashtirish mumkin.

- bo'sh o'ringa harf yoki so'zlarni qo'yish;
- tinish belgilarni qo'yish;
- tilning turli sathlari uchun qabul qilingan shartli belgilarni qo'llash;
- matnni tahrir qilish va hk.

Mashqlarni raqamlashtirishda iSpring, My TEST, Hotpotatoes dasturlari, *Quizziz*, *Livework-
sheets*, *LearningApps* platformalarining o'qituvchi mehnatini, mashq va topshiriqlar, testlar tayyorlash jarayonini yengillashtiruvchi imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

An'anaviy mashqlarning raqamli transformatsiyasida mashq talabi (sarlavhasi)da fe'llardan to'g'ri va o'rinli foydalanish zarur: *yozing, sanab bering, ajrating, tanlang, ko'rsating, moslashti-
ring, belgilang* va sh.k.

Xususan, mashq talabida quyidagi jumalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

*Lug'atdan ushbu so'zning izohlanishini toping, matnda qanday ma'noda qo'llanganini aniqlang
... haqida axborot toping.*

Audiomatnda o'zbek tili adabiyoti me'yorlariga zid holatlarni aniqlang, me'yoriy holat bilan taqqoslang.

Matndan maqol, metafora, parafrazalarni aniqlang, ularni sinonimlari bilan almashtiring.

Matndan biror so'zni tanlang va sinonimini aniqlang. Bu so'zlar qaysi uslub uchun mos: ilmiy ma'ruza, ommabop nutq, so'zlashuv uslubida: siz bu so'zni kim bilan gaplashganda foydalanasiz: tengquringiz bilan, o'qituvchi bilan, yoshi kattalar bilan va hk.

Mazkur til mashqlari talabalarda tilning har bir sathi haqidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga, sathlarni farqlab borishga yordam beradi.

O'rganilayotgan tilda talabalarni matn yaratishga qiziqtirish, motivatsiyani oshirish uchun matn muharriri keng imkoniyatlarga ega.

Raqamli resurslarni yaratishning yuqorida sanab o'tilgan nazariy va amaliy asoslariga tayan-gan holda o'zbek tili ta'lim mazmunini takomillashtirilib "O'zbek tili. B2" [Yuldasheva, 2020], "O'zbek tili (kechki va sirtqi bo'lim uchun darslik)" [Yuldasheva, 2021] darsliklari loyihalandi va yaratildi. Darslik o'quv materiallarini tayyorlashda iSpring, Hotpotatoes dasturlari, Quizizz, Live-worksheets, Learningapps onlayn konstruktorlari, Google xizmatlaridan foydalanildi.

Darsliklardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarning gadgetlarini qo'llash tajribasi — **BYOD (bring your own device: qurilmangizni olib keling)** texnologiyasini taqozo qiladi. Bosma ada-biyotda tinglash, gapirishga xizmat qiluvchi audio, video materiallar va o'qish, yozish ko'nikmalar-ni rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar QR kodlar bilan taqdim qilingan. Bu texnologi-ya qator afzalliklarga ega: talaba cheksiz internet olamiga "sho'ng'ib" o'quv materialidan chetga chiqmaydi; auditoriyaning videoprektor yoki interfaol doskalar bilan jihozlanmaganligi raqamli texnologiyalardan foydalanishga mone bo'lolmaydi; bitta gadget — qo'l telefoni bosma kitob va raqamli resursni integratsiyalaydi.

Shu bilan birga o'zbek tili fani misolida ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash va ijobiy natijalarni oshirish uchun bir necha tavsiyalarni keltirishni o'rinli deb bilamiz. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari keng va uning samarasi quyidagi jihatlariga bog'liq:

o'zbek tilidan talabalar so'z boyligini oshirishga va kasbiy kompetentligiga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilsa;

o'qituvchilar o'quv materiallari tayyor onlayn konstruktorlar (quizizz, liveworksheets, learningapps), pedagogik dasturiy vositalar yordamida ishlab chiqishda faollasha;

raqamli texnologiyalardan, xususan, multimedia imkoniyatlaridan (matn, ovoz, animatsiya, video) tizimli foydalanilsa;

dars jarayonida talaba-gajet (kompyuter, planshet, smartfon) tizimida o'qituvchining masla-hatchilik vazifasi ortib borsa;

talabalarining mustaqil ishlay olish ko'nikma va malakalari rivojlantirib, sinxron va asinxron platformalar orqali mustaqil ishlarni bajarish jarayoniga jalb qilinsa;

talabalarining o'zbek tilidan fonetik, leksik, grammatik bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalari, kompetensiyalari avtomatlashtirilgan baholash bo'yicha fond yaratilsa va foydalanilsa.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar davrida ham an'anaviy vositalar o'z qimmatini yo'qotayotgani yo'q. Xususan, bo'r bilan yoziladigan doska eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatan ko'proq ishla-tiladigan, nazariy va amaliy darslarda eng ko'p qo'llaniladigan vosita sifatida qolmoqda. Bugungi televizorlar va kompyuterlar dunyosida ham doska sinfdagi eng ishonchli va ko'proq qo'llani-ladigan o'quv vositasidir. Biroq ko'chada XXI asr kezib yurganligini hisobga olish zarur. "Raqamli iqtisodiyot davridagi o'zgarishlar — transformatsiyaga tayyor bo'lmaganlarga shafqatsiz bo'lgan global inqilobiy texnologiya" [Bobrovnikov, 2018] aksariyat hollarda an'anaviy metodikaning o'zi noo'rin foydalanilayotganini, bu holat esa deyarli "zanglagan" o'qitish metodikasini paydo qilgan-ligini namoyon qilib turibdi. O'rganishning eng qiyin qismi yangi g'oyani o'zlashtirish emas, balki eskisidan voz kechishdir [Tood Rooz, 2018]. Binobarin, raqamli texnologiyalar mashq va top-shiriqlardan iborat til ta'limini jozibali qiladi. Quizizz, Liveworksheets, Learningapps onlayn kon-struktorlari, Google xizmatlari vositasida viktorinalar, boshqotirmalar, interfaol mashqlar yara-tishga qulayligi bilan ta'lim ishtirokchilarida motivatsiya paydo qiladi. Aksariyat hollarda sinf/

auditoriyada raqamli vositalardan foydalanish talabi qo'yilsa, sinfxona/auditoriyalarning eng so'nggi rusumdagi axborot vositalari, qurilmalar bilan jihozlanmaganligi haqida e'tirozli fikrlar aytiladi. Vaholanki, sinfxonalar raqamli qurilmalar — aqlli doskalar yoki televizor, kompyuter, planshet, aqlli telefon va aqlli soatlar bilan jihozlanmaganda ham o'qitishni raqamlashtirish imkoniyati bo'ladi, o'qituvchining yoki o'quvchining shaxsiy qurilmalaridan, ya'ni **BYOD (bring your own device: qurilmangizni olib keling)** texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonda ham, rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham mavjud. Raqamli resurslar krossvord, rasmlar, qiziqarli topshiriqlar, testlar yaratishni bir zumda uddalashi, bir nechta vazifalarni bajara olsa ham, qurilma, masalan, kompyuter yoki qo'l telefoni o'qituvchi vazifasini to'liq bajara olmaydi, balki uning vazifalarini to'ldiradi. O'qituvchi o'z darsiga mos dasturlarni, didaktik materiallarni, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni tanlaydi, ta'lim jarayonida ularning ana shu topshiriqlarni bajarishlariga ko'maklashadi, o'quvchilarning bilimini va rivojlantirishini baholaydi.

Raqamli qurilmalar va manbalardan foydalanishda qiyinchiliklar va muammolar bo'lishi muqarrar. Ayniqsa onlayn aloqada uzilishlar bo'lishi, tarmoqqa ulanish tezligining pastligi, zarur manbaga bog'lana olmaslik, bepul dasturlarda aloqa vaqtining cheklanganligi va h.k. Shuning uchun onlayn yoki masofadan dars berishda kutilishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarni, "muvaffaqiyatsizliklar"ni oldindan hisobga olish, muqobil ish turlarini ham rejalashtirish taqozo qilinadi.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/554445>

Abduqodirov A., Pardayev A. 2009. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan. — 145 B.

Brown MR, Higgins K, Hartley K. 2001. Teachers and Technology Equity TEACHING Exceptional Children, 33, pp. 32—39.

Budansev D.V. 2020. Sifrovizatsiya v sfere obrazovaniya: obzor rossiyskix nauchnix publikatsiy / // Molodoy ucheniy. — № 27 (317). — S. 120—127. — URL: <https://moluch.ru/archive/317/72477/>

Бобровников Б. 2018. Трансформация как поиск новых возможностей. Сйнергй Эксперимент Форум 2018. <https://12n.ru/video/4733-krok-boris-bobrovnikov-transformacija-kak-poisk-novyh-vozmozhnostei.html>

Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. 2010. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun / O'zME davlat ilmiy nashriyoti. — T. — 120 B.

Hillier M. 2018. Bridging the digital divide with off-line e-learning // Distance education. — T. 39. — №. 1. — S. 110-121.

Holmberg, B. (1994). Theory and Practice of Distance Education (2nd ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203973820>

Jalolov J. 2012. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent.

Journell, W. 2007. The inequities of the digital divide: Is e-learning a solution?. E-Learning and Digital Media, 4(2). 138-149.

Jumanazarov U. 2021. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari-ning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. d-ri. ... diss. avtoref. — Jizzax. — B. 89.

Kamolovich, A.A. 2022. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. 358—361. Retrieved from <https://www.openconference.us/index.php/conf/article/view/345>

Kowalski, Tadeusz. 2020. Geoffrey G. Parker, Marshall W. van Alstyne, Sangeet Paul Choudhary Platform revolution. How networked markets are transforming the economy and how to make them work for you. Studia Medioznawcze. 1. 139-144. 10.33077/uw.24511617.ms.2017.68.418.

Loboda O.V. i dr. 2023. Sifroviye texnologii v obrazovanii. Tendensii, problemi, perspektivi:

monografiya / pod obsh.red. nauchnogo soveta GNII "Nasrazvitiye". — SPb.: GNII "Nasrazvitiye". — 80 s.

Mamarajabov M.E. 2022. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. — Toshkent. — 55 B.

Nauchnaya shkola Robert I.V. «Informatizatsiya obrazovaniya». <https://robert-school.ru/>

Nevolina V.V., Garayeva Y.A., Bragirov G.B. 2022. Realizatsiya professionalnoy pozitsii sovremennogo pedagoga v usloviyax sifrovoy transformatsii sovremennogo obrazovaniya // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. — № 6-1.; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=32124>.

Polat Y.S., Buxarkina M.Y. 2010. Sovremennyye pedagogicheskiye i informatsionnyye tekhnologii v sisteme obrazovaniya: uchebnoye posobiye /. — 3-ye izd., ster. — Moskva: Akademiya. — 364 s.

Todd Rouz. 2018. Doloy sredneye! Noviy manifest individualnosti / Todd Rouz; per. s angl. I. Yushyenko. — 2-ye izd., ispr. M.: Mann, Ivanov i Ferber. <https://litresp.ru/chitat/ru/%D0%A0/rouz-todd/doloy-srednee>.

Traynev V.A., Traynev I.V. 2004. Informatsionnyye kommunikatsionnyye pedagogicheskiye tekhnologii: (obobshcheniya i rekomendatsii) / Un-t informatizatsii i upr. — Moskva (PIK VINITI). — 279 s.

Xalin V.G., Chernova G.V. 2018. Sifrovizatsiya i yeye vliyaniye na rossiyskuyu ekonomiku i obshchestvo: preimushchestva, vizovi, ugrozi i riski. //Upravlencheskoye konsultirovaniye. Moskva: RANXiGS. № 10 (118): s. 46—63.

Xutorskiy A.V. Personalniy sayt. <https://khutorskoy.ru/>

Yuldasheva Sh. 2023. Liveworksheets onlayn servisiida interfaol mashqlarni yaratish imkoniyatlari. O'zbekiston: til va madaniyat.1(4): 39 — 59.

Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O'zbek tili (darslik). — Toshkent, Innovatsiya -ziyo. — 2020. B. 329.

Yuldasheva Sh. 2021. O'zbek tili (kechki va sirtqi bo'lim uchun darslik). — Toshkent, Innovatsiya -ziyo. — 2021. B. 194.

<https://www.unicef.org/eca/media/4926/file>.

https://www.schoolandcollegelistsings.com/UZ/Tashkent/1343334265809106/Uzbekonline-школа-узбекского-языка#google_vignette

THE ISSUES OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EXERCISES AND ASSIGNMENTS FOR UZBEK LANGUAGE LESSONS

Shaxlo Yuldasheva¹

Absrtakt

Discussions about the decrease of student attendance and mastery of educational activities, the fact that today's students are "not the students of the past" have already gone beyond the walls of institutes and universities, and a solution is being sought as a global problem.

In such a situation, the digital transformation of higher education institutions is taking place in Uzbekistan, as it is observed all over the world. This situation raises a number of questions. How will information and digital technologies affect the status quo? To what extent are universities and institutes and the teaching process of certain subjects ready for digital education? How is the digital transformation of traditional educational tools carried out?

The article tries to answer these questions through digital transformation of exercises and assignments. The research used methods such as comparative analysis of local and foreign scientific literature on the possibilities of digital transformation of exercises and tasks, analysis of sites and platforms, and pedagogical observation of the process of introducing digital technologies.

Keywords: *Uzbek language, exercise, task, digital transformation, digitization, Liveworksheets, Quizziz, LearningApps.*

References

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/554445>

Abduqodirov A., Pardayev A. 2009. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan. — 145 B.

Brown MR, Higgins K, Hartley K. 2001. Teachers and Technology Equity TEACHING Exceptional Children, 33, pp. 32 — 39.

Budansev D.V. 2020. Sifrovizatsiya v sfere obrazovaniya: obzor rossiyskix nauchnix publikatsiy // Molodoy ucheniy. — № 27 (317). — S. 120 —127. — URL: <https://moluch.ru/archive/317/72477/>

Бобровников Б. 2018. Трансформация как поиск новых возможностей. Сйнергй Эхесутиве Форум 2018.. <https://12n.ru/video/4733-krok-boris-bobrovnikov-transformacija-kak-poisk-novyh-vozmozhnostei.html>

Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. 2010. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun / O'zME davlat ilmiy nashriyoti. — T. — 120 B.

Hillier M. 2018. Bridging the digital divide with off-line e-learning //Distance education. — T. 39. — №. 1. — S. 110-121.

Holmberg, B. (1994). Theory and Practice of Distance Education (2nd ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203973820>

Jalolov J. 2012. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent.

Journell, W. 2007. The inequities of the digital divide: Is e-learning a solution?. E-Learning and Digital Media, 4(2). 138-149.

Jumanazarov U. 2021. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari-ning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. d-ri. ... diss. avtoref. — Jizzax. — B. 89.

¹ **Yuldasheva Shaxlo Shukurlaevna** — doctor of philosophy (Ph.D) in pedagogics. Professor of Uzbekistan State University of World Languages.

E-pochta: shahlondpi@gmail.com.

ORCID ID: 0000-0001-9797-8635

For citation: Yuldasheva, Sh. 2024. The issues of digital transformation of exercises and assignments for uzbek language lessons. Uzbekistan: Language and Culture. 4 [1]: 20—28.

Kamolovich, A.A. 2022. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. 358—361. Retrieved from <https://www.openconference.us/index.php/conf/article/view/345>

Kowalski, Tadeusz. 2020. Geoffrey G. Parker, Marshall W. van Alstyne, Sangeet Paul Choudhary Platform revolution. How networked markets are transforming the economy and how to make them work for you. *Studia Medioznawcze*. 1. 139-144. 10.33077/uw.24511617.ms.2017.68.418.

Loboda O.V. i dr. 2023. Sifroviye texnologii v obrazovanii. Tendensii, problemi, perspektivi: monografiya / pod obsh.red. nauchnogo soveta GNII "Nasrazvitiye". — SPb.: GNII "Nasrazvitiye". — 80 s

Mamarajabov M.E. 2022. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. — Toshkent. — 55 B

Nauchnaya shkola Robert I.V. «Informatizatsiya obrazovaniya». <https://robert-school.ru/>

Nevolina V.V., Garayeva Y.A., Bragirov G.B. 2022. Realizatsiya professionalnoy pozitsii sovremennogo pedagoga v usloviyax sifrovoy transformatsii sovremennogo obrazovaniya // *Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya*. — № 6-1.; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=32124>

Polat Y.S., Buxarkina M.Y. 2010. Sovremenniy pedagogicheskiye i informatsionniye texnologii v sisteme obrazovaniya: uchebnoye posobiye /. — 3-ye izd., ster. — Moskva: Akademiya. — 364 s.

Todd Rouz. 2018. Dолоy sredneye! Noviy manifest individualnosti / Todd Rouz; per. s angl. I. Yushenko. — 2-ye izd., ispr. M.: Mann, Ivanov i Ferber. <https://litresp.ru/chitat/ru/%D0%A0/rouz-todd/doloy-srednee>.

Traynev V.A., Traynev I.V. 2004. Informatsionniye kommunikatsionniye pedagogicheskiye texnologii: (obobshcheniya i rekomendatsii) / Un-t informatizatsii i upr. — Moskva (PIK VINITI). — 279 s.

Xalin V.G., Chernova G.V. 2018. Sifrovizatsiya i yeye vliyaniye na rossiyskuyu ekonomiku i obshchestvo: preimushchestva, vizovi, ugrozi i riski. // *Upravlencheskoye konsultirovaniye*. Moskva: RANXiGS. № 10 (118): s. 46 — 63.

Xutorskiy A.V. Personalniy sayt. <https://khutorskoy.ru/>

Yuldasheva Sh. 2023. Liveworksheets onlayn servisiida interfaol mashqlarni yaratish imkoniyatlari. *O'zbekiston: til va madaniyat*. 1(4): 39 — 59.

Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O'zbek tili (darslik). — Toshkent, Innovatsiya -ziyo. — 2020. B. 329.

Yuldasheva Sh. 2021. O'zbek tili (kechki va sirtqi bo'lim uchun darslik). — Toshkent, Innovatsiya -ziyo. — 2021. B. 194.

<https://www.unicef.org/eca/media/4926/file>.

https://www.schoolandcollegelisting.com/UZ/Tashkent/1343334265809106/Uzbekonline-школа-узбекского-языка#google_vignette

**O'ZLASHMA SHAXS NOMLARI VA GEOGRAFIK NOMLAR IMLOSI:
TAHRIRDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR**Orifjon Madvaliyev¹**Annotatsiya**

O'zbek tilida o'zlashma so'zlarni, jumladan, Yevropa tillaridan kirgan olinmalarni ifodalash bo'yicha qat'iy me'yorlar ishlab chiqilmagani sababli imlodagi turli chalkashliklar, xatolar kuzatiladi. Bu masalani o'zbek tili tabiati va imlo qoidalariga ko'ra hal etish tilshunosligimiz oldida turgan va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

Ushbu maqolada Yevropa tillaridagi atoqli otlarni, xususan, shaxs nomlari va geografik nomlarni o'zbekcha ifodalashda kuzatiladigan xatolar haqida so'z boradi, ularni to'g'rilash bo'yicha yechimlar beriladi. Ko'rsatilgan yechimlar o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga va tabiatiga mos bo'lib, tahrir jarayonida va tahrir ko'nikmasini shakllantirishda qo'l keladi.

Kalit so'zlar: *tahrir, tahrirni o'rgatish, til ta'limi, o'zlashmalar, imlo, til mustaqilligi.*

Kirish

Zamonaviy dunyo tobora jipslashib, chegaralar yo'qolib boryapti. Bu tillarning o'zaro aloqasi va ta'sirlashuvini ham kuchaytirayapti. O'zbek tili ham bu jarayondan chetda emas. Biroq u ko'pincha chet tillar ta'siriga tushib qolyapti. Sobiq Ittifoq davrida har tomonlama rus tili ta'sirida bo'lgan tilimiz hali-hanuz bu ta'sirdan qutula olgani yo'q. Hatto uzoq Yevropa tillariga ham rus tili nuqtayi nazaridan qarash keng tarqalgan. Bu holat Yevropa tillaridan kirgan atoqli otlar, jumladan, shaxs otlari va geografik nomlarni ifodalashda ham ko'zga tashlanadi.

O'zbek tili mustaqil xalqning mustaqil tili sifatida rivojlanishi va boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarda ham ana shu egamenligi, milliy xususiyatlari, tabiatini namoyon etishi zarur. Bu tilning ertangi kuniga, rivoji yoki tanazzuliga ta'sir qiladigan muhim jihatdir. Matnlar tahririda, matn bilan ishlashni o'rgatishda, xususan, tahrir malakasini shakllantirishda bu jihatga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Asosiy qism

Taniqli rus tilshunosi va tarjima nazariyotchisi L. S. Barxudarov keltirishicha, tilshunoslikda til iyerarxiyasining quyidagi darajalari farqlanadi:

- fonemalar darajasi (yozma nutq uchun — grafemalar darajasi);
- morfemalar darajasi;
- so'zlar darajasi;
- jumlar darajasi;
- matn darajasi. [Бархударов 1975, 175—176]

Olim mana shu beshta darajadagi til birligini tarjima qilish mumkinligini misollar orqali tushuntirib beradi.

O'zlashma atoqli otlar imlosi haqida gap ketganda fonema va grafemalar darajasiga e'tibor qaratamiz. Masalan, inglizcha Heath familiyasi [hi:θ] shaklida o'qiladi. Buni rus tilida shu tovushlarga eng yaqin tovushlar yordamida **Хит** shaklida ifodalash mumkin. Ana shu ifoda **fonemalar darajasidagi tarjimadir**. Chunki har bir fonema yoki grafema uchun tarjima tilida mos fonema yoki grafema topildi. Bunday tarjima turi fanda *tarjima transkripsiyasi* yoki *amaliy*

¹ Madvaliyev Orifjon Tolibovich — tayanch doktorant (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: oriftolib@gmail.com

ORCID ID: 0009-0000-8016-4811

Iqtibos uchun: Madvaliyev, O. 2024. "O'zlashma shaxs nomlari va geografik nomlar imlosi: tahrirdagi muammo va yechimlar". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 (1): 29—34.

transkripsiya deb ataladi.

Misol qilib keltirilgan so'zni o'zbek tilida **Hit** shaklida ifodalash to'g'riroq. Chunki inglizchadagi *H* tovushi uchun o'zbekchada *H* bo'g'iz tovushi ko'proq mos tushadi. Ruschada ana shu tovush yo'q bo'lgani uchun unga eng yaqin *X* tovushi tanlangan. Lekin o'zbekchada hatto asliyatdan tarjima qilingan matnlarda ham fonema va grafemalarni rus tili tartibiga ko'ra o'g'irish urf bo'lgan. Bu esa til tabiatiga teskari borishdir.

Transkripsiyasida har doim ham talaffuzga e'tibor berilmaydi. Ba'zan so'z qanday o'qilishidan qat'i nazar, harflar (grafemalar) o'giriladi. Masalan, **Lincoln** so'zi *Linken* ['lɪŋkən] o'qilsa-da, **Linkoln** shaklida yozish qabul qilingan. Ayrim hollarda so'zning ham o'qilishi, ham yozilishiga asoslaniladi. **Newton** so'zi aslida *Nyuten* ['nju:.tən] o'qiladi. Lekin **Nyuton** shakli qabul qilingan. Bunda so'zning birinchi bo'g'ini uchun fonema, ikkinchi bo'g'ini uchun grafema o'girilgan.

Shu o'rinda ikki tushunchaga aniqlik kiritib o'tish o'rinlidir. Transliteratsiya — asliyat tilidagi so'zning grafik (harfiy) tarkibini o'girilayotgan til vositalari bilan aks ettirishdir. Yuqorida misoli keltirilgan *Lincoln* — *Linkoln* juftligi bunga misol bo'ladi. Transkripsiya esa o'zlashma so'zning asliyatdagi tovush tarkibini o'z tilimiz harflari orqali ifodalashdir. Bunga *Heath* — *Hit* juftligi misoldir.

Taniqli olim Qudrat Musayev transliteratsiya hodisasi va uning zarurati haqida shunday deydi: "Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi — asliyatda qo'llangan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir... Tarjima tilida goho asliyatdagi lisoniy vositalar ma'nolariga ma'lum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasa-da, ular o'zlarining shartli muqobillaridan yo xislat-xususiyat, yoki shakl-hajm-miqdor jihatlaridan farqlanadilarki, bu tafovut ularning tarjimada o'zaro almashinuviga yo'l qo'ymaydi. Masalan, asliyat mansub bo'lgan xalqqa xos pul hamda masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik kabi ko'pgina tushunchalarni anglatadigan so'zlarni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish asarda aks etgan o'ziga xos muhit va sharoitning kitobxon ko'z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta'minlaydi" [Musayev 2005, 93]. Albatta, transliteratsiya qilinuvchi so'zlar bular bilangina cheklanmaydi. Kishi ismlari, joy nomlari, ba'zi tashkilot va savdo belgilari nomlari ham transliteratsiya qilinadi.

O'zbek tilida xorijiy atoqli otlarni, jumladan, kishi ismlarini o'zlashtirish bo'yicha qat'iy qoidalar bugungacha ishlab chiqilmagan. Odatda rus tilidan ko'chirib qo'ya qolinadi. Natijada turli xatolarga yo'l qo'yiladi, til tabiatiga teskari boriladi. Ana shu muammo tufayli Vikipediyaning o'zbek segmenti o'zlashma atoqli otlarni aslicha yozishni boshladi. Onlayn ensiklopediya ba'zi o'rinlarda transkripsiya bo'yicha, ba'zi o'rinlarda transkripsiyasiz berish yo'lidan boryapti. Bunday ikki xillik ko'pchilikda tushunmovchilik va noroziliklarni uyg'otdi. Masalan, Isaak Nyuton nomi sarlavhada **Isaac Newton** ko'rinishida, maqola ichida **Isaak Nyuton** shaklida berilyapti [Wikipedia 2007]. Bu holat fonema va grafemalarni tarjima qilishni tartibga solish o'zbek tarjimashunosligi oldida turgan, zudlik bilan hal etilishi zarur bo'lgan masala ekanidan dalolat.

Fonema va grafemalar tarjimasida juda keng tarqalgan holatlardan biri joy nomlarini yozishda ruschadan ko'chirish, tarjima qilinayotgan til — o'zbek tilining imlo qoidalari [O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Sanasiz.] va tabiatini hisobga olmaslikdir. Bu xatolik kitoblar, qo'llanmalar, gazeta va jurnallar, elektron nashrlar, hatto darslik va ensiklopediyalarga o'rnashib ulgurgan. Ruschadan ko'chirayotgan tarjimonlar, jurnalistlar, kopirayterlar, yozuvchilar nega bunday yo'l tutayotganini ko'pincha anglamaydi, o'z-o'zidan ruscha imloga ergashadi.

Rus tilida qo'shma so'z yoki sifatlovchili birikma shaklidagi joy nomlari asliyatda qo'shib yoki ajratib yozilishidan qat'i nazar, chiziqli bilan yoziladi va bu rus tili uchun to'g'ri. Rus tilining imlo va punktuatsiya qoidalari 7-bandida *Sen* va *Sent* tarkibli xorijiy familiyalar, 8-bandida artikl yoki qo'shimchali geografik nomlar, 9-bandida *усть-*, *соль-* *верх-*, *ново-*, *старо-*, *верхне-*, *нижне-* (*etak*, *tuz*, *ust*, *yangi*, *eski*, *yuqori*, *quyi*) kabi tarkibli geografik nomlar, 11-bandida jonsiz

predmetlarning nomi bo'lgan va birikma ko'rinishidagi atoqli otlar chiziqcha bilan yozilishi belgilangan [Портал Грамота.ру. Без даты]. Misol sifatida *Сен-Жюст*, *Сент-Бев*, *Ибн-Фадлан*, *Кёр-оглы*, *Турсун-заде*, *Измаил-бей*, *Осман-паша*, *Ле-Крезо (город)*, *Ла-Каролина (город)*, *Де-Кастри (залив)*, *Усть-Абакан*, *Соль-Илецк*, *Верх-Ирмень*, *Ново-Вязники*, *Нижне-Гнилое*, *Аму-Дарья*, *Алма-Ата*, *Па-де-Кале*, *Булонь-сюр-Мер*, *Нью-Йорк*, *Пале-Рояль*, *Гранд-отель* kabi so'zlar keltirilgan. Yuqoridagi so'zlarning aksariyatini o'zbekchada chiziqcha bilan yozishga mutlaqo ehtiyoj va sabab yo'q. Chunki o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarida bu kabi so'zlar chiziqcha bilan yozilishi belgilanmagan [O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Sanasiz.]. Yuqorida sanalgan atoqli otlarni o'zbek tilida quyidagicha berish o'zbek tili imlo qoidalariga mosdir: *San Jyust*, *Sant Bov*, *Abn Fazlon*, *Go'ro'gli*, *Tursunzoda*, *Ismoilbey*, *Usmon posho*, *La Karolina*, *De Kastri*, *Ust-Abakan*, *Sol-Ilets*, *Verx-Irmen*, *Novo-Vyazniki*, *Nijne-Gniloye*, *Amudaryo*, *Olmaota*, *Duvr bo'g'ozi (Pa de Kale)*, *Bulon sur Mer*, *Nyu York*, *Pale Royal*, *Grand otel* kabi berish to'g'ri bo'ladi. Demak, yuqoridagi misollarda aslan ruscha bo'lgan nomlardagina chiziqcha qoldirildi xolos.

Tahrir jarayonida duch keladigan xatolarni bir necha misol yordamida ko'rib chiqamiz. Rus tilida *O'rtabuloq* toponimi *Урта-Булак* shaklida, *Mirzo Ulug'bek tumani* nomi *Мирзо-Улугбекский район* shaklida yoziladi. O'zbekchada esa qo'shma so'zlar va sifatlovchili birikmalar chiziqcha bilan yozilmaydi. O'zbek tili uchun juft va takror so'zlarni chiziqcha bilan yozish xosdir.

Rus tili ishlangan, qoidalari har tomonlama pishitilgan, ko'p o'rganilgan til. Ruschada hatto joy nomlari lug'ati ham bor [Аненберг, 1986]. Unga 40 000 ta toponim kiritilgan. O'zbekchada esa, afsuski, bunday lug'at yo'q.

Rus tilidan joy nomlarini ba'zida o'zgarishsiz ham olish mumkin. Lekin har doim emas. **H** tovushli toponimlar **g** bilan olinganini bir o'rinda aytib o'tsak, yetarli. Chunki bunday so'zlar juda ko'p. Gollandiya emas, Hollandiya; Gavayi emas, Havayi va hokazo. Rus tilida *h* tovushi bo'lmagani uchun ruslar bu tovushni ko'p o'rinlarda *g* deb talaffuz qiladi va bu rus tili uchun tabiiy, normal holat. O'zbek tilida esa *h* ni ayta olamiz, shu sababli *h* bilan yozish o'zbekchaga mos bo'ladi. Ba'zi joy nomlaridagi *h* asliyatda talaffuz qilinmaydi. Biroq shunday bo'lsa-da, ular rus tiliga **g** harfi bilan o'zlashtirilgan. O'zbekchada bunday so'zlarni asliyatga mos yozgan afzal. Masalan, *Honduras* davlati nomi aslan ispancha. Ispanchada *h* talaffuz qilinmaydi va bu so'z O'nduras o'qiladi. Lekin so'z boshqa shu kabi o'zlashmalar kabi rus tiliga *g* harfi bilan o'zlashtirilgan: Гондурас. Asli rus tili uchun ham noqis bo'lgan bu holatni o'zbekchaga ham ko'chirib o'tish ikki karra xato qilishdir. O'zbekchada ushbu mamlakat nomini Honduras shaklida yozish maqsadga muvofiq. Bu bo'yicha ijobiy o'zgarishlar ham yo'q emas. Masalan, bir necha millionlik auditoriyaga ega o'zbekcha yangiliklar portali kun.uz boshqa ko'plab joy nomlari qatori Hondurasni ham asliyatga mos shaklda yozib kelyapti [Kun.uz nashri. Sanasiz].

Nyu York shahri nomini ko'pincha *Nyu-York* shaklida yozamiz. Asliyatda New York, Yangi York shahri degan ma'noda. Sifatlovchili joy nomlari, masalan, Yangi Marg'ilon, Ko'hna Urganch, Katta Qozirabod o'zbek tilida ajratib yoziladi. Demak, nomi mazmunan o'xshash bo'lgan Nyu Yorkni ham chiziqchasiz yozish zarur. Shu o'rinda alohida ta'kidlash zarur, o'zbek kirill alifbosidagi **ь** harfini mutlaqo ortiqcha deb hisoblaymiz. Chunki u tilimizga begona, "o'zbek tilida hech qanday vazifa bajarmaydi; o'zidan oldingi undoshning yumshoq talaffuz qilinishini ta'minlaydi, lekin qoida faqat rus tili uchun to'g'ridir" [O'zME 2005, 140].

Transkripsiya va transliteratsiyada, imloda ruschaga ergashish — juda keng tarqalgan holat. Masalan, **Kot d'Ivuar** so'zi fransuzchada *République de Côte d'Ivoire* shaklida yoziladi. Lekin ruscha variantida chiziqcha orttirilgan: **Кот-д'Ивуар**. O'zbek tilida chiziqcha kerak emas. Chunki u juft yoki takror so'z hisoblanmaydi. Tarjimasi: Fil Suyagi Qirg'og'i. Bu so'zlar orasiga o'zbekchada chiziqcha qo'ymaymiz, demak, tarjimada ham chiziqcha qo'yilmasligi kerak.

Rio de Janeyro shahri nomi ham ruschada *Puo-de-Жанейро* shaklida yoziladi. O'zbekchada chiziqchalar mutlaqo ortiqcha. Bu shahar nomi portugalchada *Rio de Janeiro* ko'rinishiga ega va *yanvar daryosi* ma'nosini beradi. Toponimning so'zma-so'z tarjimasi *yanvar daryosi* birikmasi imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha talab qilmaydi. Bu uning transliteratsiyasida ham chiziqcha

ishlatmaslikka yetarli asosdir.

Geografik nomlarni o'zbekcha imloda ifodalashda xatolar juda ko'p. Jumladan, mashhur *Bermuda uchburchagi* nomi ham *Bermud uchburchagi* shaklida xato ishlatiladi va bu urfga kirgan. Aslida **Bermuda** shakli to'g'ri.

Bu hududda havo va suv kemalari sirli ravishda g'oyib bo'lib qolishi haqida afsonalar yuradi. Bu haqdagi ma'lumotlar OAVda dastlab o'tgan asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Vikipediya ko'ra, *Bermuda uchburchagi* atamasini ilk bor 1964-yili Vinsent Gaddis Argosy jurnalida e'lon qilgan "The Deadly Bermuda Triangle" (Halokatli Bermuda uchburchagi) nomli maqolasida qo'llagan [Wikipedia 2006].

Bu uchburchak hudud nomi Atlantika okeanining shimoli-g'arbidagi marjon orollari nomidan olingan. Bermuda orollari 150 tacha oroldan tashkil topgan. Ularning eng kattasi — Bermuda oroli. Buyuk Britaniya mulki hisoblanadi. Poytaxti va asosiy porti — Hamilton shahri. Orollarni 1505-yili ispan dengiz sayyohi Huan Bermudes kashf qilgan va hudud uning sharafiga atalgan.

Hudud tarixda Bermudas yoki Bermudaz deb atalgan. Keyinchalik **Bermuda** shakli qabul qilingan. Hozir ham ispan [Wikipedia 2003] va portugal [Wikipedia 2004] tillarida *Bermudas* shakli ishlatiladi.

O'zbek tiliga ruschadan tarjima qilishda bir nozik jihat ko'zdan qochirilgan. *A* unlisi bilan tugagan so'zlar ruschada ko'plik shaklida va roditelniy padejda qo'llanganda yoki sifatga aylanganda *a* tovushi tushib qoladi. Biroq bu so'zning o'zagida *a* tovushi yo'qligini anglatmaydi:

Бермуда (Bermuda) — Bermuda.

Бермудские острова (Bermuda [Wikipedia 2001 (a)]) — Bermuda orollari.

Бермудский треугольник (Bermuda Triangle [Wikipedia 2001 (b)]) — Bermuda uchburchagi.

Экономика Бермуд (Bermuda economy / Economy of Bermuda) — Bermuda iqtisodiyoti.

Buni quyidagi misol bilan solishtirib ko'rish mumkin:

Анкарский договор — Ankar kelishuvi, Anqar kelishuvi. Bu shaklda qo'llash xato, chunki joy nomi o'zbek tili va asliyat tiliga zid shaklda berilyapti.

Анкарский договор — Anqara kelishuvi. Bu shaklda qo'llash esa to'g'ri. Chunki so'z o'zbekchaga va asliyat tiliga mos tarzda berilyapti. Turkiya poytaxti Anqara shahrini o'zbekchada Ankar yoki Anqar shaklida ishlatmaymiz. Demak, Bermuda nomini ham Bermud shaklida ishlatish xatodir. E'tiborli tomoni, milliy ensiklopediyada ham orollar nomi **Bermuda** shaklida berilgan [O'zME 2000, 716]. Bermuda uchburchagi esa ensiklopediyaga alohida maqola sifatida kiritilmagan.

Fonema yoki grafemalar alohida holatda ma'no tashimaydi. Ularning o'zbekchada ifodalash juda kichik doirada, asosan atoqli otlar yoki atamalardagina kuzatiladi. Biroq bu jihat ularni o'zbekchada berish masalasiga e'tiborsiz yondashish mumkinligini anglatmaydi.

Rus tilida bir holat odat tusiga kirgan. George, Charles, William, James kabi inglizcha ismlar rus tiliga *Джордж, Чарльз* (yoki *Чарлз*), *Вильям* (yoki *Уильям*), *Джеймс* shaklida transkripsiya qilinadi. Biroq ular qirollarning nomini anglatganda ruslar lotinlashtirish yo'lidan boradi. Ya'ni bu ismlar lotinchaga ko'ra transkripsiya qilinadi: *Георг, Карл, Вильгельм* va *Яков* [Бархударов 1975, 177]. Bu rus tilida odat tusiga kirgan va shu til uchun to'g'ri. Lekin o'zbek tilida qirollar nomini bu shaklda berishga sabab va ehtiyoj yo'q. Afsuski, shu paytgacha o'zbekcha matnlarda ham shu holatga ko'r-ko'rona ergashib kelingan. Katta-katta kitoblar, darsliklar va ensiklopediyalarda qirollarning nomi rus tili qoidalariga ko'ra lotinlashtirilgan. Ammo so'nggi yillarda atoqli nomlarni o'zbek tili tabiatiga yoki kamida asliyatga mos shaklda yozishga harakat qilinmoqda. Bunga yetakchi ommaviy axborot vositalari, tarjimonlar, jurnalist va adiblar, bir so'z bilan aytganda, ziyolilar hissa qo'shyapti. Yuqorida tilga olingan qirollar nomining lotinlashtirilishi masalasida ushbu satrlar muallifi ham e'tibor qaratgan. Ana shunday harakat va tushuntirishlar natijasida bugun Buyuk Britaniyaning amaldagi qiroli nomi matbuotda lotincha *Karl* shaklida emas, ingliz tiliga (asliyatga) mos tarzda *Charlz* deb berilyapti.

Xulosa

Yuqoridagi holatlar Yevropa tillaridan o'zlashgan atoli otlar, jumladan, shaxs otlari va geografik nomlar imlosidagi keng tarqalgan xatolar va ularni bartaraf qilishning umumiy jihatlari aks ettiradi. Bu muammolarni to'laqonli hal etish uchun esa tizimli ishlar amalga oshirilishi zarur. Jumladan, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari ushbu masalaga uzil-kesil nuqta qo'yadigan qoidalar bilan to'ldirilishi, o'zbek tili tabiati va imlo qoidalariga javob beradigan, keng qamrovdagi geografik nomlar lug'ati ishlab chiqilishi, shaxs otlari, toponimlar, atamalar va boshqa o'zlashmalarni o'zbek tilida ifodalash tartibini belgilovchi transliteratsiya va transkripsiya qoidalari yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi, til ta'limida, xususan, ona tili ta'limida yangilanish va o'zgarishlar aks etishi zarur. Shundagina bir necha o'n yillar davomida kitoblarimiz, gazeta-jurnallarimiz, hatto ensiklopediya va lug'atlarimizga kirib borgan va bugun ham keng tarqalishda davom etayotgan xatolar tuzatiladi, asta-sekin yo'qoladi.

Adabiyotlar:

Бархударов, Л. 1975. *Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)*. Москва: Международные отношения.

Musayev, Q. 2005. *Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik*. Toshkent: FAN.

Wikipedia. 2007. "Isaac Newton". 12-mart, 2024. https://uz.wikipedia.org/wiki/Isaac_Newton.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Sanasiz. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida". Murojaat sanasi: 21.03.2024: <https://lex.uz/docs/-1625271>.

Портал Грамота.ru. Без даты. "Правила русской орфографии и пунктуации (1956)". Дата обращения: 21.03.2024. URL: <https://gramota.ru/biblioteka/spravochniki/pravila-russkoj-ortografii-i-punktuacii/imena-sushchestvitelnye>.

Аненберг, Л. и др. [сост.] 1986. *Словарь географических названий зарубежных стран*. Москва: Недра.

Kun.uz nashri. Sanasiz. "Kalit so'z: Honduras". Murojaat vaqti: 21.03.2024. URL: <https://kun.uz/news/list?q=%2Fuz%2Fnews%2Flist&f=tag&name=Хондурас>.

O'zME — O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jildli, 10-jild. 2005. "b", 140. — Toshkent: O'zME. — 656 b.

Wikipedia. 2006. "Vincent Gaddis". So'nggi tahriri: August 8, 2023. https://en.wikipedia.org/wiki/Vincent_Gaddis.

Wikipedia. 2003. "Bermudas". So'nggi tahriri: March 12, 2024. <https://es.wikipedia.org/wiki/Bermudas>.

Wikipedia. 2004. "Bermudas". So'nggi tahriri: January 24, 2024. <https://pt.wikipedia.org/wiki/Bermudas>.

Wikipedia. 2001 (a). "Bermuda". So'nggi tahriri: March 9, 2024. <https://en.wikipedia.org/wiki/Bermuda>.

Wikipedia. 2001 (b). "Bermuda Triangle". So'nggi tahriri: February 27, 2024. https://en.wikipedia.org/wiki/Bermuda_Triangle.

O'zME — O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jildli, 1-jild. 2000. "Бермуда ороллари", Toshkent: O'zME.

**SPELLING OF BORROWED PERSONAL NAMES AND GEOGRAPHICAL NAMES:
EDITING PROBLEMS AND SOLUTIONS**

Orifjon Madvaliyev¹

Abstract

In the Uzbek language, various confusions and spelling errors are observed due to the lack of development of strict standards for the expression of borrowed words, including from European languages. The solution to this issue, taking into account the peculiarities of the Uzbek language and spelling rules, is one of the tasks facing our linguistics, and it cannot be postponed. This article talks about errors observed in the Uzbek expression of proper names, in particular personal names and geographical names borrowed from European languages, and suggests ways to correct them. These solutions correspond to the basic rules of spelling and the nature of the Uzbek language, and are useful in the editing process and the formation of editing skills.

Key words: *editing, editing training, language education, borrowed words, spelling, language independence.*

References

- Бархударов, Л. 1975. *Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)*. Москва: Международные отношения.
- Musayev, Q. 2005. *Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik*. Toshkent: FAN.
- Wikipedia. 2007. "Isaac Newton". 12-mart, 2024. https://uz.wikipedia.org/wiki/Isaac_Newton.
- O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Sanasiz. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida". Murojaat sanasi: 21.03.2024: <https://lex.uz/docs/-1625271>.
- Портал Грамота.ру. Без даты. "Правила русской орфографии и пунктуации (1956)". Дата обращения: 21.03.2024. URL: <https://gramota.ru/biblioteka/spravochniki/pravila-russkoj-ortografii-i-punktucii/imena-sushchestvitelnye>.
- Аненберг, Л. и др. [сост.] 1986. *Словарь географических названий зарубежных стран*. Москва: Недра.
- Kun.uz nashri. Sanasiz. "Kalit so'z: Honduras". Murojaat vaqti: 21.03.2024. URL: <https://kun.uz/news/list?q=%2Fuz%2Fnews%2Flist&f=tag&name=Хондурас>.
- O'zME — O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jildli, 10-jild. 2005. "Б", 140. — Toshkent: O'zME. — 656 b.
- Wikipedia. 2006. "Vincent Gaddis". So'nggi tahriri: August 8, 2023. https://en.wikipedia.org/wiki/Vincent_Gaddis.
- Wikipedia. 2003. "Bermudas". So'nggi tahriri: March 12, 2024. <https://es.wikipedia.org/wiki/Bermudas>.
- Wikipedia. 2004. "Bermudas". So'nggi tahriri: January 24, 2024. <https://pt.wikipedia.org/wiki/Bermudas>.
- Wikipedia. 2001 (a). "Bermuda". So'nggi tahriri: March 9, 2024. <https://en.wikipedia.org/wiki/Bermuda>.
- Wikipedia. 2001 (b). "Bermuda Triangle". So'nggi tahriri: February 27, 2024. https://en.wikipedia.org/wiki/Bermuda_Triangle.

¹ Madvaliyev Orifjon Tolibovich — Basic Doctoral Student (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: oriftolib@gmail.com

ORCID ID: 0009-0000-8016-4811

For citation: Madvaliyev, O. 2024. "Spelling of borrowed personal names and geographical names: editing problems and solutions". Uzbekistan: Language and Culture. 4 [1]: 29—34.

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI**“ONA TILI” DARSLIKLARIDA MATN TUZILISHINI O'RGATISHGA DOIR
IMKONIYATLAR**Klaraxon Mavlonova¹**Annotatsiya**

Tadqiqot jarayonida matn tuzilishi yuzasidan ona tili o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida qanday talablar belgilangani, maktabda nimalar o'rganilayotgani, darsliklarda qanday material va imkoniyatlar mavjudligini aniqlash, so'rovnoma yordamida o'qituvchilarning matn tuzilishini o'rgatishga munosabati, kasbiy tayyorgarligini o'rganish, o'quvchilarning matn tuzish jarayonida yo'l qo'yayotgan ayrim jiddiy xatolariga e'tibor qaratish, shu asosda metodik xulosalar chiqarish maqsad qilib qo'yildi hamda ona tili o'quv fani Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarni, ularga doir metodik qo'llanmalarni tahlil qilish; ona tili o'qituvchilari orasida so'rovnoma o'tkazish va natijalarini tahlil qilish; o'quvchilar matn tuzishda yo'l qo'yadigan ayrim jiddiy xatolarni aniqlash kabi vazifalar amalga oshirildi. Ona tili darsliklari matn tuzilishini o'rgatishning bugungi holatini: o'quvchilar matn tuzilishiga doir olayotgan ma'lumotlar, hosil qilayotgan ko'nikma va malakalar ko'lamini yaqqol namoyon eta oladi.

Matn tuzilishini o'rgatish borasida 5—9-sinf “Ona tili” darsliklari beradigan imkoniyatlar nazariy ma'lumotlar; berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog'liq komponent ustida ishlash uchun mo'ljallangan maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og'zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari; olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo'ljallangan savol hamda topshiriqlar tarzida guruhlandi va tahlilga tortildi. Mazkur maqolada “Ona tili” darsliklarining yuqoridagi uch jihatdan tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *darslik, matn, matn tuzilishi, matn turlari, nazariy ma'lumot, mashq, savol va topshiriqlar, insho, reja, tahrir, sarlavha, matn qismlari, tinish belgilari, gap, gap bo'laklari, olmosh.*

Kirish

5—9-sinflar uchun nashr qilingan “Ona tili” darsliklari ularda berilayotgan nazariy ma'lumotlar, matnning tuzilish komponentlari bilan bog'liq maxsus mashqlar, savol va topshiriqlardan darslarda maqsadli va unumli foydalanish imkoniyatlari katta bo'lib, darslar samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. “...turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yozma topshiriqlar bajarish o'quvchining yozma nutq haqidagi bilimi, tasavvurlarini kengaytiradi. Bunday topshiriqlar matndan ma'lum kommunikativ vazifada qo'llangan so'z va so'z birikmalarini topish, ularning nima uchun qo'llanganiga izoh berish, matn ichidan matnning bir butunligini ta'minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi” [Azimova, 2020; 58].

N.Mahmudov til va tafakkur, til va madaniyat, til va gapiruvchi inson o'rtasidagi bunday uzviy, ikki tomonlama va muntazam aloqa, grammatika va tafakkurning o'zaro uyg'un munosabati bugun ham, ayniqsa, antroposentrik talqinlarda alohida e'tirof etilayotganini ta'kidlab, G.A.Zolotovanning

¹ Mavlonova Klaraxon Maxmutovna — pedagogika fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.

E-pochta: klaramavlonova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-4954-9996

Iqtibos uchun: Mavlonova, K. 2024. “Ona tili” darsliklarida matn tuzilishini o'rgatishdagi imkoniyatlar”. O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 35—43.

“Grammatika ilmi — filologiyaning bir qismi, bu ilm turli paradigmalar, qoidalar va taqiqlar to’plami emas, balki til qurilishiga, matnlar qurilishiga, insonning tafakkur qurilishiga kirish uchun kalitdir” degan fikrini keltirib o’tadi [Mahmudov 2021, 7]. Tilshunoslik va til o’qitish ilmidagi yechimlar ona tili darslarida matn tuzilishini o’rgatishning mazmun-mundarijasini belgilab chiqish uchun ma’lum darajada lingvistik asos vazifasini bajarishi aniq. Lekin, ta’kidlash joizki, matniy xatolarining ma’lum bir qismi ona tili darslarida morfologiya va sintaksis kursida o’tiladigan til birliklari munosabati bilan matnning tuzilish elementlari sifatida o’rganilishini ham hisobga olish zarur. Mazkur holatlarni aniqlash maqsadida 5—9-sinf “Ona tili” darsliklarini tahlil qilib chiqamiz.

Asosiy qism

I. 2010-yildan keyin nashr qilingan 5-sinf “Ona tili” darsligining [Mahmudov 2015, 224] 88-darsida yordamchi so’zlar haqidagi umumiy ma’lumotda quyidagilarni o’qiymiz: *“Biror so’roqqa javob bo’lmay, gap yoki gap bo’laklarini bir-biriga bog’lash yoki ularga qo’shimcha ma’no yuklash uchun xizmat qiladigan so’zlarga yordamchi so’zlar deyiladi”*. (103-bet)

89-darsdagi bog’lovchiga shunday ta’rif beriladi: *“Uyushiq bo’laklarni va qo’shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog’lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so’zlar bog’lovchi sanaladi”*. (104-bet)

53-va 54-darslarda “Kirish so’zlar”, undan keyingi darslarda ko’chirma gaplar, dialog gaplar yuzasidan ma’lumotlar beriladi. Ushbu ma’lumotlardan ham matn tuzilishi elementlarini tushuntirishda foydalanish mumkin.

6-sinf uchun ona tilidan 2012-yilda nashr qilingan darslikda [Mahmudov 2012, 208] matn va mavzuning ta’rifi berilgan, matnning necha qismdan iborat ekani (kirish qismi, asosiy qism, xulosa) ta’kidlangan (8—10-darslar).

Darslikning “Matndagi gaplarning o’zaro bog’liqligi. Matn turlari”ga bag’ishlangan darsida matndagi gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-birlari bilan o’zaro bog’langan bo’lishi, matnlar xabar, darak, tasvir, rivoya, sayohat kabi mazmunlarda tuzilishi ma’lum qilingan, xatlarining maqsadiga ko’ra turlari izohlangan.

Bu kabi nazariy ma’lumotlarni matndagi gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-birlari bilan o’zaro bog’langan bo’lishini tushuntirish imkonini beradigan misollar keltirish lozim bo’ladi. Masalan: *“O’rta Osiyoda daryolar ko’p va sersuv. Amudaryo va Sirdaryo shular jumlasidan. Ular O’zbekistonning jon tomirlaridir”*.

Matn turlarining tasnifi munozarali sanaladi: xabar matni bilan darak matnini farqlash juda qiyin. Darslikda matnning har bir turiga misollar ham keltirilmagan. Sayohat matni ham aniq chegaralarga ega emas. O’zbek tilshunosligida bunday tasniflarni uchratmadik.

7-sinf “Ona tili” darsligidagi [Mahmudov 2017, 159] ayrim nazariy ma’lumotlarda o’rganilayotgan vositaning gaplarni bir-birlari bilan bog’lashi ham aytib o’tilgan. Masalan:

“Oldingi gap, gapdagi biron-bir so’z, so’z birikmasi o’rnida qo’llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so’zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko’rsatish olmoshlari hisoblanadi” deyiladi, lekin oldingi gapni almashtirib kelgan olmoshga misol keltirilmaydi.

Yordamchi so’zlar mustaqil so’zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog’lash, ularning ma’nolariga qo’shimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi. 72-bet.

O’zaro teng munosabatdagi gap bo’laklari va gaplarni bog’lab keluvchi bog’lovchilar teng bog’lovchilar hisoblanadi.

Teng bog’lovchilar gap bo’laklari va gaplarni bog’lash bilan birga ular o’rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro’yobga chiqaradi. 90-bet.

O’zaro bog’lanayotgan bo’lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko’rsatuvchi bog’lovchilar ayiruv bog’lovchilari hisoblanadi. 95-bet.

O’zaro zidlik munosabatida bo’lgan uyushiq bo’laklar yoki gaplarni bir-biriga bog’lab keluvchi ammo, lekin, biroq bog’lovchilari zidlov bog’lovchilari sanaladi. 97-bet.

Uyushiq bo’lak va gaplarni inkor ma’nosini yuklagan holda bog’lovchi na... na yordamchisi inkor bog’lovchisi sanaladi. 99-bet.

Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi na... na yordamchisi inkor bog'lovchisi sanaladi. 102-bet.

Ushbu ta'riflarga berilgan misollarni gapni gapga bog'lashga doir juft-juft qilib berilgan gaplar, shuningdek, kichik-kichik matnlar bilan boyitish zarur bo'ladi.

8-sinf "Ona tili" darsligidagi [Qodirov 2019, 144] "Ma'lumotnoma va ijodiy-tavsifiy matn" mavzusidagi nazariy ma'lumotda matnning mazmuniy turlari bayon qilingan. Savollar va topshiriqlar ham mazmuniy o'xshashlik va farqlarni aniqlash sari yo'naltirilgan. "Insho — ijod mahsuli" mavzusidagi nazariy ma'lumotda tuzish, yaratish, barpo qilish kabi ijod jarayoni aks ettirilgan, reja tuzish kerakligi asoslangan. So'ngra insholar ta'limiy va sinov insholari bo'lishi aytilgan. "Inshoning mavzu va mazmuniga ko'ra turlari" mavzusidagi nazariy ma'lumotda: 1) adabiy mavzudagi insho; 2) erkin mavzudagi insho; 3) ilmiy insholar haqida gapirilgan. Insho rejasi 3 moddadan iborat qilib ko'rsatilgan: 1. Kirish. 2. Asosiy qism. 3. Xulosa. Sodda va murakkab rejadani namuna keltirilgan. Mashq sifatida sodda rejani murakkabga aylantirish, berilgan rejadagi ortiqchasini aniqlash va izohlash talab etilgan.

"Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" nomli metodik qo'llanmada ta'kidlanishicha, "O'zida insho mavzusining barcha jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja namunalari insho mazmunining ixchamlashtirilgan shakllaridir. Yaxshi tuzilgan rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvur beradi. Bunday tipdagi insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va reja bandlari oxirida nuqta qo'yiladi" [Madayev 2020, 25].

Darslikda "Inshoga epigraf tanlash" mavzusida nazariy ma'lumot berilgan. Ushbu mavzuning matnning tashkiliy-texnik tuzilishiga bevosita aloqasi bor.

9-sinf "Ona tili" darsligida [Mahmudov 2009, 128]. quyidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan:

Darslikning 7-bo'limi matnga bag'ishlangan: 46-darsda "Matn va uning maqsadi. Hikoya matni", 47-darsda "Tasviriy matn", 48-darsda "Muhokama matni", 49-darsda "Matn va gap" mavzulari yuzasidan materiallar berilgan.

Matnga izoh keltirilgan. Matn turlari ko'rsatilgan:

- 1) hikoya matni;
- 2) tasviriy matn;
- 3) muhokama matni.

8-bo'lim (50—55-darslar) tinish belgilariga bag'ishlangan.

Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchtagacha undov belgisi qo'yilishi mumkin.

5-sinf "Ona tili" darsligining 2020-yili to'la qayta ishlangan nashrida [Mahmudov 2020, 192] quyidagi darslar matn tuzilishi bilan bevosita bog'lanishi mumkin. 101-dars. Iboralar, 102-dars. Iboralar (davomi), 103-dars. Matn va lug'at ustida ishlash, 105-dars. Maqollar. 106-dars. Maqollar (davomi), 107-dars. Hikmatli so'zlar. 108-dars. Hikmatli so'zlar (davomi).

6-sinf "Ona tili" darsligidagi [Azimova, 2022; 224] matn tuzilishini o'rganishga doir materiallar quyidagilardan iborat:

Matn mazmun va grammatik jihatdan bog'langan gaplardan tuziladi. U og'zaki yoki yozma nutqning parchasi bo'lishi mumkin. 16-b.

So'zning so'zga va gapning gapga bog'lanishida nafaqat mazmun, balki grammatik jihat ham muhim. Birdan ortiq so'z yoki gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi.

Va; ammo; lekin; chunki; yoki; yo..., yo...; dam..., dam...; goh..., goh... kabilar bog'lovchilardir.

Bog'lovchilardan so'zlarni yoki sodda gaplarni o'zaro bog'lashda foydalaniladi. 61-b.

Nutq turli uslublarda yaratiladi. Ulardan biri badiiy uslubdir. "Oqsaroyniing favvorolari" matni ham badiiy uslubning yorqin namunasi.

Badiiy uslubda voqealar tasviriy vositalar, ta'sirchan so'zlarni qo'llash orqali yoritib beriladi. Shuning uchun ham bu uslubning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Badiiy nutqdagi ta'sirchanlikni oshiruvchi omillardan biri taqlid so'zlar hisoblanadi. Qiyoslab ko'ring:

Gulxanga tashlangan o’tinlar yonmoqda.

Gulxanga tashlangan o’tinlar chars-churs yonmoqda. 188-b.

7-sinf “Ona tili” darsligida [Azimova 2022, 224] matn tuzilishini o’rganishga doir nazariy ma’lumotlar quyidagilardan iborat:

Olmoshlar so’z, so’z birikmasi, gaplar va matnlarga ishora qiladi, ularning o’rnida almashib kela oladi. *Masalan, Salimning sochlari sariq, ko’zlari ko’k. U hecham o’zbekka o’xshamaydi gapida u olmoshi Salim o’rnida qo’llanmoqda.* Asrora sahnaga chiqmadi. Bu Lola opaning jahlini chiqardi gaplarida esa *bu* olmoshi butun bir gapga ishora qilmoqda. Mazkur o’rinlarda olmoshlarning qo’llanishi nutqiy qisqalikka, ravonlikka va o’rinsiz takrorlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Muammoning yechimini taklif qiladigan yaxshi matn quyidagilarni o’z ichiga oladi:

a) kirish qismi — unda muammoning bayoni beriladi. Ya’ni bu qanday muammo ekani tavsiflanadi (uning kelib chiqish sabablarini ham yozish mumkin);

b) asosiy qism — bunda takliflar hamda ularning natija yoki oqibatlarini taqdim etiladi. Har bir taklif yangi xatboshidan boshlanadi;

d) fikrlarni umumlashtiruvchi yakuniy qismda muammo va uning yechimi haqidagi shaxsiy fikrlar umumlashmasi yoziladi. 34-b.

Ma’lum bo’ladiki, 7-sinf darsligida matn tuzilishi bilan bog’liq komponent ustidagi maxsus mashq va topshiriqlar; sinfdagi og’zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari mavjud bo’lib, ular matn tuzilishiga doir ayrim tushunchalar ustida ishlash (tushuncha berish, o’tilgan qoidalarni eslash, ko’nikma va malakalarni rivojlantirish, o’quvchilar tafakkurini o’stirish va b.) imkoniyatlari katta.

II. Berilgan mavzuda matn tuzish talab etilgan mashqlar barcha darsliklarda mavjud. Ularni grammatik topshiriqli mashqlar sirasida matn tuzilishini o’rganishga qaratish mumkin.

Yangi avlod 6-sinf “Ona tili” darsligidagi mashq va topshiriq shartlari orqali anglatilayotgan matn tuzilmalari:

O’zaro bog’langan gaplarni aniqlash va izohlashga doir:

Ikki ustundagi gaplarni o’qib chiqing hamda ularni o’zaro solishtiring. Savollarga javob bering. Qaysi ustundagi gaplar bir-biri bilan o’zaro mazmun va grammatik jihatdan bog’langan? Javobingizni izohlang.

Gaplarni o’zaro bog’layotgan mavzuni aniqlash va izohlash:

Birinchi ustundagi gaplarni qaysi mavzu o’zaro bog’lab turibdi? 2-ustunda-chi?

Xatboshilar va mavzu munosabati:

Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating. 58-b.

Gaplarning matn ekanini aniqlash va izohlash:

Qaysi ustundagi gaplarni matn deyishimiz mumkin? Qaysi xususiyatlariga ko’ra? 15-bet.

Matndagi gaplar anglatayotgan fikrlarning to’g’ri yoki noto’g’riligini aniqlash va izohlash:

Matn asosida berilgan to’g’ri fikrlarni aniqlab yozing. Noto’g’ri gaplarni esa to’g’rilab ayting. 22-b.

Xatboshilarni aniqlash, topish:

Berilgan matnni o’qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping. 24-b. Matnga mos sarlavhani tanlab, yozing. Tanlovingizni qisqacha izohlang. 42-b. Matn xatboshilari uchun berilgan kichik sarlavhalarni to’g’ri ketma-ketlikda ko’chiring. 109-b. Matndagi gaplar chegarasini, 4 ta xatboshini aniqlang, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to’g’ri qo’yib, ko’chiring. 216-b.

Olmoshli bog’lanishga doir:

Matndan ko’rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko’chiring. Ushbu olmoshlar o’zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing. 38-b. Matnda ajratib ko’rsatilgan olmoshlarni ular ishora qilayotgan birliklar bilan birga ko’chiring. 52-b.

Bog’lovchili bog’lanish:

Yozgan gaplaringizni o’qing. Lekin, chunki, va so’zlari orqali fikringizni izohlang. Berilgan gaplarni o’qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda va, ammo, lekin, chunki, biroq

kabi bog'lovchilar yordamida bog'lovchilarsiz ham gaplarni davom ettirish mumkinmi? Ular nima maqsadda qo'llangan deb o'ylaysiz? Gaplarni mazmunan bog'lab, "Qon aylanish tizimi" haqida matn yozing. 62-b. Matnni ko'chiring. Xatboshilarni hamda ular tarkibidagi gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlab, ularning tagiga chizing. Matndagi 3- va 4-xatboshilar hamda 4- va 5-xatboshilarni qanday vositalar o'zaro bog'lab turganini tahlil qiling. 131-b.

Matn tuzish:

Tavsiyalaringizni matn ko'rinishida qoralama nusxada yozing. "Mening kasbim — mening kelajagim" mavzusida ijodiy matn yarating. Unda sifat darajalaridan foydalaning. 96-b. Quyida badiiy uslubdagi kichik matn berilgan. Siz uni badiiy bo'lmagan uslubga aylantirib, qayta yozing. 190-b.

Yozilgan matnni tahrir qilish:

Yozgan matningizni tahrir qiling hamda oqqa ko'chiring. Tahrir jarayonida ko'rsatish olmoshlari hamda sifat darajalaridan foydalanganingizga e'tibor bering. O'qituvchingiz to'g'rilagan o'rinlarga diqqat qiling. O'qituvchingiz tavsiyalari asosida matnni qayta ko'chiring. Xatolaringizni anglab, keyingi safar bu xatoni takrorlamaslikka harakat qiling. 176-b.

Radionutq tayyorlash: "Men tabiat bilan birgaman" mavzusida radionutq tayyorlang. 40-b.

Tinish belgilariga doir: Matndagi ko'pnuqtalarning vazifasi nima? 49-bet.

Reja tuzish: Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsun. 53-b.

Matnning xulosa qismidan o'zingiz eng muhim deb bilgan gapni topib, ko'chiring. Tanloviningizni asoslab bering. 101-b.

Biror mavzu yuzasidan kirish, muammo va tahlil, xulosa qismlaridan iborat maqola yozing. 102-b. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g'oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang. 130-b. Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning uchitasi noto'g'ri. Ularni toping va javobingizni izohlang. 138-b.

Yangi avlod 7-sinf "Ona tili" darsligidagi mashq va topshiriqlar:

Sarlavha va matn mazmuni: Matnga mos keluvchi sarlavhalarni aniqlab, yozing. Yana qanday sarlavhalarni tanlagan bo'lardingiz? Chap ustunda sarlavhalar, o'ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko'chiring. 25-b.

Matn tuzish: Ushbu jumlaning davom ettirib, kichik matn yozing. Unda quyidagi so'zlardan foydalanishingiz mumkin: ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, va, hamda, yoki, bilan, uchun, kabi. 9-b. Quyidagi vositalardan foydalangan holda ikkinchi matnni bog'lanishli matnga aylantirib ko'chiring. Matndagi takroriy so'z va jumalarni, uslubiy g'alizlikni tuzatishga harakat qiling.

Matnni tekshirish: Yozgan matningizni sinfdoshingizniki bilan almashing. Uning matni bilan tanishib hamda qisqacha izoh yozing. Havolada berilgan maqolalar bilan tanishib. Yozgan matningiz bilan solishtiring. 12-b.

Gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlash va izohlash: Birinchi matnda gaplarni o'zaro bog'layotgan birliklarni aniqlang. Menimcha, ularga, qolaversa. 20-b.

Quyidagi olmoshlar ma'nosida, qo'llanishida o'zaro qanday farqlarga ega ekani haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni tuzgan gaplaringiz orqali asoslang. 26-b. Berilgan parchalardagi olmoshlarni aniqlang. Ular nimani almashtirib kelayotganini yozing. 27-b.

Xulosa qism: Matndagi gaplar yakunini aniqlab, mos tinish belgilarini qo'ying. Bo'sh o'rinlarga zarur til birliklarini qo'yib, matnni ko'chiring. 7-bet. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g'oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang. 18-b. Matn asosida berilgan xulosalarning qay biri noto'g'ri? 50-b.

III. Olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo'ljallangan savol hamda topshiriqlar matn tuzilishini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, 6-sinf "Ona tili" darsligidagi qismlarning nomlanishi bo'yicha: Matnning uchinchi qismi nega "Muhim ma'lumot" deb nomlangan? Bu qismdagi aynan nima muhim ma'lumot bo'lishi mumkin? Fikrlaringizni asoslang. "Ma'lumotni misollar bilan tushuntirish" qismida misol sifatida qaysi ma'lumotlarga urg'u berilgan? Bu qismni yana qanday nomlash mumkin? "Muammo va tahlil"

qismidagi qaysi gap muammoni to’laqonli ifodalaydi? Qaysi gapda tahlilni ko’rish mumkin? Xulosa va yechim” qismidagi xulosa qaysi, yechim-chi? “Fikrlashga undovchi savol” qismi matnda nima uchun berilgan deb o’ylaysiz? I.Azimova “O’zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasi-ning psixolingvistik tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasida sarlavhalar muloqotning o’ziga xos birligi deb hisoblab, rus olimi A.A.Veyze matnning uslubidan qat’i nazar ularga xos umumiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda ularni quyidagi besh guruhga ajratganligiga e’tiborni qaratadi:

1. Hukm (gap) shaklidagi sarlavhalar.
2. Nominativ birikma tarzidagi sarlavhalar. Ular matnning tematik tomonini o’zida mujassamlashtiradi.

3. Matnning tematik tarkibini umumlashtiruvchi.

4. Matnning umumiy mazmunini mavhumlashtirib ifodalagan.

5. Mazmun-mundarijani bir bo’lagini nomlovchi [Azimova 2008, 62—63].

Bu kabi jihatlarni “Ona tili” darsliklaridagi matnlarning nomlanishida ham ko’rish mumkin.

5—9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir bilim, ko’nikma va malakalarga asoslangan “Men muharrirman”, “Tasvir va matn”, “Chizmani tavsifla”, “Begona qismni top”, “Gaplarni to’g’ri bog’la”, “Matnni boyitamiz”, “Sarlavha tanlaymiz”, “Olmosh bilan almashtir” kabi innovatsion usullar o’quvchilarda matn tuzish va xatolar ustida ishlash ko’nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

“Ona tili” darsliklaridagi nazariy ma’lumotlar tahlilidan ma’lum bo’ladiki, ularda matn tuzilishiga doir nazariy ma’lumotlar juda oz bo’lsa-da, bor. 5—9-sinflar “Ona tili” darsliklarida keltirilgan sinfda yoki uyda bajarish uchun tavsiya qilingan matn tuzish, matn yaratish, insho yozish talab etiladigan ayrim mashq va topshiriqlar ham mavjud. Lekin darsliklarda uzluksizlik va uzviylik asosida beriladigan nazariy ma’lumotlar (qoidalar va tavsiflar) tizimi o’z ifodasini topmagan. Ayrim nazariy ma’lumotlarda til birligining gaplarni o’zaro bog’lash uchun xizmat qilishi ham aytilgan bo’lsa-da, bularga misollar keltirilmagan, mashq va topshiriqlar asosida mustahkamlash ko’zda tutilmagan. Darsliklarda ayrim matniy til komponentlari yuzasidan mashq va topshiriqlar shartlarida tavsiya qilingan. Ular matn tuzilishini ham o’rgatadi, ham mustahkamlaydi.

Adabiyotlar

Azimova, I. 2020. *Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi*. — Toshkent: HILOL- NASHR. — 96 b.

Azimova, I. 2008. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолінгвістик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. — Тошкент, 2008. — 24 б.

Mahmudov, N. 2021. Til ilmi va ta’limining muntazamligi. Til va adabiyot ta’limi. 10-son. — Toshkent, 7—10 b.

Mahmudov, N. va b. 2015. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. va boshq. 4-nashri. — T.: Ma’naviyat, 2015. — 224 b.

Mahmudov, N. va b. 2012. Ona tili: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun/ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. — T.: Tasvir, 2012. — 208 b.

Mahmudov, N. va b. 2017. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. To’ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. — Toshkent: Ma’naviyat, 2017. — 159 b.

Qodirov, M. va b. 2019. Ona tili: O’rta maktablarining 8-sinfi uchun darslik / Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. To’rtinchi nashr. — T.: Cho’lpon nomidagi NMIU, 2019. — 144 b.

Madayev, O. va b. 2020. *Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant* / Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. — Toshkent, 2020. — 103 b.

Mahmudov, N. va b. 2019. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. — T.: Tasvir, 2009. — 128 b.; Ona tili: Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. — Toshkent: Tasvir, 2019. — 128 b.

Mahmudov, N. va b. 2020. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. To'la yangilangan 5-nashr. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. — 192 b.

Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

**POSSIBILITIES RELATED TO TEACHING TEXT STRUCTURE IN “MOTHER TONGUE”
TEXTBOOKS**

Klaraxon Mavlonova¹

Abstract

In the course of research, what requirements are set in the state educational standard and curriculum of the subject of the mother tongue in relation to the structure of the text, what is being studied at school, what materials and opportunities are available in the textbooks, using a questionnaire to study the attitude of teachers to teaching the structure of the text, to study their professional preparation, to pay attention to some serious mistakes made by students in the process of composing a text, to draw methodical conclusions based on them, and on this basis to analyze the State educational standards, curricula and textbooks of the mother tongue subject, as well as the methodical manuals related to them; conducting a survey among native language teachers and analyzing the results; tasks such as identifying some serious mistakes made by students in composing a text were carried out. Mother tongue textbooks can clearly demonstrate the current state of teaching text structure: students can clearly demonstrate the range of information they are getting about the structure of the text, and the skills and abilities they are developing.

Theoretical information on the opportunities provided by “Mother tongue” textbooks for grades 5—9 in terms of teaching text structure; special exercises and assignments designed to work on the component related to the text structure of the text composition on the given topic; oral or written exercises and some types of work in the classroom; it was grouped and analyzed in the form of questions and tasks designed to strengthen and repeat the acquired knowledge. This article talks about the analysis of the “Mother Tongue” textbooks from the above three aspects.

Key words: *textbook, text, text structure, text types, theoretical information, exercise, questions and assignments, essay, plan, editing, title, text parts, punctuation marks, sentences, sentence fragments, pronouns, knowledge, skill, qualification.*

References

- Azimova, I. 2020. *Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi*. — Toshkent: HILOL- NASHR. — 96 b.
- Azimova, I. 2008. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. — Тошкент, 2008. — 24 б.
- Mahmudov, N. 2021. Til ilmi va ta’limining muntazamligi. Til va adabiyot ta’limi. 10-son. — Toshkent, 7—10 b.
- Mahmudov, N. va b. 2015. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. va boshq. 4-nashri. — T.: Ma’naviyat, 2015. — 224 b.
- Mahmudov, N. va b. 2012. Ona tili: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun/ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. — T.: Tasvir, 2012. — 208 b.
- Mahmudov, N. va b. 2017. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. To’ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. — Toshkent: Ma’naviyat, 2017. — 159 b.

¹ Mavlonova Klaraxon Maxmutovna — Doctor of Pedagogy (DSc), Associate professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: klaramavlonova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-4954-9996

For citation: Mavlonova, K. 2024. Possibilities related to teaching text structure in “Mother tongue” textbooks. Uzbekistan: Language and Culture. 4 [1]: 35—43.

Qodirov, M. va b. 2019. Ona tili: O'rta maktablarining 8-sinfi uchun darslik / Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. To'rtinchi nashr. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. — 144 b.

Madayev, O. va b. 2020. *Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant* / Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. — Toshkent, 2020. — 103 b.

Mahmudov, N. va b. 2009, 2019. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. — T.: Tasvir, 2009. — 128 b.; Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. — Toshkent: Tasvir, 2019. — 128 b.

Mahmudov, N. va b. 2020. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. To'la yangilangan 5-nashr. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. — 192 b.

Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

TIL TA'LIMIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Sanobar Kuldasheva¹**Annotatsiya**

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili ta'limidagi yangicha yondashuvlar, ona tilini AKT orqali o'qitish, til ta'limida multimedia vositalaridan unumli foydalana olish, multimediali usullardan foydalanishning me'yor va mezonlari, intensivlik darajasi va mazmuni haqida fikr yuritilgan. Olimlarning til ta'limida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari haqida bildirilgan fikrlari izohlangan. Dars jarayonlarida multimediyadan foydalanishning natijadorligi, darslikdagi mashq va topshiriqlar asosida multimedia ishlanmalarini yaratish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *multimedia vositalari, multimedia dasturlari, mediamadaniyat, audiolingval yondashuv, audiovizual vositalar, videolavha, audiomatn, animatsiya.*

Kirish

Keyingi yillarda "informatsion portlash" tushunchasi tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri — kompyuterning yaratilganligi. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch-qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasidir. "Yaqin yillardan beri nutqiy faoliyatda "virtual olam" degan tushuncha ham paydo bo'ldi. Unga kibero'qish, kibernetika, kibertalaffuz, kibermuloqot tushunchalari ham singib bormoqda. Hatto kiberpedagogika degan tushunchalar ham fanga kirib keldi" [Kuldasheva 2022, 37]. Bular biz odatlangan ko'rish, eshitish kabi jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar deb qaralmog'i kerak. Bu yerda so'zlarni aniq va to'g'ri o'qish, chiroyli va xatosiz yozishdan tashqari ularning rang-barang shakl va ko'rinishlarga kira olishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tovushlar, so'zlar, so'z birikmalari va gaplarni ifodali o'qish vositasida ularning ma'no qatlamlariga ta'sir ko'rsatish mumkinligi juda ochiq tarzda namoyon bo'ladi. Natijada, o'quvchining tegishli ko'nikma va malakalari tezroq, qulayroq hamda yoqimliroq tarzda amalga oshadi.

Asosiy qism

Rivojlanayotgan dunyo jamiyat oldida ham zamonaviy talablarni qo'yadi. Bunday jamiyatda o'rta ta'lim maktablarining oldida zamonaviy bilimli, axborotni saralay oladigan, mediamadaniyati shakllangan, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, rivojlanayotgan mamlakat uchun mas'uliyat tuyg'usiga ega avlodni tarbiyalash vazifasi turadi. Yangi avlodni tarbiyalash uchun zamonaviy o'qituvchi AKTga oid bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bugungi kunda doska va bo'r o'rnini proyektor va interfaol doskalar egalladi. Darsda o'zlashtiriladigan material va ma'lumotlarni endi nafaqat darslik, balki darsliklarning elektron ilovalari, hatto ijtimoiy tarmoqlardan ham topish mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonini interfaol texnologiyalar asosida tashkil etishda yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar zarurati tug'ildi. Bugungi maktab o'quvchilari zamonaviy axborot texnologiyalari (shaxsiy kompyuter, internet xizmatlari)dan juda faol foydalanadilar. Mubolag'asiz aytish mumkinki, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarning kompyuter o'yinlari, audio-video mahsu-

¹ Kuldasheva Sanobar Xayotovna — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.

E-pochta: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

Iqtibos uchun: Kuldasheva, S. 2024. "Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 44—52.

lotlari va boshqa elementlarida tarbiyalanyaptilar. Shu bois zamonaviy darsning tarkibiga multimedia texnologiyalarini olib kirish, ona tili darslarini AKT bilan integratsiyalash ustuvor yo'nalishlardan biridir. Multimediali ta'lim texnologiyasidan til sathining barcha sohalarini o'qitishda foydalanish mumkin. Buni ayrim misollar yordamida ko'rsatishga harakat qilamiz.

1. Fonetika bo'limini o'rganish jarayonida, jumladan, nutq tovushlari, nutq a'zolari, nutq tovushlarining aytilishi va yozilishi, fonetik hodisalarni o'rgatish jarayonida, tovushning talaffuzi bilan bir paytning o'zida lablarning harakatlarini ham ko'rib turish, buning ustiga uning jonli hayot bilan yaqinlashishi bir qarashda ancha murakkab bo'lgan nazariy muammolarni ham yengil va qiziqarli amaliy mashg'ulotga aylantiradi. Masalan, unli tovushlar talaffuz qilinganda lablarning vertikal yo gorizontal ochilishi, cho'chchayishi yoki kengayishi video hamda animatsiya harakatlarida yaqqol ko'rinadi. Unli va undosh tovushlarning farqi tushuntirilganda og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligi ovoz effektlari bilan aniq va tiniq tushuntiriladi. Shuningdek, dars jarayonida to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilib yozilgan audiolarni qo'llash, audiomatnlar yordamida so'zlarning to'g'ri talaffuzi ustida mashqlar tashkil etish o'quvchini sheva ta'siridan uzoqlashishga ham yordam beradi.


2. Leksikologiya bo'limidagi mavzularni tushuntirishda ham multimedia vositalari orqali ko'p qulayliklarga erishamiz. Masalan, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini tushuntirishda shu tushunchalarni anglatadigan narsa va hodisalarning harakatlaridan foydalanishimiz mumkin. O'quvchi ko'zi bilan ko'rgan narsa va hodisani nomlab, hatto ularning orasidagi farqni idrok etadi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini farqlash uchun rang, shakl va tovush parametrlari birlashadi. Masalan, "Zid ma'noli so'zlar" mavzusida so'zlar ma'nosidagi zidlikni aks ettirgan narsa-hodisalar namoyish etiladi: otlarda ko'rinishi bilan; sifatlarda rangi, hajmi, xususiyatlari bilan; fe'llarda harakatlar bilan ma'nodagi zidliklar multimedia vositalarida ochib beriladi va o'quvchining ongida axborotni mukammal darajada singdirishga erishiladi.

3. Sintaksis bo'limini o'qitishda so'z va gaplarni bir-biriga bog'lanishini animatsiyalar effektidan foydalanib namoyish etish, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini tushuntirishda ohangning qo'shilishi, urg'uning tushish o'rnini alohida ranglar bilan belgilab ko'rsatilishi tegishli ijobiy samarani ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Sintaktik tahlillar o'quvchining ko'z o'ngida sodir etiladi. Oldin kesim, keyin eganing ekranda paydo bo'lishi va kesim, ega orqali gapning fikriy mundariyasi shakllanishi, undan so'ng ikkinchi darajali bo'laklarning birin-ketin kelib joylashishi orqali gapni kengaytirish, gap bo'laklarining so'roqlari, ularning bajaradigan vazifalari nimadan iborat ekanligi multimedia vositalari orqali o'quvchining ko'z oldida birma-bir sodir etiladi. Qisqa hajmli videoroliklar namoyishi asosida matnlar tuzish, matndagi gaplarni grammatik va mazmunan to'g'ri bog'lash, undagi tinish belgilarining o'rinli joylashtirilishini multimedialar asosida ko'rsatish o'quvchining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vositadir.

O'quv jarayoniga multimedia vositalarini joriy etish o'rganilayotgan obyektlarning modelarini qurish, "o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritish darajasini oshirish, axborotning turli shakllaridan o'rinli foydala bilish: ovoz, tasvir, animatsiya, turli hajmdagi ma'lumotlarni izlash, saralash, tanlay olish, qayta ishlash va saqlash kabi imkoniyatlarini yaratib berdi. Bu o'quvchiga yangi bilim berish bilan birga ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun uning hissiyoti, ruhiyatiga va faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligini ko'rsatadi"[Kuldasheva 2020, 22]. Mutaxassislar multimedia vositalaridan darsning deyarli barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkinligi haqidagi xulosalarni berishgan. Shunga tayangan holda aytish mumkinki, ona tili darslarida ham mazkur holat imkoniyat sifatida mavjud. Faqat hamma gap undan alohida olingan bir dars va mavzu jarayonida qanday foydalanish ustida qolgan, xolos. Bizning mulohazalarimizni multimedia vositalari (yoki imkoniyatlari)dan ayrim mavzularda foydalanish mumkinligi va ayrimlarida mumkin emas, tarzida tushunilmasligi kerak. Bu ifoda bilan biz har bir mavzuning o'rganilishidagi o'ziga xosliklarning mavjudligiga urg'u bermoqchimiz, xolos. Umuman olganda, hamma mavzularni qaysi sinfda o'rganilishidan qat'iy ravishda tatbiq etilaverishi mumkin degan aqidaning o'zi mavjud emas. Har bir sinf doirasida va har bir mavzu kesimini o'z ichiga qamrab olgan multimedia majmualarini yaratish o'qituvchi uchun qulaylik keltiradi. Darsning

Til ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish

yangi bilim berish bosqichida multimedia vositasidan foydalanish uchun majmuaning maxsus tugmasini bosib belgilangan mavzuni topishi va foydalanishi mumkin. Yangi mavzuni mustahkamlash bosqichlarida ham xuddi shunday testlar, topshiriqlar, videolar, audiolar tugmalarini bosib tayyor materialdan foydalaniladi (qarang: 1-rasm).



1.1-rasm. Ona tilidan multimedial dastur.

Tadqiqotimiz jarayonida dars bosqichlarida multimedia vositalaridan qancha vaqt davomida foydalanish lozimligiga e'tibor qaratdik. Bolaning tabiatidan bizga ma'lumki, pastki sinf o'quvchilari yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan o'yinqaroq va multiplikatsion filmlar tomoshasiga o'ch bo'lishadi. Yuqori sinf o'quvchilari o'zini katta odamlardek tutishi, bosiqroq, balog'at davrida ekanliklari uchun birmuncha o'ychan, xayolparast va jizzakiroq ekanliklari ko'zga tashlanadi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, 5-, 6-, 7-sinflarda multimedia vositalari asosidagi texnologiyalardan yuqori sinflardagiga nisbatan dars mashg'ulotining mustahkamlash bosqichlarida ko'proq muddatga foydalansa bo'ladi. Yuqori sinflarda esa aksincha. Qisqa vaqtda namoyish etib, o'quvchining individual fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarishi, fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olishini shakllantirishga imkoniyat va sharoit yaratib berish lozim. Ammo buni dars bosqichlari kesimida ham belgilash muhim. Masalan, pastki sinflarda yangi bilim berish bosqichida 1,5—2 daqiqadan 3—4 daqiqagacha, yangi bilimni mustahkamlash bosqichida esa, 1,5—2 daqiqadan 8—10 daqiqagacha multimedia vositalari asosidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Pastki sinflarda nazariy bilimning kamroq berilishi ham bu bilan bog'liq. Mustahkamlash bosqichlarida nisbatan ko'p vaqt ajratilishida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yosh psixologiyasi va uning qiziqishlarini inobatga olish kerak.

8-, 9-sinflarda yangi bilim berish bosqichida 8—9 daqiqagacha, 10-, 11-sinflarda esa 9—10 daqiqagacha vaqt sarflash mumkin, chunki mazkur sinf o'quvchilari gap va matnlarni mustaqil qura oladigan, tahlil qila oladigan, erkin mushohadaga ega shaxs sifatida tarbiyalanayotgan bo'lishadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida esa 1,5—2 daqiqadan 3—4 daqiqagacha vaqt davomiyligida multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Qisqa namoyishda aks ettirilgan g'oyani anglash, uni yozma va og'zaki tarzda hikoya qila olish, fikrni davom ettirish,

matnlarni grammatik tahlil qila olish, mushohada yuritishga undaydigan savol va topshiriqlar orqali o'quvchini o'z ustida ishlashga imkoniyat yaratib berish lozim. Uyga vazifa berish va baholash bosqichlarida 1,5—2 daqiqadan 2—3 daqiqa vaqt oralig'ida multimedia vositalaridan foydalanish o'rinli. Shakllantiruvchi (formativ) baholashda 2—3 daqiqalik topshiriq bilan har bir darsda kompyuter yoki turli gadjetlar orqali barcha o'quvchining bilimi baholanib borilishi mumkin. Nechanchi sinfda va darsning qaysi bosqichida multimedia vositalaridan qanday foydalanish o'qituvchining tajribasi va mahoratiga bog'liq ekanligini unutmashligimiz kerak.

Yangi bilim berish bosqichida o'quv jarayonini intensivlashtirish imkonini beruvchi kompyuter dasturlari yordamida multimedia ma'ruzalarini yaratish va foydalanish mumkin. Kompyuter vositalari hamda interfaol doskalardan foydalangan holda multimedia ma'ruzalaridan foydalanish o'quvchilar uchun darsni jonli va jozibali o'tkazishga yordam beradi. Interfaol doskalar orqali jadvallar, diagrammalar, xaritalar, fotosuratlar va ovozdan vizual tarzda foydalanib ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Interfaol doska yordamida o'rganilayotgan material hayajonli va dinamik usullarda taqdim etiladi, mavhum tushunchalar va g'oyalarni model-lashtirish, modellarni o'zgartirish, obyektning ekranning boshqa joyiga ko'chirish va ular o'rtasida munosabat o'rnatish imkoniyatlari mavjud. Yana bir e'tiborga molik tomoni bularning barchasi real vaqtda, o'quvchining ko'z o'ngida amalga oshiriladi. Shu bilan birga tushuntirish jarayoni sezilarli darajada o'zgaradi, o'quvchilar materialni eshitib, ko'rib idrok etadi, tasavvurlari rivojlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirish bo'yicha jonlantirilgan va ovozashtirilgan taqdimotlar, axborotni qabul qilishning turli kanallaridan foydalanish ularning emotsional holatini, faolligini oshiradi, ijodkorlikka undaydi. Natijada bilim sifatini oshirish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, davlat ta'lim standartlarida sintaksis haqida umumiy tushuncha berish, teng va tobe bog'lanish, so'z birikmasi mavzulari (8-sinfda; 12-, 13-mavzular) uchun 2 soat vaqt ajratilgan. DTSda qo'yilgan talablardan kelib chiqib "...o'quvchida nutqiy kompetensiyaning tinglangan matndagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna olish, matn va topshiriqlarning mazmunini anglagan holda, to'g'ri va ravon o'qiy olish, fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri bayon qila olish elementlari, lingvistik kompetensiyaning yangi so'z, ibora va istilohlarni o'zlashtirish va sharh-lash elementlarini shakllantirish" lozim. Bularning barchasini nazarda tutgan holda, so'zlarning teng va tobe bog'lanishi haqida multimedia vositalaridan foydalanib multimedia texnologiyasini yaratdik va amaliyotga tatbiq etib ko'rdik. Multimediali mahsulotlarning yaratilish asosi ssenariy yozish jarayoni bilan boshlanadi. O'qituvchi mavzu, sinf va darsning qaysi bosqichiga multimedia ishlanmasi tayyorlashni belgilab oladi. Ishning sifati va samaradorligi mualliflarning metodik, pedagogik-psixologik, texnik, estetik talablarga rioya etganligi bilan o'lchanadi. Biz ham dastlab g'oya o'ylab topdik. So'zlarning teng va tobe bog'lanishini o'quvchining ko'z oldida gavdalantirish uchun nimadan foydalansa bo'ladi? Biz yaratadigan multimedia mahsulotini "Mozaika" texnologiyasi bilan uyg'unlashtirdik. "Mozaika" (frans. masaique — muzalarga bag'ishlangan) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar, metall va boshqalar) bo'laklaridan ishlangan tasvir. Bilamizki, "Mozaika" o'yinlari bolaning fikrini jamlash, kreativ fikrlashni uyg'otish, xotirani mustahkamlash uchun psixologlar tomonidan tavsiya etiladi. 8-sinf o'quvchisiga mozaikalar biroz jo'n tuyulishi mumkin, biroq biz buni lingvistik bilimlar bilan bog'lab olishimiz bolada qiziqish uyg'otishi tabiiy. Chunki o'zi uchun tanish va bolaligidan beri o'ynab kelgan o'yinning boshqacha mohiyat kasb etishi unga qiziqish orttiradi. Shartli ravishda texnologiyamizni "Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish" deb nomladik.

Multimedia ssenariyasi:

O'qituvchi ko'rinishidagi qiz bola ekranda gavdalantiriladi. Uning qarshisidagi ekranda dastlab mozaika shakllari paydo bo'ladi. So'ng mozaikalarda 1-qatorda tobe qism vazifasini bajarib keladigan so'zlar, 2-qatorda hokim qism vazifasini bajarib keladigan so'zlar namoyish etiladi. "O'qituvchi" bir uyum mozaikalar (yordamchi so'zlar va qo'shimchalar yozilgan)dan mosini mustaqil so'zlar orasiga joylashtirib, so'z birikmalari (tobe bog'lanishni) hosil qiladi. Bog'lovchi vosita noto'g'ri joylashtirilganda qabul qilinmaydi, faqat to'g'ri javob qabul qilinadi.

1-ekrandagi so'zlar: kitob, dala, sadoqatli, zavq, ukasi, kutubxona, tez, mehnatsevarligi, ona,


chiroyli.

2-ekrandagi so'zlar: o'qib, ishlash, do'st, tinglamoq, berdi, olgan, gapirish, rag'batlantirilgan, g'amxo'rligi, shahar.


Mozaikalar uyumi: -ni, -da, bilan, -ga, -dan, uchun, -ning.

Mozaikalar to'g'ri joylashtirilgandan so'ng quyidagi tobe bog'lanishlar hosil bo'ladi:

Kitobni o'qib, dalada ishlash, sadoqatli do'st, zavq bilan tinglamoq, ukasiga berdi, kutubxonadan olgan, tez gapirish, mehnatsevarligi uchun rag'batlantirilgan, onaning g'amxo'rligi, chiroyli shahar (qarang: 2-rasm).



2-rasm.



3-rasm.

Mozaikalar to'g'ri joylashtirilganining isboti sifatida ekranda yulduzchalar porlaydi. Misollar yo'qolib, qoida kelib chiqadi. "O'qituvchi" mavzuni tushuntiradi.

Ekranda "Bilib oling" degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.

Ekranda yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

Bir mustaqil so'z boshqa mustaqil so'zni izohlaydigan bog'lanish tobe bog'lanish deyiladi. Tobe bog'lanish ikki qismdan iborat bo'ladi: hokim qism va tobe qism. Odatda, tobe qism hokim qismdan oldin keladi. So'roq beriladigan bo'lak hokim so'z, so'roqqa javob bo'ladigan bo'lak tobe so'z hisoblanadi. Masalan: nimani o'qimoq? — kitobni o'qimoq.

o'qimoq — hokim

kitobni — tobe

-ni bog'lovchi vosita (qarang: 3-rasm).

"O'qituvchi" mavzuning davomini tushuntirishdan oldin bolalarga topshiriq berib ko'rishini ma'qul topdik (Qarang: 4-rasm). O'quvchilar belgilangan vaqt ichida topshiriqni bajargandan so'ng, "o'qituvchi" tomonidan mavzuni tushuntirish davom ettiriladi.

Topshiriq. Aziz o'quvchilar, endi yuqorida ko'rsatilgan misollarni uch guruhga ajrating:

- 1) qo'shimchalar yordamida bog'lanish;
- 2) ko'makchilar yordamida bog'lanish;
- 3) qo'shimcha va ko'makchilarsiz bog'lanish.

O'quvchilar mustaqil ishni o'z daftarlarida bajaradilar.

1) qo'shimchalar yordamida bog'lanish: kitobni o'qib, dalada ishlash, ukasiga berdi, kutubxonadan olgan, onaning g'amxo'rligi.

2) ko'makchilar yordamida bog'lanish: zavq bilan tinglamoq, mehnatsevarligi uchun rag'batlantirilgan.

3) qo'shimcha va ko'makchilarsiz bog'lanish: sadoqatli do'st, chiroyli shahar (Qarang: 5-rasm).

Ekranda "Bilib oling" degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.



4-rasm

5-rasm

Ekkranda yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

Ba'zan bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, teng bog'lanish deyiladi. So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi: yoshlar va kelajak, otam bilan onam, oy hamda quyosh.

Teng bog'lanishda tobe va hokim qism bo'lmaydi, ikkala so'z ham teng huquqli bo'ladi.

Ekkranda "Bilib oling" degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.

Ekkranda yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab ikki guruhga bo'linadi: otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot, sifat, son, ravish va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: shaharning ko'chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarning beshtasi, do'stlarning barchasi, o'qdan tez kabi.

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: kitobni o'qidi, daftarga yozmoq, tez yugurgan, ohista gapirish, ta'sirli so'zlab, zavq bilan o'qimoq.

Mazkur multimedia texnologiyasini yaratish uchun ishlar tartibi quyidagicha amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar	Foydalanilgan dasturlar
1. Multimedia ssenariyasi yozildi.	Adobe Captivate
2. Rasmlar tanlandi.	Adobe Photoshop
3. Matn yozildi.	Adobe Audition
4. Slayd yaratildi.	Adobe Illustrator
5. Ovoz yozildi.	GoldWave
6. Animatsiya tanlandi.	Crazy Talk
7. Jamlandi.	

"Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish" texnologiyasining davomiyligi 7 daqiqani tashkil etadi. Yangi bilim berishning 7—10 daqiqasini multimedia vositalari yoki texnologiyasiga sarflash 8-sinf o'quvchilarining yoshi, psixologiyasi, fikrlash doirasi, yangi bilimni qabul qilish ko'nikmalariga to'g'ri keladi. Namoyishdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob beradi va tushunmay qolgan o'rinlarni to'ldiradi. "Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish" multimedia texnologiyasi chiziqli (prezentatsiya ko'rinishidagi) multimediadir. Bunda o'quvchi ishtirok etmaydi. Vaholanki, faqat ko'radi, eshitadi, tomosha qiladi, xulosa chiqaradi (qarang: 1-QR-kod).



Afzallik tomoni shundaki, tushuntirishning boshi mozaika o'yini bilan uyg'un holatda boshlanishi, har xil ranglar jilosi, tengdosh qizning o'qituvchi rolini bajarishi, rag'bat ma'nosida yulduzchalarning porlashi, animatsiya harakatlari, qolaversa, har bir mayda detallar ham o'quvchini qiziqtirish, uni o'ziga jalb qilish orqali mavzuni tushunishiga yo'naltirilgan.

Xulosa

Multimedia vositalaridan foydalanganda pedagogik, psixofiziologik hamda metodik talablar nazarda tutilishini ta'kidlaymiz. Pedagogik talablarga yaratiladigan loyiha yoki mahsulotning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlariga mos kelishi; psixofiziologik talablarga o'quvchining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishlarini inobatga olgan holda, sodda, aniq, tushunarli va qulay ishlab chiqilishi; metodik talablarga esa o'rganiladigan o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda, uzviylik ta'minlangan holda, o'zlashtirilgan bilim darajasining murakkabligini inobatga olib turli metodlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari texnik, estetik, didaktik va boshqa talablar bilan mutanosiblashtirilsa, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, muloqotning interfaolli, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit birligi inobatga olinsa, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi.

Multimedia shartlarini bajarmaslik, multimediali mahsulotlar yaratishda uning qoidalaridan chekinish tayyorlangan dars loyihasini didaktik nuqtayi nazardan muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Afsuski, ko'pgina o'qituvchilar multimedia vositalaridan foydalanishda kichik detallarga e'tibor bermaydilar. Proyektordan foydalanish uchun sinf xonasining derazalarini parda bilan to'smaslik lozim, aksincha, proyektor yoki interfaol doskani chiroq nuri tushmaydigan zonada joylashtirish va undagi ranglarga alohida e'tibor qaratish muhim. Sinf xonasi multimedia darslarini o'tishga jihozlanmagan bo'lsa, multimedia darslarini informatika xonalarida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida bunday innovatsion usullar asosida yondashish o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham yangi tajriba orttiradi, obrazli-vizual anglash, tanqidiy qarash, kreativ fikrlashni o'stirish, shaxsiyatni rivojlantirish, kelajakka mustaqil intilishni takomillashtirish bilan birga o'z intellektiga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o'taydi. Yana bir imkoniyatli tomoni shundaki, multimediya loyihalaridan sinfdagi dars mashg'ulotlarida, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, past o'zlashtiruvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, ona tili to'garaklarida, shuningdek uyda mustaqil ishlash uchun foydalaniladi. Faqatgina o'qituvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning tezligi, material miqdori, qiyinchilik darajasini belgilash hamda, eng asosiysi, o'quvchida kerakli media vositalaridan o'rinli foydalana olish malakasi va madaniyatini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Ta'limda multimediali texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi ijobiy omillarga erishiladi:

1. O'rganilayotgan materialni namoyish etish vositalarida yaxshiroq va chuqurroq tushuntirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.
2. Muntazam operatsiyalarni avtomatlashtirish natijasida sezilarli darajada vaqtni tejiladi.
3. O'quvchi mashg'ulot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiriladi, ularning kognitiv mustaqilligi va ijodi rivojlantiriladi.
4. Obyektlar va hodisalarni modellashtirish qobiliyati shakllantiriladi, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish o'rgatiladi.
5. Axborotni uzoq muddat xotirada saqlanishini ta'minlanadi.
6. Istalgan zamonda takror ko'rish yo eshitish orqali qayta takrorlashga imkoniyat yaratiladi.
7. Zamonaviy ta'limni olish motivatsiyasi oshiriladi.
8. Izlab topish, saralab olish, qayta ishlash, alohida belgilash, aloqa o'rnatish va h. kabi axborot bilan ishlash malakasi shakllanadi.
9. Vizual-obrazli anglash, mantiqiy fikrlash, yozma va og'zaki muloqot qobiliyatlari rivojlanadi.

Adabiyotlar

- Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.б. фал. док. ... дис.автореферати — Тошкент, 2022. — 14-б.
- Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o'lchovlar). — Toshkent: Akademnashr, 2020. — 34-bet.
- Мейер Р.Э. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle. Santa Barbara, 1998. P.23-25.
- Миньяр-Белоручев Р. К. Методика обучения французскому языку. М., 1990. С.173.
- Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие. Москва. «Высшая школа» 2003. — С.229.
- Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. — М.: Дрофа, 2006. — С.319.
- Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. — Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019. — 129b.
- Kuldasheva S. Use of multimedia tools in the development of speech competence // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. — Vol. 11, Issue 10, October 2021. ISSN: 2249-7137, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02286.2. — P.1643 — 1648.
- Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. — Москва, 2014. — С.223.
- Кулдашева С. Она тили дарсларида мультимедиа воситаларининг жорий қилиниши // *Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia, 2022*. — P.33 — 37.
- Kuldasheva S. The Effectiveness Of Using Multimedia In Distance Learning In Native language // *Педагогика в теории и на практике: актуальные вопросы и современные аспекты: сборник статей VII Международной научно-практической конференции*. ISBN 978-5-00159-659-2. — Пенза, 2020. — С.20 — 22.
- Курганова Е., Арапина М. Использование мультимедиа технологий в просессе физического воспитания студентов вузов (на примере аэробики). <https://doi.org/10.12731/wsd-2014-7.1-12>
- Инақов Қ.Қ. Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш. Пед.фан.б.фал.док...дис. — Тошкент, 2019. — 142б.
- Окладникова С. Разработка алгоритма контроля и управления соответствия тестовых материалов правилам русского языка. Известия волгоградского государственного технического университета. — Волгоград, 2008. — С.112-115. ISSN: 1990-5297.

Abstract

The article discusses new approaches to mother tongue education in general secondary schools, teaching mother tongue through ICT, effective use of multimedia tools in language education, standards and criteria for using multimedia methods, intensity level and content. The opinions expressed by scientists about the advantages of using multimedia tools in language education are explained. Effectiveness of using multimedia in lesson processes, methodology of creating multimedia developments based on exercises and tasks in the textbook are highlighted.

Keywords: *multimedia tools, multimedia programs, media culture, audio-lingual approach, audiovisual tools, video, audio text, animation.*

References

- Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.б. фал. док. ... дис.автореферати — Тошкент, 2022. — 14-б.
- Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o'lchovlar). — Toshkent: Akademnashr, 2020. — 34-bet.
- Мейер Р.Э. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle. Santa Barbara, 1998. P.23-25.
- Миньяр-Белоручев Р. К. Методика обучения французскому языку. М., 1990. С.173.
- Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие. Москва. «Высшая школа» 2003. — С.229.
- Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. — М.: Дрофа, 2006. — С.319.
- Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. — Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019. — 129b.
- Kuldasheva S. Use of multimedia tools in the development of speech competence // *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*. — Vol. 11, Issue 10, October 2021. ISSN: 2249-7137, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02286.2. — P.1643 — 1648.
- Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. — Москва, 2014. — С.223.
- Кулдашева С. Она тили дарсларида мультимедиа воситаларининг жорий қилиниши // *Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia, 2022*. — P.33 — 37.
- Kuldasheva S. The Effectiveness Of Using Multimedia In Distance Learning In Native language // *Педагогика в теории и на практике: актуальные вопросы и современные аспекты: сборник статей VII Международной научно-практической конференции*. ISBN 978-5-00159-659-2. — Пенза, 2020. — С.20 — 22.
- Курганова Е., Арапина М. Использование мультимедиа технологий в процессе физического воспитания студентов вузов (на примере аэробики). <https://doi.org/10.12731/wsd-2014-7.1-12>
- Инақов Қ.Қ. Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш. Пед.фан.б.фал.док...дис. — Тошкент, 2019. — 142б.
- Окладникова С. Разработка алгоритма контроля и управления соответствия тестовых материалов правилам русского языка. Известия волгоградского государственного технического университета. — Волгоград, 2008. — С.112-115. ISSN: 1990-5297.

¹ Kuldasheva Sanobar Khayotovna — teacher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

For citation: Kuldasheva, S. 2024. "Use of multimedia tools in language education". *Uzbekistan: Language and culture*. 4[1]: 44—52.

**10-SINF “ONA TILI” DARSFIGIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN
TOPSHIRIQLARNING BERILISHI**Nilufar Turg'unova¹**Annotatsiya**

Ta'limning mazmunini belgilovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, darslik va qo'llanmalarning mazmun-mundariyasini o'rganish o'qitishning mavjud holatini tahlil qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ona tili fani Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, Milliy o'quv dasturida qanday talablar belgilanganligi, darsliklarda qanday material va imkoniyatlar mavjudligini aniqlash maqsad qilib qo'yildi hamda DTS, o'quv dasturlari, darsliklar, ularga doir metodik qo'llanmalar tahlil qilindi.

Ushbu maqolada o'qitishning samarali texnologiyalaridan biri — loyiha texnologiyasining til ta'limidagi ahamiyati hamda o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini tashkil etish xususida so'z yuritilgan. O'quv loyihalarining turlari, mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, 10-sinf “Ona tili” darsligidagi loyihaga asoslangan topshiriqlar, ularning maqsadi, mazmuni tahlil qilinib, darslikdagi loyihaviy topshiriqlarni mukammallashtirish xususida ayrim metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *darslik, topshiriq, loyihaga asoslangan ta'lim, o'quv-loyihaviy faoliyat, loyiha turlari, ijodiy loyiha, axborot beruvchi loyiha, tadqiqotchilik loyihasi, rolli-o'yinli loyiha, ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqil fikrlash.*

Kirish

Bugungi kunda maktab ta'limining asosiy maqsadi, faqatgina nazariy ma'lumotlarni yoddan aytib bera oladigan bitiruvchini emas, balki o'rgangan bilimlarini bevosita amaliyotda qo'llay oladigan, o'z mustaqil fikriga ega, har qanday mavzu yuzasidan tanqidiy tahlil yurita oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Ma'lumki, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, kreativlik, axborot va media savodxonligi, raqamli savodxonlik, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik singari ko'nikmalar XXI asr ko'nikmalari sifatida tan olingan bo'lib, ta'lim jarayonida ham o'quvchida aynan ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu maqsadga erishishda zamonaviy texnologiyalar, o'qitishning samarali usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

O'quvchini faollikka undovchi va ulardagi turli qobiliyatlarni namoyon qiluvchi samarali texnologiyalardan biri bu loyiha texnologiyasidir. Loyihaga asoslangan ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqilganiga bir asrdan oshgan bo'lsa-da, ta'limda mazkur yondashuv hamon o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Loyiha asosida o'qitish o'quv materialini tizimli va samarali yetkazib berishda alohida ahamiyatga ega. O'quv loyihalarining asosiy maqsadi o'quvchi faoliyatini maqsadli tashkil etishga, muammoni hal etish va loyihani amalga oshirish jarayonida mustaqil fikrlash, axborotlar bilan ishlash, tadqiqot olib bora olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Dastlab muhandislik, quruvchilik, haykaltaroshlik kabi sohalarida faol qo'llangan loyiha texnologiyasi bugungi kunda barcha ta'lim yo'nalishlarida, xususan, til o'qitishda ham samarali usullardan biri ekanligi o'z isbotini topgan.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022—2026-yillarda maktab

¹ Turg'unova Nilufar Muhiddin qizi — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti

E-mail: nilufarturgunova20@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8996-7300

Iqtibos uchun: Turg'unova, N. 2024. “10-sinf “Ona tili” darsligida loyihaga asoslangan topshiriqlarning berilishi”. O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 53—58.

ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi farmonida umumiy o’rta ta’limni isloh qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilab berildi. 2022-yildan ta’lim jarayoniga yangi Milliy o’quv dasturini joriy etish, yangi avlod darsliklarini yaratish bo’yicha mualliflar maktabini shakllantirish kabi maqsadli ishlar maktab ta’limini rivojlantirishda muhim qadam bo’ldi.

Mazkur farmon ijrosi davomida 2022-yilda mahalliy mutaxassislar hamda xorijiy ekspertlar bilan birgalikda bir qator o’quv fanlari bo’yicha yangi avlod darsliklari yaratildi. Xususan, 6-,7-,10-sinflar uchun zamonaviy yondashuvga asoslangan “Ona tili” darsliklari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur darsliklar kommunikativ yondashuvga asoslanganligi, fanlarni integratsiya asosida o’qitishga urg’u berilganligi, shuningdek, o’quvchida ham lingvistik, ham nutqiy kompetensiyani birgalikda rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilganligi bilan avvalgi darsliklardan ajralib turadi. Yangi avlod “Ona tili” darsliklaridagi matnlar, o’quv topshiriqlari o’quvchini mustaqil fikr yuritishga, tahlil qilishga undaydi. Darsliklardan loyihaga asoslangan o’quv topshiriqlarining o’rin olganligi fikrimiz dalilidir.

Loyiha texnologiyasi bu o’quvchilar uchun muammoli shaklda tuzilgan topshiriq bo’lib, ularning maqsadli faoliyati; o’qituvchi va o’quvchilar, shuningdek, o’zaro o’quvchilar orasida munosabatlarni tashkil etish shaklidir. O’quv loyihasi shunday didaktik vositaki, u o’quvchilarga loyiha yaratish imkonini beradigan, topshiriqni bajarish yo’lida muayyan vaziyatlarda kelib chiquvchi muammolarni hal qilishga qaratilgan jarayondir [Paxomova 2005, 13]. Loyihaga asoslangan ta’lim o’quvchida 4K ko’nikmalarini (kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va kritik (tanqidiy) fikrlash) shakllantirishda katta yordam beradi.

Milliy o’quv dasturi hamda yangi avlod “Ona tili” darsliklarida ona tili ta’limida ilk bor loyihaga asoslangan ta’limga murojaat qilindi. Nima uchun darslikda loyihaga asoslangan topshiriqlar bo’lishi zarur, degan savolga quyidagi sabablarni keltirishimiz mumkin [Smruti Salve 2022, 39]:

1. Loyihaga asoslangan ta’lim o’quvchini mazmun haqida fikrlashga jalb qiladi, tanqidiy fikrlash, muloqot hamda hamkorlikda ishlash ko’nikmalarini shakllantiradi.

2. Loyihaga asoslangan ta’limda ko’pincha an’anaviy ta’limda qo’llanilmaydigan usullarga murojaat qilinadi.

3. Loyihaga asoslangan ta’lim orqali o’quv rejasiga real hayot konteksti kiritiladi.

4. Loyihaga asoslangan ta’lim haqiqiy baholashga yordam beradi.

Quyida biz 10-sinf “Ona tili” darsligidagi loyiha bilan bog’liq topshiriqlarni tahlilga tortdik. Darslikda umumiy uchta loyiha ishi berilgan:

1. VI bob (“Tilim — boyligim”. Lingvistik mavzular: atamalar, unlilar imlosi, undoshlar imlosi) 28-dars. Mazkur bobda quyidagi shart asosida loyiha tayyorlash vazifa qilib berilgan: *Topshiriq. Quyida sizga bir nechta neologizm - yangi so’z taqdim qilinmoqda. Siz ularga o’zbekcha muqobil topishingiz kerak. Loyihani bajarishda tanlagan so’zingiz neologizmning ma’nosini imkon qadar qamrab olishiga harakat qiling. Bir nechta variant taqdim etishingiz, izohli lug’atda mavjud bo’lmagan so’z yasashingiz mumkin* [Mengliyev 2022 (a), 106]. Neologizm sifatida o’quvchilarga lokatsiya, fleshka, bodikamera, masterklass, onlayn, oflayn, trening, chellenj xeshteg, fastfud kabi so’zlar taqdim etilgan.

Ushbu darsda o’quvchilar nutqiy mavzular doirasida tillar taraqqiyoti va tanazzuli, so’z mas’uliyati, o’zbek tilidagi ba’zi iboralarining ma’no xususiyatiga oid bo’lgan matnlar bilan tanishadilar. Lingvistik bilim sifatida esa asos va qo’shimchalar imlosiga doir qoida hamda topshiriqlar berilgan. Loyiha topshirig’i darslikdagi nutqiy mavzu bilan chambarchas bog’liq. Topshiriqda so’ralganidek, o’quvchi tilimizga juda tez kirib kelib o’rnashib qolayotgan turli o’zlashma so’zlarga o’zbekcha muqobil variantini topishi zarur. Bu o’quvchida izlanuvchanlik, kreativlik sifatlarini shakllantirish bilan birga, ona tiliga hurmat, uni asrash, sofligini saqlab qolish qanchalik muhim ekanligini tushuntirishga katta yordam beradi.

Berilgan loyiha topshirig’i individual tarzda bajariladigan loyiha ishi bo’lib, davomiyligiga ko’ra mini-loyiha turiga kiritish mumkin: ishning natijasi keyingi darsgacha tayyor bo’lishi kerak. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanmada ushbu topshiriq uyga vazifa sifatida berilishi qayd etib o’tilgan [Mengliyev 2022 (b), 90].

Ma'lumki, o'quv loyihalarining faoliyat turiga, murakkabligiga, davomiyligiga, tashkilotchilar soniga ko'ra bir nechta turlari farqlanadi va metodist olimlar tomonidan turlicha tasniflanadi. Loyiha ta'lim texnologiyasining nazariy asoslarini ilk bor o'z asarida yoritib bergan olim X.Kilpatrik o'quv loyihalarini asosiy 4 ta turga bo'lib ko'rsatadi: konstruktiv, estetik, muammoli loyiha va o'rganishga asoslangan loyiha [Kilpatrik 1918]. Y.S.Polat faoliyat turiga ko'ra loyihalarni tadqiqotchilikka asoslangan, ijodiy, rolli va axborot beruvchi loyihalarga ajratadi [Polat 2002, 71-72]:

— Tadqiqotchilikka asoslangan loyiha — bunday loyihalar puxta o'ylangan struktura, aniq maqsad, dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega muammo bo'lishini, eksperiment o'tkazish va natijalarni tahlil qilish uchun mos metodlar tanlanishini talab qiladi.

— Ijodiy loyiha — bu loyihani tayyorlash jarayonida jamoa ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatlari aniq belgilangan struktura asosida amalga oshirilmaydi, ishtirokchilar qiziqishi hisobga olinadi. Bunda e'tibor ko'proq ishning natijasiga qaratiladi. Videofilm ssenariysi, bayram dasturi, reportaj, gazeta, albom tayyorlash kabilarni ijodiy loyihaga kiritish mumkin.

— Rolli-o'yinli loyiha — bunday loyihalarda ham ijodiylik yuqori bo'ladi, lekin ishtirokchilar belgilangan xarakter, rolni ijro etib berishlari bilan ajralib turadi. Bu adabiy personajlar yoki jamiyatdagi turli vaziyatlarni ochib beruvchi o'ylab topilgan qahramonlar bo'lishi mumkin.

— Axborot beruvchi loyiha — bu turdagi loyiha muayyan obyekt, tushuncha haqida ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, umumlashtirishga qaratilgan bo'lib, ishning natijasi maqola, referat, doklad, taqdimot ko'rinishida bo'lishi mumkin.

O'zbek olimlaridan Z.Sharopova o'quv loyiholari axborotli, tadqiqot va amaliy loyihalarga bo'linishini qayd etib o'tadi [Sharopova 2019, 239]:

— Axborotli loyihalar maqsadi — muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash. Natijasi — maqola, referat, ma'ruza, keys va b.

— Tadqiqot loyiholari maqsadi — tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash. Natijasi — hisobot, ma'ruza, keys va b.

— Amaliy loyihalar maqsadi — muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish. Natijasi — harakatlar dasturi, biznes reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.

Shuni aytib o'tish lozimki, o'quv loyiholari turlariga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, aksariyat holatlarda loyiha topshiriqlari aralash holda tuzilgan yoki bir nechta faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'ladi. O'quv loyihalarini tasniflashda muayyan faoliyat turning nisbatan ustunligi hisobga olinadi. Bir loyiha ustida ishlash davomida o'quvchi ham tadqiqot olib borishi, ham axborotlar bilan ishlashi, shuningdek, ijodiy mahsulot yaratishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan 10-sinf "Ona tili" darsligidagi loyiha ishini tadqiqotchilikka asoslangan loyiha turiga kiritishimiz mumkin. Bunda o'quvchi leksikologiyaga oid kichik tadqiqot olib boradi: berilgan o'zlashma so'zlarga mos o'zbekcha so'zlarni qidirish mobaynida lug'atlar, turli adabiyotlar, davriy nashrlar orqali izlanadi, leksik birliklar ichidan muqobil variantlarni tanlab oladi.

2. VII bob ("Fan va texnologiyalar". Lingvistik mavzular: og'zaki nutqda noverbal vositalardan foydalanish, fe'llarda nisbat, zamon, shaxs-son uslubi, qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish imlosi) 34-dars. Loyiha topshirig'i quyidagicha: *Tasavvur qiling: Stokgolmdasiz. Nobel mukofoti bilan taqdirlandingiz. Sizni minbarga nutq so'zlash uchun taklif qilishdi. Avvalo, matnni tayyorlashga kirishing. Qaysi yo'nalish bo'yicha Nobel laureati ekaningizdan kelib chiqib asosiy qismni shakllantiring. Matnni qayta-qayta o'qing. Ko'zgu qarshisida turib yuz, qo'l ishoralarining holatini kuzating. "Qirol nutqi" ("The King's Speech") filmini ko'rib, undagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi. Adabiy til me'yorlariga rioya qiling. Tavsiya etiladigan hajm: 5 daqiqa* [Mengliyev 2022 (a), 116].

Loyiha ishidan avval o'quvchilar taniqli davlat arbobi Nelson Mandela hamda yozuvchi Ernest Xemingueyning Nobel mukofotini topshirish marosimidagi nutqlari bilan tanishadilar. Mavzu davomida minbarda nutq so'zlash haqida qisqacha ma'lumot taqdim etiladi.

Ushbu loyihaga asoslangan topshiriq ham individual bajarishga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga, fikrni tartibli, asosli, mantiqli ifodalash ko'nikmalari ustida ishlashga katta yordam beradi. Loyiha ishi bitta dars uchun mo'ljallangan. Topshiriqda so'ralgan vazifani bajarish o'quvchidan kreativlik, tassavurni ishga solishni talab qilgani uchun mazkur loyihani ijodiy loyiha turiga kiritish mumkin.

3. IX bob (“Kino sanoati”. Lingvistik mavzular: qo'shtirnoq, nuqtali vergul, ikki nuqtaning qo'llanilishi) 49-dars. Loyiha topshirig'ining mazmuni quyidagicha: *Ta'til davomida telefoningiz yordamida qisqa metrajli film olishga urinib ko'ring. Filmingizni sinfdoshlaringizga qo'yib bering. Filmingiz ta'sirli bo'lsin. Bunda til birliklarining ifoda imkoniyatlariga alohida e'tibor bering* [Mengliyev 2022 (a), 169].

Bob so'nggida “Mustahkamlash” darsida berilgan mazkur loyiha ishi davomiyligiga ko'ra qisqa muddatli (bir nechta darsni qamrab oluvchi) loyiha hisoblanadi. Topshiriq ta'til davomida bajarish uchun mo'ljallangan. Ushbu loyiha ishi ham amaliy-ijodiy loyiha turiga kiradi.

Yuqorida 10-sinf “Ona tili” darsligidagi loyihaga asoslangan topshiriqlar ko'rib chiqildi. Topshiriqlar qiziqarli va real hayot bilan bog'langan holda tuzilgan. Har bir loyiha ishining mazmuni darsda o'tiladigan nutqiy mavzuga mos. Darsliklardagi o'quv loyihalari o'quvchini izlanishga, tadqiqot olib borishga, ijodkorligini namoyon qilishga imkoniyat yaratib berishi bilan ahamiyatga egadir.

Shu bilan bir qatorda, mazkur topshiriqlarni tahlil qilish asnosida ayrim metodik tavsiyalar berish mumkin:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining “Ona tili” darsliklarini tahlil qilish jarayonida loyihaga asoslangan topshiriqlar faqatgina 6- [Azimova, 2022] va 10-sinflarda berilganligini guvohi bo'ldik. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv loyihalari bilan ishlash hamda 5—11-sinf “Ona tili” darsliklariga loyihaga asoslangan topshiriqlarni kiritish lozim.

2. 10-sinf “Ona tili” darsligidagi barcha o'quv loyihalari individual tarzda bajarish uchun mo'ljallangan. Guruh va jamoaviy ishlashga qaratilgan o'quv loyihalarining kiritilishiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki loyiha texnologiyasining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchida hamkorlikda ishlash, muloqotga kirisha olish, mas'uliyat va javobgarlikni his qilish sifatlarini tarbiyalashdir.

3. Topshiriqlar uchun muddat aniq belgilanishi lozim. O'quvchi loyiha ishini shunchaki doimiy uy vazifasi sifatida emas, alohida yondashishni talab etadigan muhim topshiriq deb qabul qilishi zarur. Topshiriq shartida loyiha qancha vaqt davomida bajarilishi zarurligi, qachon yakunlab taqdimot qilinishi aniq aytilsa (masalan: bir kun, keyingi darsgacha, bir hafta) o'quvchi loyiha ishiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashadi.

4. Adabiyotlarda o'quv loyihalarining natijasi o'quvchi tomonidan yaratilgan aniq mahsulot bo'lishi qayd etilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ayrim topshiriqlar mazmuni ustida biroz ishlash lozim. Jumladan, 10-sinf “Ona tili” darsligidagi 1-loyiha ishida o'quvchidan neologizm so'zlarni tarjima qilish, o'zbekcha muqobilini topib yozib chiqish so'ralgan. Topshiriq loyiha talabiga javob berishi uchun o'quvchi shunchaki jadvalni to'ldirmasdan, vazifaga ijodiy yondashi-shi, ishning natijasini qandaydir mahsulot yordamida namoyon qilishi mumkin (masalan, kichik lug'at, devoriy gazeta, taqdimot va b.).

5. Loyiha texnologiyasining yana bir asosiy xususiyati shundaki, unda vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki loyiha tayyorlashda ishning natijasi bilan birgalikda muammoni yechishga qaratilgan jarayon ham birdek ahamiyatli. Aynan shu jarayonda o'quvchi nazariy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llaydi, axborotlar bilan ishlash va ularni saralashni o'rganadi. O'quv-loyihaviy faoliyat loyihaga tayyorlash, muammoni qo'yish, agar jamoaviy loyiha bo'lsa guruhlariga ajratish, vazifalarni belgilash, tadqiqotni amalga oshirish, ishni yakunlash va taqdimot qilish, baholash hamda tahlil kabi bosqichlar asosida tashkil etiladi. Xususan, VII bob 34-darsda berilgan nutq tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan loyihani quyidagi bosqichlar asosida bajartirish mumkin: 1-darsda Nobel mukofoti va mukofotni topshirish marosimi haqida qisqacha ma'lumot to'plash; 2-darsda uy vazifa sifatida “Qirol nutqi” filmi ko'rib kelish va tahlil qilish; 3-darsda minbarda so'zlash uchun nutq tayyorlash va tinglab, baholash.

6. O'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalarga darslikda berilgan loyihaviy topshiriqlarni baholash mezonlari kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Darsliklarga uzoq muddatli, puxta o'ylangan va rejalashtirilgan loyiha ishlari kiritilsa, ulardan choraklik, yillik baholash vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa

10-sinf "Ona tili" darsligi tahlilidan ma'lum bo'ldiki, darslikda avvalgi nashr etilgan darsliklardan farqli ravishda loyihaga asoslangan topshiriqlar o'rin olgan. Mazkur topshiriqlar o'quvchida ham og'zaki ham yozma nutq savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan. Darslikda berilgan loyiha ishlari o'quvchi yoshi va qiziqishlariga, o'quv materialini mazmuniga mos bo'lib, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlanishiga, o'quvchining ijodiy hamda mustaqil fikrlashiga, mavjud layoqatlarning namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Tahlil davomida darslikdagi loyihaviy topshiriqlarning to'ldirilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlari ham ko'zga tashlandi. Xususan, jamoaviy loyihalarning yo'qligi, loyihalarga aniq muddat qo'yilmaganligi, vazifalar bosqichma-bosqich yoritilmaganligi va boshqa kamchiliklar xususida fikrlar bildirib o'tildi va metodik tavsiyalar berildi. Darsliklardagi loyihaviy topshiriqlar yanada mukammallashtirish, shuningdek, barcha sinflarda ona tili o'quv fani bo'yicha ta'limiy loyihalar bilan ishlashni yo'lga qo'yish, yangilanishi kutilayotgan Ona tili darsliklariga loyihaga asoslangan topshiriqlarni kiritish milliy metodikamiz oldida turgan vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

Пахомова, Н.Ю. 2005. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. — 3-изд., испр. и доп. — М.: АРКТИ. — 112 с.

Kilpatrick, William Heard. 1918. The Project method. *Columbia university's Teachers College Record*. Vol. XIX, No 4, September.

Полат, Е.С. 2002. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. / Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. — М.: Издательский центр Академия, 2002. — 272 с.

Sharopova, Z.F. 2019. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. — T.: Navro'z. — 342 b.

Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

Mengliyev, B. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K., Siddiqov M., Atoyeva S. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.

Mengliyev, B. va b. 2022. Ona tili 10. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Yangi nashr. / Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 192 b.

Smruti Salve, Dr. Rekha Chavhan. 2022. "The project based learning for 21st century". *Educator Research Journal*, Volume — VIII, Issue — IV, July-August: 38-47.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 11.05.2022. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6008663#-6487242>.

ASSIGNMENT OF PROJECT-BASED TASKS IN THE 10TH GRADE
“MOTHER TONGUE” TEXTBOOK

Nilufar Turgunova¹

Abstract

Studying the content of legal and regulatory documents, textbooks and manuals that determine the content of education serves as the main factor in the analysis of the current state of education. In the course of the research, it was aimed to determine what requirements are set in the State Education Standard of the Mother Language, the curriculum, the National Curriculum, what materials and opportunities are available in the textbooks, and State Education Standard, educational programs, textbooks, methodological manuals related to them were analyzed.

This article talks about one of the effective technologies of teaching - the importance of project technology in language education and the organization of students' educational and project activities. Information about the types, essence, and unique characteristics of educational projects was provided. Also, the project-based assignments in the 10th grade Mother Language textbook, their purpose, content were analyzed, and some methodological recommendations were given for the improvement of the project assignments in the textbook.

Key words: *textbook, assignment, project-based learning, educational project activities, project types, creative project, informative project, research project, role-playing project, creativity, research, independent thinking.*

References

- Пахомова, Н.Ю. 2005. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. — 3-изд., испр. и доп. — М.: АРКТИ. — 112 с.
- Kilpatrick, William Heard. 1918. The Project method. *Columbia university's Teachers College Record*. Vol. XIX, No 4, September.
- Полат, Е.С. 2002. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. / Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. — М.: Издательский центр Академия, 2002. — 272 с.
- Sharopova, Z.F. 2019. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. — T.: Navro'z. — 342 b.
- Azimova, I. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.
- Mengliyev, B. va b. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K., Siddiqov M., Atoyeva S. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 224 b.
- Mengliyev, B. va b. 2022. Ona tili 10. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Yangi nashr. / Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K., Siddiqov M. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 192 b.
- Smruti Salve, Dr. Rekha Chavhan. 2022. “The project based learning for 21st century”. *Educator Research Journal*, Volume — VIII, Issue — IV, July-August: 38-47.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni. 11.05.2022. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6008663#-6487242>.

¹ Turgunova Nilufar Mukhiddin qizi — a doctoral student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: nilufarturgunova20@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8996-7300

For citation: Turgunova, N. 2024. “Assignment of project-based tasks in the 10th grade “Mother Tongue” textbook”. *Uzbekistan: Language and culture*. 4 [1]: 53—58.

6-SINF O'QUVCHILARIGA MATN TUZILISHINI O'RGATISH

Xusnora Baxtiyorova¹**Annotatsiya**

O'quvchilarni hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda o'quvchilarning matn tuzish malakasini shakllantirish hamda og'zaki va yozma nutqqa doir bilim berishda kommunikativ yondashuvni qo'llash samarali ekanini tajriba-sinov ishlari orqali isbotlandi. Matn tuzish jarayonida kommunikativ yondashuvni qo'llash o'quvchida ona tiliga nisbatan qiziqish va rag'batni kuchaytiradi. Bu orqali real nutq vaziyatida o'quvchida o'zi ko'rgan, bilgan va hayoti davomida duch keladigan nutqiy vaziyatlarni qanday ifodalash, qay o'rinda qo'llash ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Mazkur maqolada ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning didaktik imkoniyatlari inobatga olingan holda matn tuzilishi yuzasidan beriladigan bilim, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalar matn turlari (tasviriy matn: tavsiflash, ma'lumot berish, tushuntirish (izohlash); hikoya matni: to'qima voqelik yaratish, real voqelikni hikoya qilish; muhokama matni: tahliliy bayon qilish, masalaning turli tomonlari haqida fikr bildirish, voqealardan xulosa chiqarish) bo'yicha tasniflab o'qitish samara berishi haqidagi ilmiy-metodik qarashlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *matn tuzilishi, bilim, ko'nikma, malaka, qoida, tasniflash, tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni, struktura.*

Kirish

Bugungi kunda til ta'limidagi islohotlar jamiyatga tilshunoslik asoslarini chuqur biladigan o'quvchilarni emas, balki tanqidiy fikrlay oladigan, erkin fikr mahsulini tinglovchiga qisqa, lo'nda va tushunarli tarzda yetkazib bera oladigan ijodiy tafakkur egalarini tarbiyalashni maqsad qilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirish til ta'limida amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillarni belgilagan holda yangi mazmun, metod va usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning didaktik imkoniyatlari inobatga olingan holda matn tuzilishi yuzasidan beriladigan bilim, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalar quyidagi matn turlari bo'yicha tasniflab o'qitish samarali usul ekanini isbotladi:

- tasviriy matn (tavsiflash, ma'lumot berish, tushuntirish (izohlash));
- hikoya matni (to'qima voqelik yaratish, real voqelikni hikoya qilish);
- muhokama matni (tahliliy bayon qilish, masalaning turli tomonlari haqida fikr bildirish, voqealardan xulosa chiqarish).

Asosiy qism

Matn — eng yirik kommunikativ birlik bo'lib, axborot, axborotning uzatilishi va qabul qilinishiga ko'ra voqelanadi. Bu borada R.Yo'ldoshev, matnga shunday ta'rif beradi: "Har qanday kommunikativ jarayonning bosh maqsadi muayyan informatsiyani kommunikatsiya ishtirokchilari tomonidan berilishi va olinishini ko'zda tutadi. Axborotning bu oldi-berdisi matn ko'rinishida namoyon bo'ladi"[Yo'ldoshev R., 2012, 34].

Mazkur kommunikativ jarayon og'zaki va yozma ko'rinishida namoyon bo'lib, ikkala nutq ko'rinishida turlicha yuzaga keladi. Xususan, og'zaki nutq uchun nutqiy vaziyatlarga mos mazmun, fikrni lo'nda ifodalash muhim sanalsa, yozma nutqda mazmun va shakl birligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

¹ Baxtiyorova Xusnora Muza'ffar qizi — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi.

E-pochta: hunorabaxt4998@gmail.com

ORCID:

Iqtibos uchun: Baxtiyorova X. 2024. "6-sinf o'quvchilariga matn tuzilishini o'rgatish". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 59—66.

6-sinf o'quvchilariga matn tuzilishini o'rgatish

O'quvchilarda matn strukturasiga oid nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda kommunikativ yondashuv, faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi, farqli yondashuv [Mavlonova K., 2022, 44] larga ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Matnlarning asosiy belgisi sifatida yozma nutqda hosil bo'lishi, mazmunan va mazmunga mos grammatik qurilmalar yordamida shakllantirilishi nazarda tutiladi. Matnda qo'llanishi talab etilayotgan so'zlarning matn tarkibida qanday gaplar bilan bog'lanib kelishi mazmunga mos so'z, bo'yoqdor va ko'p ma'noli so'zlarni, emotsional-ekspressiv til hodisasini o'rganish nazarda tutiladi. L.Baxman ushbu yondashuvni "kommunikativ til mahorati" deb baholaydi. Suhbat jarayonida muloqot qiluvchilarning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish, nutq birliklari orqali his tuyg'ularga javob qaytarish: xursand bo'lish, g'azablanish, xafa bo'lish kabi ta'sir kuchiga ega birliklardan turli nutqiy vaziyatlarda foydalana olishida namoyon bo'ladi.

Metodik adabiyotlardagi qarashlar, matn tuzilishiga oid tadqiqotlardan olingan xulosa hamda tajriba-sinov ishlariga tayangan holda *tasviriy matn*, *hikoya matni* va *muhokama matni* tuzilishiga oid 6-sinf o'quvchilari egallaydigan lingvistik bilim, amaliy ko'nikma va malakalar (keyingi o'rinlarda BKM lar) aniqlab olindi.

Tasviriy matn tuzilishiga oid o'quvchilar egallaydigan BKM lar:

I. Tavsif berish — muayyan shaxs, narsa, joy yoki holatni tavsiflash. Unga oid belgilar orqali tinglovchi ongida tavsiflanayotgan narsani gavdalantirish, u haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan matn.

Bilim:

- matnni *xatboshilarga* ajrata oladi;
- *kim?*, *qachon?*, *qayerda?* so'roq olmoshlarini tushuna oladi;
- *atoqli otlarni olmoshlar* bilan almashtirib qo'llay oladi;
- *sifatlarning* ma'no guruhlarini tushungan holda nutqida farqlab qo'llay oladi;
- vazifadosh *ko'makchilarni* ma'nosiga ko'ra nutqida qo'llay oladi;
- nutqida *o'rin* va *payt ravishlaridan* foydalana oladi;
- *o'tgan*, *hozirgi* va *kelasi zamon* qo'shimchalarini ma'nosiga ko'ra ishlata oladi;
- *o'tgan zamon* qo'shimchasi *-gan* va *fe'lning* sifatsdosh shakli *-gan* qo'shimchalarini farqlay oladi.

Ko'nikma:

- shaxslarni tavsiflay oladi;
- narsa va buyumlarni batafsil yoritadi;
- ma'lum joyning joylashuv va tashqi ko'rinishini tavsiflay oladi.

Malaka: muayyan narsa, joy va shaxsning tashqi va ichki ko'rinishidagi belgilarni aniq va ifodali bayon qila oladi.

Qoidalar tizimi
Har qanday yozma ishning birinchi gapi xatboshidan boshlanadi.
Mustaqil sintaktik birlik (abzas) xatboshi bilan ajratiladi.
Kishilar va narsa-buyumlarni tasvirlashda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:
1. Tuzilishi (bo'yi, rangi, bichimi, harakatlari).
2. O'ziga xos xususiyati.
Joylarni tasvirlashda quyidagi til birliklaridan foydalaniladi:
1. Masofa (uzoq, yaqin, ...km, ...metr).
2. Joylashuv (old, orqa, qarama-qarshi, past, yon, ust).
3. Yo'naltirish (to'g'riga, o'ngga, chapga, burilishda, qayrilganda).
4. Nutq tartibi (avval, so'ng, so'ngra, nihoyat, oldin, keyin).

Matn tarkibida qo'llangan atoqli otlarni takror qo'llamaslik uchun ko'rsatish olmoshlaridan foydalaniladi. Bunda atoqli otning gapdagi vazifasiga e'tibor qaratiladi. Masalan, *Boburning — uning, Boburidan — undan kabi*.

Turli zamonga mansub bo'lgan shakllar o'zaro almashib qo'llanishi kuzatiladi. Masalan, *Qani, bolajonlar, yugurdik*. Ushbu gapda "yugurdik" shaklan o'tgan zamonni, mazmunan kelasi zamonni ifodalayapti.

II. Ma'lumot berish — biror narsaning umumiy tafsiloti keltirilgan matn. Bunda matn boshlanmasi narsaning qisqacha ta'rifi va tasnifi bilan boshlanadi. Tuzilish usuli tavsifiy matnga o'xshaydi, ammo tavsiflovchi matnda tasvirlanayotgan obyektни ko'rsatishga harakat qilinsa, ma'lumot matnida esa biror narsa haqida umumiy tavsif beriladi.

Bilim:

- matnga mos reja tuza oladi;
- gapning ma'nosiga ko'ra *ot kesimlarni* shakllantira oladi;
- *atama, terminlar* izohini farqlay oladi;
- sonning ma'no turlarini tushungan holda nutqida farqlab qo'llay oladi;
- *o'tgan, hozirgi va kelasi zamon* qo'shimchalarini ma'nosiga ko'ra ishlata oladi;
- *va, hamda, bilan* bog'lovchilarini qo'llay oladi;
- *ko'rsatish olmoshlaridan* o'rinli foydalana oladi;
- muayyan narsalarni *bo'lsa, esa* so'zlari orqali qiyoslay oladi.

Ko'nikma:

- aniq ifodalangan infografika haqida ma'lumot bera oladi;
- muayyan narsaning tur, sinf, belgilariga ko'ra tasniflay oladi;
- taqdim etilgan biror chizma, jadval haqida ma'lumot bera oladi.

Malaka: ma'lumot berilayotgan obyektни aniqlagan holda unga mos til birliklaridan foydalalanib hisobot bera oladi. Aniq ifodalar bilan fikrini izchil bayon eta oladi.

Qoidalar tizimi
Reja matn mavzusiga mos tuziladi. U asosida fikr tariblab bayon etiladi.
Rejadan so'ng ikki nuqta qo'yiladi. Reja moddalari tartib sonlar bilan boshlansa gap oxiriga nuqta (so'roq gaplarda so'roq) qo'yiladi.
Biror narsa haqida ma'lumot berishda umumiy mazmun qamrab olinadi. Masalan, qushlar haqida ma'lumot berganda, <i>uning kelib chiqishi, tuzilishi, turlari, ovqatlanishi, yashash tarzi va o'ziga xos xususiyati aytilishi</i> lozim.
Bir turdagi ma'lumotni ketma-ket ifodalashda <i>va, hamda, bilan</i> bog'lovchilaridan foydalaniladi.
Ba'zan matndagi ma'lumotlar o'zaro qiyoslab, taqqoslanganda <i>bo'lsa, esa</i> so'zlari qo'llanadi.

III. Tushuntirish (izohlash) — muayyan bir voqelikni nima uchun sodir bo'layotganini tushuntirish hamda biror narsani qanday qilish haqida ma'lumot berish.

Bilim:

- matndagi *gaplar chegarasini* aniqlay oladi;
- matndagi *xatboshilar bir-biriga mazmunan bog'liqligini* tushuna oladi;
- *ravishlarning ma'no turlarini* tushungan holda nutqida farqlab qo'llay oladi;
- *birinchidan, ikkinchidan* kabi tartibni bildiruvchi modal so'zlardan foydalana oladi;
- madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga atab qo'yilgan nomlarni ifodalashda *qo'shtirnoqdan o'rinli* foydalana oladi;
- *qiyoslash-chog'ishtiruv* bog'lovchilaridan foydalana oladi;

6-sinf o'quvchilariga matn tuzilishini o'rgatish

- nutqini bayon qilishda *tasdiq va inkor* gaplardan foydalana oladi.
- *turdosh otlarni olmoshlar* bilan almashtirib qo'llay oladi;
- harakat va holatni ifodalashda *ot kesimdan* foydalana oladi;
- nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, *zamon shakllaridan* foydalana oladi;
- *egallik va shaxs-son* qo'shimchalarini farqlay oladi;
- fikrini ifodalashda *dalil va isbotlar* keltira oladi;
- nutqini ifodalashda *diagramma, rasmlardan* misol keltira oladi.

Ko'nikma:

- muayyan bir harakat yoki holatni anglagan holda yo'nalish bera oladi;
- tanish voqelik yuzasidan munosabat bildiradi;
- biror-bir vaziyatni bosqichma-bosqich tushuntirib bera oladi.

Malaka: tanish bo'lgan vaziyatni tushungan holda suhbatdoshiga undagi harakat va holatlarni ketma-ket ifodalab bera oladi.

Qoidalar tizimi
Reja moddolari asosida matndagi kichik mavzular chegarasi aniqlanadi.
Gaplar chegarasini ifodalashda tinish belgilaridan foydalaniladi.
Biror bir vaziyatni qilishga bosqichma-bosqich undashda buyruq gaplardan foydalaniladi.
Matn tarkibidagi bir nechta mustaqil sintaktik birlik (abzaslar) bir-biriga mazmunan bog'lanadi.
Biror vaziyatni izohlashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: 1. Vaziyatni yuzaga kelish sababi. 2. Qanday sodir bo'lgani. 3. Muallif munosabati.

Hikoya matni tuzilishiga oid o'quvchilar egallaydigan BKM lar:

1. To'qima voqelik yaratish — muayyan bir voqelikni to'qimalar asosida qayta hikoya qilish hamda sodir bo'lgan voqealarni ijodiy fikrlagan holda bo'yoqdor qilib ifodalash.

Bilim:

- matnga mos *sarlavha* tanlay oladi;
- matnga mos epigraf tanlay oladi;
- nutqida *ko'chirma va o'zlashtirma gaplardan* foydalana oladi;
- *sinonim, antonim, omonim va ko'chma ma'noli so'zlarni* kontekstual ma'nosiga ko'ra qo'llay oladi;
- matnni boyitishda *ajratilgan bo'laklar, uyushiq bo'laklarni* ma'nosiga ko'ra keltira oladi;
- matnni ta'sirchanligini oshirishda *tasviriy ifoda* hamda *frazeologik birliklardan* o'rinli foydalana oladi;
- *undov va modal so'zlarni* ma'nosiga ko'ra farqlab, nutqida qo'llay oladi;
- fikrini ifodalashda *zamon shakllaridan* o'rinli foydalana oladi;
- *edi, ekan, emish* so'zlari orqali voqelikni ifodalay oladi.

Ko'nikma:

- biror buyum, harakat yoki holatni tasavvurlari asosida boyitib bayon qila oladi;
- biror voqelikni xayoliy uydurmalar asosida qayta hikoya qilib bera oladi;
- real bo'lmagan harakatlarni mantiqiy bog'lab, hikoya qila oladi.

Malaka: suhbatdoshini hayron qoldirish, qiziqtirish maqsadida biror voqelikni to'qimalar asosida qayta bayon qila oladi. Berilgan vaziyat yuzasidan ijodiy fikrlab matn yoza oladi.

Qoidalar tizimi
Matn mazmunini ochishga qaratilgan, uni nomlab kelgan birlik — <i>sarlavha</i> deyiladi.
Sarlavhalar so'z, so'z birikmasi yoki gaplar bilan ifodalanadi.

Sarlavhalar so'roq, darak gap ko'rinishida bo'ladi.
Sarlavhalar mavzu so'zidan keyin kelsa, qo'shtirnoqda beriladi.
Hikoya matnlari o'tgan zamonda ifodalanadi. Bunda o'tgan zamon qo'shimchasi hamda <i>edi, ekan emish</i> so'zlaridan foydalaniladi.

II. Real voqealarni ketma-ket hikoya qilish — ko'zi bilan ko'rgan, guvohi bo'lgan voqelikni ayta olish hamda o'tmishda sodir bo'lgan muayyan harakat va holatni hikoya qilish.

Bilim:

- matn mazmuniga mos sitatalarni kirita oladi;
- *zamon qo'shimchalarni* matn mazmuniga ko'ra almashtirib qo'llay oladi;
- *ko'chira va o'zlashtirma gap* mazmuniga mos *tinish belgilarini* qo'llay oladi;
- *bo'lishli va bo'lishsiz fe'llardan* foydalana oladi;
- *tartib son* va ularning imlosini tushuna oladi;
- fikrini ifodalashda *-man, -san, -dir* bog'lamalaridan o'rinli foydalana oladi.

Ko'nikma:

- real voqelikni qayta hikoya qilib bera oladi;
- o'tmishda sodir bo'lgan harakat va holatni aytib bera oladi;
- o'z tarjimayi holini yoza oladi.

Malaka: ko'zi bilan ko'rgan, guvohi bo'lgan voqelikni hikoya qilib bera oladi.

O'tmishda sodir bo'lgan muayyan harakat va holatni o'z nutqida ifodalab bera oladi.

Qoidalar tizimi
Epigraf asosiy matndan oldin, o'ng burchakda qo'shtirnoq ichida beriladi. Epigraf qilib olingan birlik manbasi qavs ichida beriladi.
Epigraf matn mazmuniga olib kiruvchi birlik bo'lib, mantiqan matn mazmuni bilan bog'liq bo'ladi.

Muhokama matni tuzilishiga oid o'quvchilar egallaydigan BKMLar:

I. Tahliliy bayon qilish — o'rtaga tashlangan muammo(matn sarlavhasida namoyon bo'ladi) ni izohlash, uni qayta hikoyalash. Muammo o'zi nima, unga oid qanday qarashlar mavjudligini tahlilga tortish.

Bilim:

- matnning tarkibiy *qismi (kirish qismi)*ni tuza oladi;
- nutqida *tasdiq va inkor gaplardan* foydalana oladi;
- *atama va terminlarning* ma'nosini tushungan holda izoh keltira oladi.
- *menimcha, bilamizki, aytishlaricha* kabi kirish so'zlarni o'rinli qo'llay oladi;
- *sabab-natija bog'lovchilaridan* foydalana oladi;
- *ko'chirma va o'zlashtirma* gaplarni farqlab qo'llay oladi.

Ko'nikma:

- muammo nima ekanini aniqlab, izohlay oladi;
- bildirilgan fikr va mulohazalarni o'z qarashlari orqali asosli tahlil qila oladi;
- bildirilayotgan harakat va holatni tahlil qilishda tajriba va tadqiqotlarga tayana oladi.

Malaka: muayyan fikr va mulohazalarni izohlay oladi. Ularni tahlil qilishda tajriba va tadqiqot manbalariga tayangan holda asoslashga harakat qiladi.

Qoidalar tizimi
Matnlar kirish qismdan boshlanadi.
Kirish qism bir yoki bir necha gapdan iborat bo'lib, matn mazmuniga olib kiradi.
Kirish qismni ifodalashda <i>menimcha, bilamizki, aytishlaricha</i> kabi kirish so'zlardan foydalaniladi.
Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni ifodalashda qo'shtirnoqdan foydalaniladi.

6-sinf o'quvchilariga matn tuzilishini o'rgatish

II. Masalaning turli tomonlari haqida fikr bildirish — muayyan muammoni tahlil qilishda argumentlar, hayotiy vaziyatlar, asosli fikrlar keltirish va bu orqali muammoning yechimini har tomonlama izohlash.

Bilim:

- matnning *tarkibiy qismi (asosiy qismi)*ni tuza oladi;
- *bo'lsa, esa* so'zlari hamda *-sa* shart mayli qo'shimchasini farqlab qo'llay oladi;
- *olmashning ma'no turlarini* tushungan holda farqlay oladi;
- *modal so'zlarni* ma'nosiga ko'ra farqlab, o'rinli qo'llay oladi;
- fikrini ifodalashda *fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shakllaridan* foydalana oladi;
- nutqida *darak, so'roq va buyruq gaplarni* tushungan holda tinish belgilarini qo'llay oladi;
- fikrini ifodalashda *masalan, xo'sh* kabi *so'z-gaplardan* foydalana oladi.

Ko'nikma:

- qo'yilgan masalaning muammosini aniqlay oladi;
- muammoni ikki tomonlama ko'rib chiqib, fikr bildiradi;
- yoqlaydigan va yoqlamaydigan tomonlarini yoritadi;
- fikrini asoslashda argumentlardan o'rinli foydalana oladi.

Malaka: bildirilgan fikr va mulohazalarni asoslab, o'z qarashlarini yoritib bera oladi. Keltirilgan masalaga atroflicha munosabat bildiradi.

Qoidalar tizimi
Asosiy qismda mavzuning turli tomonlari tahlilga tortiladi. Tahlil jarayonida mavzuga mos argumentlar bilan ishlash maqsadga muvofiq.
<i>bo'lsa, esa</i> so'zlari hamda <i>-sa shart mayli</i> qo'shimchasi mazmun jihatdan farqlanadi. Biror narsani o'zaro qiyoslaganda <i>bo'lsa, esa</i> so'zlaridan, fikrdagi shartlilik ma'nosini ifodalashda <i>-sa shart mayli</i> dan foydalaniladi.
Fikrdagi inkor ma'nosi <i>-ma bo'lishsiz</i> fe'li hamda <i>na,...na inkor</i> bog'lovchisi yordamida ifodalanadi.

II. Voqealardan xulosa chiqarish — muammoning turli tomonlarini taqqoslagan holda, asoslangan fikr-mulohazalar asosida xulosa berish.

Bilim:

- matnning tarkibiy qismi (xulosa qismi)ni tuza oladi;
- nutqida *o'tgan, kelasi va hozirgi zamon* qo'shimchalarini ma'nosini farqlagan holda qo'llay oladi;
- *uyushiq bo'laklardan* o'rinli foydalana oladi;
- fikrini ifodalashda *ajratilgan bo'laklardan* foydalana oladi;
- muammo yuzasidan *yechim va takliflarni* bayon qila oladi;
- fikrlashga undashda *so'roq yuklamalarini* qo'llay oladi;
- fikrni xulosalashda *modal so'zlardan* foydalana oladi.

Ko'nikma:

- bildirilgan fikr va mulohazalarni o'zaro qiyoslab xulosa chiqara oladi;
- o'z qarashlari asosida xulosa chiqara oladi.

Malaka: asoslangan fikr va mulohazalar asosida o'z qarashlarini bayon eta oladi. Bildirilgan munosabatlar asosida xulosa chiqara oladi.

Qoidalar tizimi
Matnning xulosa qismida asosiy qismda yoritilgan mulohazalar o'z qarashlari asosida bayon qilinadi.
Matnning xulosa qismi <i>o'tgan, kelasi va hozirgi zamonda</i> ifodalanadi.
Fikrlar gapda uyushiq va ajratilgan bo'laklar bilan kengaytiriladi.

Xulosa

Mazkur tasnif matn turlari asosida matn strukturasini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shu asosda ishlab chiqilgan mashq va topshiriqlar tizimi orqali o'quvchilarda matn tuzishga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishga xizmat qiladi. Tasniflashda yuqorida qayd etilgan matn turlari bo'yicha barcha tasniflar izohlangan holda, darslikka kiritilgan hamda o'quvchilar kundalik hayotda foydalanayotgan matn turlari va ularni kichik guruhlar misolida sharhlashga alohida urg'u berilgan. Zero, o'quvchilarni kommunikativ yondashuvga asoslangan darsliklar asosida nutqiy vaziyatlar orqali o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ifodalashga o'rgatishni maqsad qilgan ekanmiz, ushbu bilim, ko'nikma va malakalar tasnifi asosida qo'shimcha o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishiga zarurat seziladi.

Adabiyotlar

Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi. — 224 b.

Cristina Cadavid. 2003. *Teaching English in Primary School through a Spiral Thematic Curriculum*. Ikala, revista de lenguaje y cultura.

Mavlonova K. va b. 2021. *Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari)*. Metodik qo'llanma. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi. — 154 b.

Mavlonova, K. 2023. *Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi*. Monografiya. — Toshkent: Anorbooks. — 264 b.

Shejbalova, D. 2006. *Methods and approaches in vocabulary teaching and their influence on students' acquisition* — Chexoslovakiya.

Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. 2019. *Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi*. — Toshkent: Fan va texnologiyalar. — 157 b.

Зиёдова, Т.У. 2008. *Матн яратиш технологияси*. Монография. — Тошкент: Фан. — 160 б.
<https://oriftolib.uz/>

https://www.academia.edu/29926452/13_Basic_Types_of_Texts_in_English_Full_pdf

<https://www.researchgate.net/profile/Klaraxon-Mavlonova>

Abstract

It is important to form creative thinking and the structure of thinking of students, teaching them to observe, understand, compare, analyze and synthesize events. In this process, the using of a communicative approach has been proven to be effective in developing students' writing skills and introducing the knowledge of oral and written language. Using the communicative approach in the process of writing text increases the interest and motivation of pupils.

In a real speech, this helps the pupils to develop the ability to express and where to use speech situations that they have perceived, known and encountered throughout their lives.

Formation of four language skills by teaching text structure for 6th grade pupils during the lesson, recommendations such as teaching knowledge of text structure by text types have been developed. Taking into account the didactic possibilities of teaching text structure in native language classes, the knowledge, skills and competencies that must be imparted in relation to text structure, it has been established that teaching by classification is an effective teaching method.

Key words: *text structure, knowledge, skill, qualification, rule, classification, descriptive text, narrative text, discussion text, structure.*

References

Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. 2022. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi. — 224 b.

Cristina Cadavid. 2003. *Teaching English in Primary School through a Spiral Thematic Curriculum*. Ikala, revista de lenguaje y cultura.

Mavlonova K. va b. 2021. *Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari)*. Metodik qo'llanma. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi. — 154 b.

Mavlonova, K. 2023. *Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi*. Monografiya. — Toshkent: Anorbooks. — 264 b.

Shejbalova, D. 2006. *Methods and approaches in vocabulary teaching and their influence on students' acquisition* — Chexoslavakiya.

Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. 2019. *Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi*. — Toshkent: Fan va texnologiyalar. — 157 b.

Зиёдова, Т.У. 2008. *Матн яратиш технологияси*. Монография. — Тошкент: Фан. — 160 б.
<https://oriftoilib.uz/>

https://www.academia.edu/29926452/13_Basic_Types_of_Texts_in_English_Full_pdf

<https://www.researchgate.net/profile/Klaraxon-Mavlonova>

¹ Bakhtiyorova Khusnora Muzaffar qizi, teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: husnorabaxt4998@gmail.com

ORCID:

For citation: Bakhtiyorova, Kh. 2024. "Teaching text structure for 6th grade students". Uzbekistan: language and culture. 4[1]: 59—66.

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**ALISHER NAVOIY VA XOJANING ISKANDAR ZULQARNAYN HAQIDAGI
HIKoyATLARI TAHLILI**Dilafruz Nazarova¹**Annotatsiya**

Ma'lumki, mumtoz adabiyotning ko'plab namunalarida uchraydigan qahramonlar bor. Har bir ijodkor bu qahramonlarga o'zgacha yondashadi. O'z asarlarida o'ziga xos tasvirlaydi. Shunday qahramonlardan biri Iskandar Zulqarnayndir. Jahon adabiyoti namunalari qahramoni sifatida ham talqin qilinuvchi bu timsolda o'zbek mumtoz adabiyotida ham katta e'tibor berilgan.

Ushbu maqolada umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan Xoja ijodini o'rganishda, o'zidan oldingi ijodkorlar an'anasini qay tarzda davom ettirganligi tahlil qilinadi. Unda Xoja davriga qadar yaratilgan turkiy manbalarda uchrovchi Iskandar haqidagi qaydlar, Alisher Navoiy va Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning asarlaridagi Iskandar Zulqarnayn obrazi qatnashgan hikoyatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratildi. Iskandar Zulqarnayn obrazining Navoiy va Xoja ijodida qay jihatdan olinganligi va tahlilga tortilganligi baholanadi.

Kalit so'zlar: *Iskandar Zulqarnayn, shoh, insonparvar, adolat, to'g'rilik, nafs, himmat.*

Kirish

Har bir adibning hayot yo'lini o'rganish uning ijodi bilan boshlanadi. Maktab ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish, badiiy asardan estetik zavq olish ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy jihatdan yuksak asarlarni taniydigan, tushunadigan o'quvchi-kitobxonlarni tarbiyalashdir. Shu sababli, darslikdagi ma'lumotlarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'zlashtirishga odatlangani ma'qul. Buni izchil davom ettirsak, har safar o'quvchilar, talabalar o'qituvchimiz bizga darslikdan tashqari qanday qiziqarli ma'lumot berar ekan deb kutadilar.

Metodist olimlarimiz ijodkorlarning tarjimai holini ikki sababga ko'ra o'rganilishini qayd etadilar:

1. Tarjimai hol o'rganiladigan badiiy asarni tushunishga kalit bo'lishi;

2. Millatning eng yetuk farzandlaridan hisoblanmish adiblar hayotidagi namuna bo'lgulik jihatlari orqali o'quvchilar ma'naviyatida muayyan sifatlar shakllantirilishi mumkinligi [Yo'ldoshev, Madayev, Abdurazzoqov 1994, 41] ni qayd etadilar.

Xoja ijodida mardlik, adolatparvarlik, halollik, vatanparvarlik, fidoyilik kabi bir qancha fazilatlar tarbiyalanuvchilarning qalbidan muqim joy olishi kerak bo'lgan ma'naviy sifatlardir. Amaldagi dasturga ko'ra Xoja ijodi 9-sinfda o'qitiladi. Darslikdagi ma'lumotlarni kengaytirib, uch bosqichda o'rgatish mumkin: a) adib hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni xronologik yo'sinda bayon etish; b) asarlariga asoslanib shoir ijodini o'rganish; d) turli adabiyotlar, vaqtli matbuot materiallari asosida ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish. O'quvchilar qaysi birini tanlagan holda ham Xoja haqida imkon qadar batafsil ma'lumotga ega bo'lishadi. Biz ham bu ma'lumotlarni to'ldirish uchun Xoja va Navoiy ijodida alohida o'rin tutgan Iskandar Zulqarnayn obraziga murojaat qildik.

XV—XVI asrlarda yashab ijod etgan Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja) asarlari bugungi kun adabiyotining eng qimmatli asarlaridan biri. Uning "Miftoh ul-adl"

¹ Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.

E-pochta: ndilafruz476@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2387-9997

Iqtibos uchun: Nazarova D. 2024. "Alisher Navoiy va Xojaning Iskandar Zulqarnayn haqidagi hikoyatlari tahlili" O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 67—74.

hamda “Gulzor” asarlarida muqaddas kitoblarda nomlari zikr etilgan Xizr, Luqmoni Hakim, Sulaymon, Iskandar Zulqarnayn kabi bir qator obrazlar keltirilgan. Mana shu obrazlardan biri boʻlgan Iskandar Zulqarnayn obraziga eʼtiborimizni qaratmoqchimiz. Oʻzbek mumtoz adabiyotida Iskandar Zulqarnayn nomi koʻplab ijodkorlarimiz ijodida uchraydi. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu biligʻ”, Nosiruddin Rabbʻuziyning “Qisasi Rabbʻuziy”, Alisher Navoiy asarlarida Iskandar Zulqarnayn nomi tilga olingan.

Asosiy qism

Zulqarnayn nomi Qurʼoni Karimning “Kahf” surasida ham zikr etilgan boʻlib, unda “83. (Ey Muhammad), yana sizdan Zulqarnayn haqida soʻraydilar. Ayting: «Endi men sizlarga u haqdagi xabarni tilovat qilurman». 84. Darhaqiqat, Biz unga (Zulqarnaynga) bu Yerdagi saltanat — hukmronlik berdik va (koʻzlagan) barcha narsasiga yoʻl-imkoniyat ato etdik. 85. Bas, u (avval Gʻarbgʻa qarab) yoʻl oldi. 86. To (ketayotib) kun botadigan joydankun chiqishga....”[Qurʼoni Karim 1992, 168], Ollohning Zulqarnaynga bergan hukmronlik (kun botadigan joydan, kun chiqishgacha), barcha narsaga yoʻl-imkoniyat ato etishi, Yaʼjuj va Maʼjujlarga qarshi kurashishi haqidagi oyatlar keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniy oʻzining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Zulqarnayn laqabini olgan podshohning (kimligini) aniqlashda turli millatlarning ixtiloflari ustida soʻz” bobi-da Zulqarnayn toʻgʻrisida Qurʼoni Karim oyatlaridagi maʼlumotlarni keltirishdan boshlaydi. Jumladan, “Zulqarnayn solih va quvvatli kishi boʻlgan. Xudo unga ulugʻ podshohlik va qudrat berib, uni kun chiqish va kun botish tomonlardagi shaharlarni fath etish, mamlakatlarga ega boʻlish, xalqlarni boʻysundirish va yer yuzi podshohligini bir qoʻlga yigʻish maqsadlariga yetkazgan. Xudo unga shimolda zulmat podshohligiga qadam qoʻyish, xalqlar yashaydigan joylarning eng uzoq yerlarigacha borib koʻrish, odamlar va “nasnoslar” bilan jang qilish, yerning kun chiqish va shimol tomonlarida Yaʼjuj va Maʼjujning oʻz joylariga yaqin mamlakatlarga chiqishlariga toʻsqinlik qilib, hujumlarini qaytarish va va zararlarni daf qilish...”[Beruniy 1968, 73] qismatini bitgan. Zulmat podshohligi va “nasnoslar”(yarim odam-yarim maymun shaklidagi maxluq) bilan jang qilishi Qurʼoni Karimning “Kahf” surasida zikr etilmagan. Soʻngra Beruniy birdaniga Yunonlik Iskandar Filipp haqida maʼlumot berishga oʻtib ketadi: Iskandar bir qancha mulklarga boʻlingan Rum podshohligini qoʻlga olishi, al-Magʻrib tomondagi podshohlarga qarshi yurish qilishi, ularni zabt etishi, yana oldinga bosib, Koʻk dengiz (Atlantika okeani)gacha boʻlgan hududlarga yetib borishi, Misrga qaytib, Iskandariya shahrini bino etishi, soʻngra Shom, Armaniston va Bob al-Abvob (Darvozalar darvozasi. Dogʻistonning Darband shahri yaqinidagi dara), Eron, Hindiston, Xitoy, Xuroson kabi mamlakatlarni egallab, shaharlar bino qilishi, undan Iroqqa qaytishi hamda Shahrizurda kasal boʻlib shu yerda vafot etishi haqidagi fikrlarni bayon etadi. “U barcha maqsadlarini amalga oshirishda ilm va hikmatga asoslanib, oʻz muallimi Arastu maslahati bilan ish qilar edi. Shu aytilganlar sababli u Zulqarnayndir, deyдилar. Baʼzilar Iskandar quyoshning ikki “shohiga”, yaʼni kun chiqish va kun botish tomonlariga borgani sababli bu laqabni oldi deb izohlagan. Boshqalar Iskandar ikki nasldan, yaʼni Rum va Eronlikdan tugʻilgani uchun bu laqabni oldi deb tavsif etadi.”[Beruniy 1968, 74]

Beruniy bergan maʼlumotlardan shuni bilish mumkinki, Iskandarning Zulqarnayn laqabini olishiga uch xil sabab bor:

1. U barcha maqsadlarini amalga oshirishda ilm va hikmatga asoslanib, oʻz muallimi Arastu maslahati bilan ish qilar edi. Shu sababli u Zulqarnayndir;
2. Uning kun chiqish va kun botish tomonlariga borgani sababli;
3. Iskandar ikki nasldan, yaʼni Rum va Eronlikdan tugʻilgani uchun.

Abu Rayhon Beruniy Iskandar ikki nasldan, yaʼni Rum va Eronlikdan tugʻilgani uchun bu laqabni oldi deb tavsif etib, bu haqda eronliklarning “bir dushmanning oʻz dushmaniga qilgan ishi” degan mana shu uydirma hikoyatlariga asoslandilar deb, hikoyatni keltiradi. Unga koʻra Katta Doro Iskandarning onasiga uylangan boʻlib, u Filippning qizi boʻlgan. Doro u qizdan yomon bir hid sezib, uni otasiga qaytargan. Qiz Dorodan homilador boʻlgan ekan, Iskandarni Filipp tarbiyalagan. Shuning uchun u Iskandar ibn Filipp deb nasablangan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa "O'zg'urmish O'gdulmishga bu dunyodin yuz o'girib, u dunyoga moyil bo'lmoqlikni aytadi" bobida insonning bu dunyoga ko'ngil qo'y-masligi, nafsini jilovlay olishi, bu dunyoda hech kim abadiy emasligini uqtirar ekan, tarixga murojaat etib, Namrud, Fir'avn, Qorun, Zulqarnayn, Muso, Sulaymon, Iso Masih, Muhammad (s.a.v) kabi an'anaviy obrazlarga ishora qilish orqali mana shunday insonlar bu dunyoda abadiy yashab qolmadi, yoki boyliklarini olib ketolmadi, shulardan xulosa chiqarish lozimligini aytadi:

Қаны ул Туғардын Батарға тэги

Йурыб эл тутуғлы бу дунйа йэги [Yusuf Xos Hojib 1972, 702].

(Qani u kun chiqardan kun botarga qadar kezib, ellarni olgan bu dunyo yaxshisi Zulqarnayn).

Yana shu asarning 939-sahifasida "Yigitlikka achinib, qarilik haqida aytadi" bobida ham Iskandar obraziga murojaat etib, uning butun olamni qo'lga kiritganiga ishora qiladi.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida esa alohida Zulqarnayn qissasi berilgan. Asarda berilishicha, Zulqarnayn Iskandariya elidan bo'lgani uchun, u joyning Iskandariya deb atalganini, Zulqarnayn nomini olishiga sabablardan biri yerning ikki "qarn"iga ya'ni mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan hududga qadami yetgani uchun bo'lsa, yana biri "qarn" arab tilida "muynuz" (shox) ma'nosini ifodalab, Zulqarnaynning ikki oltin shoxi borligi sababli va yana biri ikki qarn (ikki asr) yashaganligi haqida ma'lumotlar berilgan [Rabg'uziy 1991, 88-95]. Iskandarning payg'ambar yoki shoh ekanligi borasida tortishuv borligini aytib, nabiy deydiganlar Qur'oni karimning "Kahf" surasidagi "Qulnaa ya zal-qarnayn" oyatini isbot sifatida keltirishini aytadi. "Qisasi Rabg'uziy" asarida keltirilgan Iskandarning dunyoni kezib, shaharlar bunyod etib, ko'p manzillarni obod etgani, Ya'juj va Ma'jujlarga qarshi kurashgani, obi-hayot suvini izlab yo'lga chiqqani shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining XI-XV boblarida Iskandar Zulqarnayn haqida, uning nasabi haqida ma'lumot berib o'tadi [Navoiy 2013, 68-87]. "Tarixi muluki Ajam" asarida esa "Iskandar nasabida ixtilof ko'ptur. Ba'zi ani Dorob o'g'li debdurlar, andoqki Dorob zikrida o'tti. Va banokatiyda va "Devon un-nasab" kitobidin mundoq naql qilibdurkim, Iskandar Xurmus Rumiyo o'g'lidurkim, Xurmus otasi Lafti binni Yunon binni Torax binni Yofas binni Nuhdir. Va aning umrini ming olti yuz yil debdurlar va Zulqarnaynkim, aning laqabidur, vajhi tasmiyasini mundoq debdurlarkim, ul zamonda ming yilni bir qarn der ermishlar..." [Navoiy 2013, 615] degan ma'lumotni beradi. Iskandar Zulqarnayn obrazining badiiy adabiyotga kirib kelish genezisini I. Ismoilov o'z tadqiqotida batafsil o'rgangan [Ismoilov 2022, 139]. Shu bois bunga to'xtalib o'tishni lozim topmadik.

Alisher Navoiy Iskandar Zulqarnayn obrazidan shoh, hukmdor sifatida unumli foydalangan. Navoiy bu obrazni qanday talqin etganligini bilish uchun Navoiyning ideal shoh qanday bo'lishi lozimligi haqidagi qarashlarini yaxshi bilib olish zarur. Navoiyning fikricha, kishiga shohlik Ollohning qudrati, himmati va hikmatidan berilur. O'z navbatida shohga, hukmdorga bir nechta vazifa yuklatiladi. Shukr qilish, xalqparvar bo'lish, adolatli bo'lish. Bu borada I. Ismoilov Navoiyning ideal shohga oid konsepsiyasini aniqlab, mazkur konsepsiyaning prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Olloh tomonidan ko'ngliga ogohlik solinishi;
2. Dunyo va insonning foniy ekanligini bilish;
3. Jahon hashamatini ko'zga ilmaslik;
4. Haq amridan boshqa amal qilmaslik;
5. Mulk-u johni adolat uchungina istash;
6. Jabr-u sitamni yo'q qilish uchungina sipoh tortish;
7. Barcha ishni tangri rizosi uchun qilish;
8. Faqrjo'y bo'lish;
9. Darvishxo'y bo'lish [Ismoilov 2020, 52].

Navoiy Iskandar jahongirlikining mohiyatini ana shu prinsiplarda ko'rsatadi. Masalan, Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining "Himmat humoyining balandparvozlig'i ta'rifida" nomli bobida himmat to'g'risida so'z yuritib, xulosa sifatida "Iskandar va gado" hikoyatini kel-

tiradi. Hikoyatda Iskandar Mag'rib diyoriga yurish qiladi. Jangda Mag'rib podshohi vafot etadi. Mag'rib diyori fath etilgach, oldingi shoh o'rniga bir adolatli, raiyatparvar kishini shoh qilmoqchi bo'lib, xalqqa murojaat qiladi.

Ular:

"Ki: "Ofoq aro sarfarozi o'lg'asen,

Hamisha raiyatnavoz o'lg'asen.

Bu yanglig' kishikim qilursen so'rog',

Ki, andin raiyatqa yetgay farog'...

Tiriklar arosig' qilmas ubur,

Matofi emas g'ayri — eski qubur.

Hamano tiriklarda ko'rmay vafo,

Qubur ahliga aylamish iktifo..." — deb javob beradilar.

Iskandar bu so'zni eshitib, uni topib kelishini buyuradi. Topib Iskandar oldiga u kishini olib keladi.

Yalang erdi boshi, oyog'i yalang,

Yaqo chokidin ko'ksi dog'i yalang.

Jahon shug'li gardiga silkib etak,

Tutib ikki ilgiga ikki so'ngak (93).

Iskandar uni ehtirom bilan kutib oladi. So'ngra Iskandar nega bunday yurganini so'raydi. U qabristonni kezib yurib, bu suyaklarning qaysi biri shohniki, qaysi biri gadoniki bilmasman, ikkisi ham bir. Nega tirikligida ular men shoh, sen gado deb nizo qiladi? Iskandar uni shoh qilmoqchiligini aytganda, u: menga to'rt narsani bera olsang, taklifingni qabul qilaman deydi. 1. Shunday boylik bergilki, oxirida faqrlik bo'lmasin; 2. Shunday tiriklik bergilki, oxirida o'lim bo'lmasin; 3. Abadiy boylik bergilki, oxirida faqirlik bo'lmasin; 4. Shunday shodlik bergilki, oxirida g'amginlik bo'lmasin. Iskandar esa:

Ki, bu dayr aro topsang ogohliq,

Sanga faqr berdi, manga shohliq.

Agarchi meni ayladi arjumand,

Sanga berdi himmatni mendin baland.

Gadoyeki bo'lg'ay biyik himmati,

Anga past erur shohlig' rif'ati.

Chu himmat baland o'ldi ersa faqir,

Ko'ziga erur asr shohi faqir — deb, javob beradi [Navoiy 2013, 91-94].

Xoja ham bu obrazdan adolatli shoh sifatida o'rinli foydalandi. Xuddi shu hikoyat Xojada ham uchraydi. Faqat Navoiy talqinidan o'zgacharoq. Xoja "Iskandar Zulqarnayn va darvesh shahzoda" hikoyatini shunday keltiriladi: "Ayturlarkim, Iskandar Zulqarnayn bir viloyatg'a yetishdi va ayttikim, bu viloyatning hokimini olib kelinglar, bu viloyatni unga berib, uni tarbiya qilayin. U viloyatning aholisi ayttirarki, bu viloyatning bir shahzodasi bordir. U kishi tarki dunyo qilib, qabristonda yashaydi. Iskandar uni keltirishini so'raydi. Lekin u shoh bo'lishni istamasligini, ya'ni "Xalqi olamni kelur yeri chu go'riston erur, Aning uchun ganji go'ristonni aylabman maqom" deb bormaydi. Iskandar uni olib kelish uchun ikkinchi marta odam yuboradi. Bu safar u qo'lida ikki marhumning suyagini olib keladi va Iskandarning oldiga qo'yadi, deydi: — Bu suyaklarning qaysi biri shohning suyagi, qaysi biri gadoniki? Buni farq qila olasanmi? Iskandar bunga javob berish mumkin emasligini aytadi. Devona shahzoda: O'lgandan so'ng podshoh bilan gadoning farqi yo'q ekan, shohlikdan murod, maqsad, foyda ham yo'qligini aytadi. Iskandar unga seni devona derlar, sen juda oqil kishi emishsan, kel, bu mamlakatning podshohligini qabul qilgin, deydi. Shahzoda Iskandarga mening qo'limdan shohlik kelmas deb javob beradi. Iskandar yana shohlikni taklif qilganda, shahzoda menga to'rt narsa bersang, shohlikni qabul qilaman deydi. Iskandar to'rt narsani aytgil, qo'limdan kelsa, berayin. Devona aytdi: Avval bir tiriklik bergilkim, uning so'ngida o'lim bo'lmasin; yana bir yigitlik bergilkim, uning so'ngida qarilik bo'lmasin; yana bir g'aniylik (boylik) bergilkim, uning so'ngida faqirlik bo'lmasin; yana bir shodlik bergilkim, uning so'ngida

g'amginlik bo'lmasin. Iskandar aytdi: Ey devona, bu to'rt narsani men bera olmasman. Uni Haq taoloning o'zi berar. Undan tilagin. Bunga Iskandar javob topmadi [Poshshoxoja 1962, 30-31].

Navoiy Iskandar Zulqarnaynni jahongirliги va adolatli shoh ekanligini birinchi o'ringa qo'yadi. Shu bois, hikoyatda fath etilgan Mag'rib diyoriga adolatli, xalqparvar kishini qo'yishni istaydi. U istagan kishining qabristondan topilishi, qo'lida ikki kishining suyagi bilan kelishi, shoh va gado suyagini ajratolmaslik, to'rt shart kabilarning berilishi ham bejiz emas. Iskandar — solih banda. Dunyoning o'tkinchi ekanligini yaxshi anglagan Iskandar gadoni o'zidan ustun ko'rganligining guvohi bo'lamiz, ya'ni himmati shohlikdan ustun ekanligining isbotini ko'rdik. Xojada esa bu hikoyat aniq manzil ko'rsatilmasdan bir viloyat bilan boshlanishi, shahzodasi bor ekanligi (Navoiyda shahzoda deyilmagan), darvesh shahzoda Iskandar bir chaqirganda kelmay, ikkinchi bor kishi yuborganda kelishi (Navoiyda bir marta chaqiriladi), shahzoda ikkinchi marta chaqirilganidan so'ng, ikki qo'lida ikki kishi suyagi bilan kelishi, suyaklarni Iskandarning oldiga qo'yib qaysi biri shohniki, qaysi biri gadoniki deb so'rashi (Navoiy hikoyatida Iskandardan so'ralmaydi) va boshqalar Navoiy hikoyatidan farqlanadi. Asosiysi, Navoiy himmatni shohlikdan ustun bilsa, Xoja bandasiga har qanday vazifani Olloh beradi. Undan o'tib banda hech narsa qilolmasligini, har narsani faqat Ollohdan so'rash vojib ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida "Iskandar Zulqarnayn va Chin xoqoni" haqida XLVII va XLVIII boblarida quyosh tun zulmatidan chiqib, kun ziyosi qiyomga ko'tarilganidek, Iskandar Zulqarnaynning Hind yerlaridan chiqib, Chin kishvariga kirgani va Chin xoqoni uning quyoshdek harorat bilan jahongirlik tig'i tortib kelayotganini eshitib, zarradek behisob qo'shin to'plagani holda, u bilan murosila qilish uchun elchi yuborib, nomuvofiq javob topgani hamda Xitoy lashkarlari Iskandar qo'shini shukuhidan to'zondek to'zg'ib, beqaror bo'lgani, xoqonning o'zi bu borada tadbir ko'rgani [Navoiy 1978, 145.] ni bayon qilgan. Ya'ni Iskandar Zulqarnayn Hindistonni fath etib, Chin mamlakatiga yetib keladi. Chin xoqoni esa bu omonsiz selning Hindistondan chiqib, yurtiga kelayotganini eshitganidan son-sanoqsiz lashkar to'plashga tushadi, juda ko'p qurol-yarog' tayyorlaydi. Shunga qaramay, Chin xoqoni Iskandar Zulqarnayndan avval dushmanlik ko'rsatmoqchi emas edi. Balki, elchi yuborib, sulh tuzish yo'lini tanlash haqida o'ylayotgan edi. Agar Iskandar sulhga ko'nsa, do'stona muomala qilib, uni qaytarib yubormoqchi edi. Iskandar sulhga ko'nmasa, o'zini kuchsizdek zabun etmasdan, qo'shin tortib, jang qilishga qaror qilgan edi. Dastlab Iskandarni sinash uchun bir aqlli odamni elchi qilib yuborishi, elchining Iskandar huzuriga borishi, Iskandar bilan uchrashishi, unga xoqoni so'zlarini yetkazishi, Iskandarning elchiga javobi, elchining Chin xoqoniga Iskandar Zulqarnaynning gaplarini yetkazgani, Chin xoqoni Iskandarni o'zidan ham kuchli ekanligini fahmlagani, so'ng gaplashish uchun boshqa odan yuborish noo'rin ekanligini bilib, urush qilishga qat'iy, mardona bel bog'lagani to'g'risida ma'lumotlarni beradi. Iskandar esa tong otishi bilan o'zining yulduz kabi behisob askarlariga xitob qilib, jangga kirishga va dushman ustiga to'satdan, tezlik bilan bostirib borib, urushni boshlashga qaror qiladi. Iskandarning bu niyatini fahm etgan hikmat sohiblari undan urush boshlamaslikni, sayyoralar va yulduzlar hozircha xosiyatsizlik alomatini ko'rsatayotganligini, ikki kun urush boshlamay, sabr qilib tursalar, kutilmagan bir yaxshilik nishonasi ro'y berishi mumkinligini, u paytda shohning qo'li baland kelishi, iqboli porlashi, bordi-yu aytganlari bo'lmay qolsa, uchinchi kuni urush boshlasa, dushmanni yer bilan yakson qilishi haqidagi xabarni berishadi. Ikkinchi tomon askarlari orasida vahima tarqalib, qo'rquv kuchlilik qilayotganini xoqonning eng yaqin kishisi eshitib, xilvatga shohni taklif qilib, bu haqida xabar bergani, Chin xoqoni xos kishisiga: "O'rda atrofida, mening chodirim yonida bo'lgan odamlarni uzoqlashtir, bu yaqin orada kimsa qolmasin, o'zing eshik yonidan hech qayoqqa ketma, bugun shoh hech kimni qabul qilmaydi deb jar sol", — degan buyruqni berib, shohlik libosini yechib, elchilarga xos kiyinib, Iskandar huzuriga elchi sifatida boradi. So'ng Iskandar uni elchi sifatida yaxshi kutib oladi va nima uchun kelganini so'raydi. Elchi Xitoy xoni Chin xoqoni menga bir nechta qimmatli so'z aytdiki, uni eshitish sharafiga har kim ham sazovor emasdir. Shuning uchun yoningizda o'tirgan kishilar tarqalsin dedi va faqat Iskandarning o'ziga aytishini, xilvatda suhbatlashishning iloji bo'sa, ya'ni shoh bo'lsa-yu, sir aytguvchining o'zi bo'lsa deyishi, ishonmasa, oyoq-qo'lini chambarchas bog'lashini aytadi. Anjuman-

dagilar elchining oyoq-qo'lini bog'lab, Iskandarning oldiga qilich qo'yib, hammalari chiqib ketadi. So'ngra Iskandar savollariga birin-ketin javob beradi. Ya'ni, aslida Chin xoqoni ekanligini, boshiga nihoyatda og'ir va mushkul ish tushganini, shuning uchun bu holatda kelishga majbur bo'lganini, bunday holatda kelganini hammadan sir tutishini, Iskandarga ishonishini, oqko'ngil, javonmard, oliyhimmat, pahlavon ekanligini e'tirof etib, Chinga taklif qiladi. Agar borishni istamasa, o'zi kelib, uzr aytishini bildiradi. Iskandarning rozi bo'lishi, ota-boladay bir-biriga hurmat ko'rsatishi va boshqa voqealar bayon qilinadi. Chin xoqoni va Iskandar Zulqarnayn orasidagi suhbatda har ikkala shohning donoligi, rostgo'yligi, xalqparvarligi, adolatparvarligi, samimiyligi ochib beriladi. Ayniqsa, rostlik, to'g'rilik, adolat birinchi o'rinda ko'rsatiladi.

Xoja ijodida esa bu voqealarni ikkita hikoyatda ikki xil nom bilan beradi:

1. "Iskandar Zulqarnayn va Mag'rib sultoni" hikoyatida juda ixcham tarzda beradi: Kunlardan bir kun Iskandar Zulqarnayn lashkarlari bilan Mag'rib shahriga kelib tushadi. Kech tushadi, undan so'ng Iskandarning bir navkari kelib, uni tashqarida bir odam kutayotganini, u Mag'rib sultonining elchisi ekanligini, yoniga kirishni so'rayotganini aytadi. Iskandar kirishga ruxsat berganidan so'ng Mag'rib sultoni unga salom berib kiradi. Iskandar elchidan nima uchun kelganligini so'rganida, u kishi Iskandarga odamlariga aytgin, qo'limni bog'lab, yonidagi odamlar chiqib ketishini, yolg'iz qolganida gaplashishini aytadi. Iskandar uning aytganini qilib, ikki qo'lini bog'laydi va odamlarini chiqarib yuboradi. Keyin Iskandar Zulqarnayn elchi emasligini, aslida Mag'rib sultoni ekanligini, xoh o'ldirishini, xoh jonini omon saqlashini Iskandarga qoldirib, u uchun kelganligini aytadi. Iskandar Mag'rib sultonining ikki qo'lini yechib, otga mindirib, to'n kiydirib yuborgani, Mag'rib sultoni Iskandarni lashkarlari bilan maydonga kelishini, kuchi yetguncha to'y berishini bildirganida, Iskandar bu taklifni qabul qilishini, lashkarlari bilan borganida ko'radiki, Mag'rib sultonining askarlari Iskandarning qo'shiniga qaraganda juda ko'p ekanligini, bahodirlikda ham har biri Iskandar askarining yuztasiga teng kelishini, Mag'rib sultoni Iskandarni yaxshi kutib olishini, chodiriga taklif qilishini, ikki kun to'y berishini, ikki kundan so'ng, Iskandar Mag'rib shahridan qaytishga qaror qilganini, qaytish vaqtida Iskandar Mag'rib sultoniga: shuncha ko'p lashkaring bo'la turib, nega jang qilmaganligini so'rganida, Mag'rib sultoni Iskandarga men sening lashkaringdan qo'rqmadim, saodatingdan qo'rqdim deydi. Xulosa sifatida esa, har kimning seningdek saodati bo'lsa, qo'li baland kelur, lashkarining ko'p-ozligiga qaramas deydi. Hikoyatda hudud nomi o'zgargan, Chin xoqoni, Mag'rib sultoniga, voqealar ixchamlashtirilgan, oyat (Oллоhning amri bilan oz lashkar, ko'p lashkardan g'olib kelur), saodatli kishining dushmani bo'lmasi bilan yakunlangan.

2. "Iskandar Zulqarnayn va Chin xoqoni" hikoyatida yuqoridagi voqealarni juda ixcham tarzda beradi. Ya'ni, Chin yurtiga kelgan Iskandarning Chin xoqonidan xiroj talab qilishi, Chin xoqonining lashkarlari Iskandar Zulqarnayn askarlariga qaraganda ancha ko'p bo'lishiga qaramay, urushning oldini olish va qon to'kmaslik uchun Iskandar yoniga xoqonning o'zi elchi bo'lib borishi, uni mehmonga taklif qilishi, mehmonga borgan Iskandarni Chin xoqoni kumush, oltindan yasalgan bo'sh idishlar bilan mehmon qilishi, o'zaro suhbat davomida shohning maqsadi oltin-u kumushlardan iborat ekanligi, bir yillik xirojning yarmini askarlari uchun olib qolishi va boshqalar hikoya qilinadi. Xoja hikoyati qisqa hajmli bo'lishiga qaramay, Chin xoqoni Iskandardek adolatli podshohdan ham ortiq adolatli ekanligini ulug'laydi. Navoiy Iskandar Zulqarnaynni ideal shoh sifatida tasvirlagan bo'lsa, Xoja chin xoqonini ideal podshoh darajasiga ko'taradi. Chin xoqoni o'z manfaati, o'z hayotidan ham xalq manfaatini, yurt tinchligini afzal ko'rishini ochib beradi.

Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar Zulqarnaynning vasiyatini alohida ta'kidlaydi. Sababi butun umri davomida dengiz-u quruqlikni, Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan hududni egalagan, behisob boyliklarga ega bo'lgan shoh vafotidan so'ng, uni so'nggi manzilga kuzatishayotganida, tobutdan bir qo'lini chiqarib qo'yishlarini tayinlaydi. Toki odamlar bunga hayrat va ibrat ko'zi bilan boqsinlarki, bu o'tkinchi, foniyl hayotni hamma tark etishini, ketar paytida o'zi bilan hech narsa olib ketolmasligini, ikki qo'li bo'm-bo'sh qolishini, dunyoga havasni qo'y, ko'ngil bog'lama degan maqsadda yozilgan.

Xoja "Ajoyib shahar" hikoyati Navoiyning mukammal (ideal) jamiyat borasidagi fikrlariga, qarashlariga uyg'un tarzda bayon etiladi. Obrazlarda o'zgarish uchraydi. Elchi navkar obrazi kiritiladi.

Xoja hikoyatida Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga boradi. U yerda suruv-suruv qo'ylar yuribdi-yu, cho'poni yo'qligini, suruv-suruv tuyalar yuribdi-yu, sarboni yo'qligini, suruv-suruv otlar yuribdi-yu, otboqari yo'qligini, qo'ylar, tuyalar, otlar soni bir xilligini, ortiq yo kam emasligini, bog'larida mevalari pishib yotibdi-yu, bog'boni yo'qligini ko'radi. Iskandarning lashkarlari mollardan yo bog'dagi mevalardan yesa, darhol o'lar edi. Iskandar bu holatni ko'rgach, hukm qiladi. Hech kim hech narsaga tegmasin. Bir kishini bu viloyatning shahriga yuboradi. Borib qaraydi, bozorlari shu qadar obodki, do'konlarning egasi yo'q. Haligi kishi yurib-yurib bir kishini uchratib qoladi. Undan do'kon egalari qayerda ekanligini so'raydi. U bir ibodatxonada ekanligini aytadi. Iskandarni boshlab keladi. Iskandar ulardan so'raydi: Bu qanday ajoyib holki, hamma narsalaringiz teng, bunga qanday erishdingiz? U yerning podshohi shunday javob beradi: Bizning oramizda bir kishi muflis bo'lsa, barchamiz jam bo'lib unga mol jam qilib, jamiyatda o'zlarimiz bilan barobar qilamiz. Shu sababli bizning oramizda o'g'ri, avbosh bo'lmas. Iskandar aytadi: Mening bu jahongirlikimdan maqsadim, murodim bu ediki, seni ko'rdim, kel, men bilan birga bo'l. Bu olamning yarmini senga berayin. U podshoh javob berdi: mening hafsalam va tavrim bundan ortiq mamlakatga hokim bo'lsam, zabt etolmayman. Menga bundan ortiq taklif qilmagil. Iskandar buni qabul qiladi. Ko'rinib turibdiki, davlat hukmdori adolatli, insofli bo'lsa, karami keng bo'lsa, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zsa, barchani teng ko'rsa, jahonda muhtaram bo'lishi aniq. Yurti obod, xalqi farovon, hayoti tinch va osoyishtalik hukm suradi.

Xulosa

Navoiy Iskandar Zulqarnayndan shoh, hukmdor ham valiy sifatida foydalangan. Shunday adolatli hukmdor, mag'ribdan mashriqqacha bo'lgan hududga ega bo'lgan shoh dunyo moliga ko'ngil qo'ymaslik kerakligini, himmat bobida yuksak bo'lishi lozimligini uqtirgan bo'lsa, Xoja ham adolatli shoh sifatida e'tirof etadi. Navoiy ham, Xoja ham o'z davri nuqtayi nazaridan yondashgan holda foydalanganlar. Navoiy adolatli hukmdor qanday bo'lishi lozimligini Iskandar Zulqarnayn orqali Husayn Boyqaro va shahzodalarga o'rnak sifatida ko'rsatmoqchi bo'lsa, Xoja esa Shayboniynxon shahzodalarga o'rnak sifatida ko'rsatgan. Har ikkala ijodkorning adolatli hukmdor Olloh tomonidan tayinlanishi borasidagi fikrlari, mukammal jamiyat haqidagi mulohazalari mushtarakdir.

Ta'lim tizimida Xoja ijodini o'rganish katta ta'limiy, ma'rifiy ahamiyatga ega. Bu buyuk insonning shaxslik sifatleri, ijod namunalaridan kelib chiqadigan mohiyat yoshlarimiz uchun namunadir. Uning asarlaridagi hikoyatlari bilan tarbiyalangan yoshlar buyuk kelajakni o'z qo'llari bilan qura olishi muqarrardir.

Adabiyotlar

- Qur'oni Karim. 1992. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. — Toshkent: Cho'lpon.
- Al-Beruniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad. 1968. Asarlar. T.1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan.
- Yusuf Xos Hojib. 1972. Qutadg'u bilig. — Toshkent: Fan.
- Rabg'uziy, Nosiruddin Burxonuddin. 1991. Qisasi Rabg'uziy. /K.2./. — Toshkent: Yozuvchi.
- Alisher Navoiy. 2013. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. — Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Podshoxoja. 1962. "Miftohul-adl" va "Gulzor" dan. Nashrga tayyorlovchilar va so'zboshi mualliflari V.Abdullayev, S.G'aniyeva. — Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1978. Saddi Iskandariy. Nasrga aylantiruvchi Inoyat Maxsumov. — Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Yo'ldoshev Q, Madayev O, Abdurazzoqov A. 1994. Adabiyot o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Ismoilov I. 2022. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni genezisi va poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc)diss.
- Ismoilov I. 2020. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari. Monografiya. — Toshkent: Bayoz.
- Жабборовва М. 2020. Халқ қиссаларида поэтик аңъана ва ўзига хослик. Монография. — Тошкент: Инновация-Зиё.

ANALYSIS OF ALISHER NAVOY'S AND HOJA'S STORIES ABOUT ISKANDAR ZULQARNAYN

Dilafroz Nazarova¹

Abstract

It is known that classic literature found in many samples there are heroes. Every artist approaches heroes differently. They describe it in their works.

One such hero is Alexander Makedonskiy. As a hero of examples of world literature, it is paid a great attention in Uzbek literature also. In this article, Khoja's work is taught in the general secondary and higher education system in learning, the creators before him, how it continued its tradition is analyzed. Then Khoja Iskandar found in Turkic sources created before the era of Alexander, Alisher Navoi and Ibodulla Sayyid Podshahhoja ibn Abdulvahhobhoja (Khoja). Alexander the Great in his works stories in which the character participated focused on comparative analysis. The image of Alexander Makedonskiy, in what ways in the works of Navoi and Khoja received and analyzed is evaluated.

Key words: Alexander the Great, king, humanitarian, justice, righteousness, passion, diligence.

References

- Qur'oni Karim. 1992. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. — Toshkent: Cho'lpon.
- Al-Beruniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad. 1968. Asarlar. T.1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan.
- Yusuf Xos Hojib. 1972. Qutadg'u bilig. — Toshkent: Fan.
- Rabg'uziy, Nosiruddin Burxonuddin. 1991. Qisasi Rabg'uziy. /K.2./. — Toshkent: Yozuvchi.
- Alisher Navoiy. 2013. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. — Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Podshoxoja. 1962. "Miftahul-adl" va "Gulzor" dan. Nashrga tayyorlovchilar va so'z boshi mualliflari V.Abdullayev, S.G'aniyeva. — Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1978. Saddi Iskandariy. Nasrga aylantiruvchi Inoyat Maxsumov. — Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Yo'ldoshev Q, Madayev O, Abdurazzoqov A. 1994. Adabiyot o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Ismoilov I. 2022. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni genezisi va poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc)diss.
- Ismoilov I. 2020. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari. Monografiya. —Toshkent: Bayoz.
- Жабборовва М. 2020. Халқ киссаларида поэтик анъана ва ўзига хослик. Монография. — Тошкент: Инновация-Зиё.

¹ Nazarova Dilafroz Ikhtiyorovna — Senior Teacher Alisher Navoi Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature.

Email: ndilafroz476@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2387-9997.

For citation: Nazarova D. 2024. "Analysis of Alisher Navoy's and Hoja's hikoyat about Iskandar Zulqarnayn" Uzbekistan: language and culture. 4[1]: 67—74.

NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARINING KOMPOZITSIYASI

Azamat Xayrullayev¹**Annotatsiya**

Hikoyalar kompozitsiya o'zbek zamonaviy adabiyoti tadqiqida eng ko'p e'tibor beriladigan jihat hisoblanadi. Hikoya muallifining asardagi har bir detalga, epizodga alohida e'tibor berishi muhim jihat hisoblanadi. Bundan tashqari, hikoyaga sarlavhani to'g'ri tanlash qobiliyati ham yozuvchining iqtidoridan darak beradi. Chunki yozuvchining hikoya yozishda o'z oldiga qo'ygan maqsadining katta ulushini sarlavha belgilab beradi.

Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining faol vakillaridan biri yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarining kompozitsion xususiyatlari haqida so'z boradi. Peyzaj, detal va sarlavha kompozitsiyaning unsurlari sifatida tahlilga tortilgan. Shuningdek, sarlavhaning badiiy vazifasi xususida to'xtalib, poetik tasnifi amalga oshirilgan. Detal, makon, zamon, ramziy, emotsional, obraz nomidan olingan shartli tasnifga kiruvchi sarlavhalar badiiyati haqida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, kompozitsiya, peyzaj, detal, sarlavha, konsepsiya.

Kirish

Har qanday badiiy asar poetikasi haqida gapirganda, avvalo, uning kompozitsion xususiyatlari yoki yozuvchining badiiy mahorati haqida gap boradigan bo'lsa, ijodkorning kompozitsiya yaratishdagi o'ziga xos mahoratiga e'tibor qaratiladi. Kompozitsiya istilohi haqida adabiyotshunos olim D.Quronov "Badiiy asardagi shakl komponentlarini mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o'zi bo'lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o'zining funksiyasiga ega, muayyan g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Asarda ularning har biri o'z o'rnida, me'yorida ishlatilishi, butun bilan mustahkam aloqada bo'ladigan va bu aloqalar anglandigan tarzda joylashtirilishi muhim" [Quronov D. 2020, 118] deb yozadi. Adabiyotshunoslar I.Sulton, T.Boboev, H.Umirov, E.Xudoyberdiyev, A.Ulug'ovlar adabiyot nazariyasiga oid ishlarida kompozitsiya masalasiga atroficha to'xtalgan bo'lsa, M.Qo'shjonov, J.Kamolov, N.Nosirov, K.Hamrayevlarning ishlarida kompozitsiya masalasi maxsus o'rganilgan.

"Ma'lumki, kompozitsiya haqidagi masala ayrim qism va parchalar orasidagi munosabatni analiz qilish bilangina chegaralanmaydi. Bundan tashqari o'zaro aloqadorlik, asarda ishtirok etuvchi personajlarning asosiy vazifani hal qilishdagi roli va ularni o'z o'rniga qo'ya bilish mahoratini analiz qilish ham kompozitsiya masalasiga kiradi. Qahramonlarning asardagi umumiy g'oyaviy vazifani hal qilishdagi rolini analiz qilish muhimdir", deb yozadi M.Qo'shjonov. [Қўшжонов М. 1983, 280]

Asosiy qism

Badiiy niyat va muallif nazarda tutgan g'oyani ifoda etivchi peyzajning N. Norqobilov kichik nasriy asarlarida o'rni katta. U peyzajni turli usullar orqali qo'llash bilan hikoya janrining imkoniyatlarini keng ekanligini ko'rsatib beradi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev "Yozuvchilar peyzaj yordamida xarakterlarni harakatda, doimiy o'zgarishda ko'rsatadi" [Худойбердиев Э. 2007, 80] — deya yozgan edi. Ayni fikrning isbotini N. Norqobilov ijodining dastlabki davrida yaratilgan

¹ Xayrullayev Azamat Xoliqovich — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi.

E-mail: azamatxayrulla@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0315-1790

Iqtibos uchun: Xayrullayev, A. 2024. "Normurod Norqobilov hikoyalarining kompozitsiyasi". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 75—82.

“Kapalak” hikoyasidan tortib “Quyosh tutilgan kun”, “Do’ngkalla”, “Yong’in” va boshqa hikoyalari misolida ko’ramiz. Mazkur hikoyalarda badiiy voqelik sodir bo’ladigan makon, zamon tushunchalari ham, voqealarning rivojlanishi ham tabiat tasviri fonida ko’rsatiladi. “Quyosh tutilgan kun” hikoyasida peyzaj — quyoshning tutilishi nafaqat qahramonning ruhiyati, holati bilangina emas, balki muhitning tasvirini ochishda ham o’rni kattaligi bilan ko’rinadi. Hikoyada peyzaj qahramonning ruhiy-emotsional holatini ifoda etishda fon vazifasini bajarish bilan birga parallel ravishda tasvirlanadi.

“Do’ngkalla” hikoyasida yozuvchi peyzaj tasvirini chizish bilan Do’ngkallaning o’ziga xos xarakterini ochib beradi. Shuningdek, “Yozning birinchi kuni” hikoyasida ham yumronqoziqlar sardori Tirtiqlarning xatti-harakatlari, holati peyzaj yordamida yoritiladi. Ayniqsa, peyzajning asar kompozitsion qurilishida ahamiyati ortib, badiiy niyatni amalga oshirishda muhim vosita sifatidagi o’rnini “Yong’in” hikoyasida ham ko’ramiz. “Tanasiga chirmashgan olovdan poyasi kuygan azim boboterak uzumzor ustiga gursillab qularkan, yig’ilganlar nazarida olamni jahannam otashi quchganday bo’ldi. Yiqilgan daraxtdan chortarafga sochilgan cho’g’u alanga nafaqat zaminni, balki osmonu falakni ham kuydirib yuboradigandek edi. Olovning shashti baland edi. Uning taftiga chidayolmay chet-chetga qochgan odamlar g’alati bir sinoatni, ya’niki alangaga aylangan daraxtning o’tli panjalari bamisoli ilonday bilanglab, tokzorni yanada kengroq qamramoq ko’yida g’imirlayotganini sezmay qolishdi. Nega deganda, yarim tunda kutilmaganda yuz bergan bu hodisa barchani yomon dovdiratib qo’ygan. Boz ustiga, ko’pchilikning diqqati tomi gurillab yonayotgan mo’jaz oqish binoga qaratilgandi. Yiqilgan terakka baqamti qad rostlagan bu binoning tomi anchadan beri yonayotgan bo’lsa-da, uni o’chirmoqqa hech kim oshiqmas, oshiqqanlar esa olov taftiga chidayolmay ortga chekinishar, go’yo chetdan madad kutishayotgandek, aksariyat kishilar besamar tentirashardi. Tokzor ustiga uzala tushgan alanga esa, fursatdan foydalangandek, o’tli panjalarini har tarafga cho’zib, yashil novdalarni beshafqat yamlar, to’la pishib yetilgan uzum boshlari olovda pisillab-tisillab tutday to’kilardi. Uzumzorning kulini ko’kka sovurmoqqa qasd qilgan boboterak alanga timsolida quturardi. U yonmoq va yondirmoq uchungina yaralganu, endilikda ushbu yumushni bekamu ko’st ado etayotgandek edi” [<http://uzsmart.ru>].

K. Hamrayev: “Normurod Norqobilov hikoyalarida esa badiiy peyzaj poetik obrazlar qatorida turadi. Xususan, bola va chol obrazlari tabiatning bir bo’lagiga aylanib, atrofdagi odamlarni kuza-tadi. Yozuvchining qaysi hikoyasini o’qimang, tabiatning go’zal tarovatini, xushbichim nafosatini tuyasiz. “Chol va ilonlar”, “Keksa tut”, “Buloq”, “Kapalak” hikoyalari badiiy peyzaj asosiga qurilgan. Masalan, “Keksa tut” asarida personajlarning xatti-harakatlari, fe’l-atvori, kekse tut nigohida bayon qilinadi. Natijada, kekse tut va roviy subyekti qorishib yagona obrazga aylanadi: tepki zarbidan tut daraxti qattiq selkindi. U bu xil kutilmagan zarbalarga ko’nikib ketgan esa-da, negadir bu galgisiga chidashi xiyla og’ir kechdi. Keksa tanasi ich-ichidan qaqshab, novdalarigacha zirillab va titrab ketdi, shunga qaramay, pinak buzmaslikka urindi — ichidan to’lqin urgan ingrog’ini shabadada tebranayotgan yaproqlari shovuriga ko’mib, odatdagidek, qaddini adil tutdi. Yozuvchi hikoyada badiiy peyzaj vositasida katta janrlarga xos bugungi kunning dolzarb mavzusini tasvirlagan. Umuman olganda, badiiy peyzaj hikoya tarkibida yozuvchining g’oyaviy badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi, syujet voqealarini bayon qilishda badiiy obraz ruhiyatidagi chizgilarni tasvirlovchi, asar kompozitsiyasini tashkil qilishda poetik komponentni tashkil etivchi vosita sifatida namoyon bo’ladi” [Hamrayev K. 2020, 83], deb yozgan edi.

Adib hikoyalarida badiiy detalni mahorat bilan qo’llaydi. Birgina “non” detali “Alam” va “Judo-lik quvonchi” hikoyalarida muhim poetik vazifa bajargan. Har ikkala hikoyada ham detal muallif badiiy niyatini ifodalab beradi. “Alam” hikoyasi qahramoni Nodirning xarakteri non detali orqali ochibgan bo’lib, asarda Nodir va Tolib aka o’rtasidagi ziddiyat tasvirlangan. Tolib aka butun umrini halol mehnati bilan temiryo’l stansiyasida o’tkazgan, Nodir esa tajribasiz bo’lsa-da, buni tan olgisi kelmaydi. O’zini boshliq ekanini ko’rsatmoqchi bo’ladi.

“Tungi smenada yuz bergan “ChP”ni sharhlay turib kollektivni hushyorlikka chaqirmoqchiydi u. Ammo maza qilib gapirayotgan edi. Hamma og’zingga tikilib tursa, gap degani ichingdan qaynab chiqaverarkan. Shunda deng, bir chekkada g’ijini o’tirgan Tolib aka qaynab turgan qozonga

to'satdan bir parcha muz tashlab yuborsa bo'ladimi. "E, bo'ldi-da endi, buncha cho'zg'ilaysan!" Nodir huzur qilib chaynayotgan luqmasidan tosh chiqqanday bir qalqib tushdi. Dovdirab qolib og'zidan chiqqaniyam, shu bo'ldi: "Agar yoqmayotgan bo'lsa, marhamat, chiqib keting!" "Vaqt...— chol bilagidagi soatga nuqidi.— Nima qilasan bekorchi gaplar bilan boshni qotirib! Lo'nda qilib ayt-qo'y-da!" Shundan so'ng Nodir u dedi, Tolib aka bu dedi, axiyri chol "Ezma-churruk!" deya eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi." [Норқобилов Н. 1990,37] Nodir Tolib aka bilan majlisda bo'lgan arzimas tortishuvdan keyin qulay vaziyat paydo bo'lishi bilan undan o'ch oladi.

"Nodirning ko'ngli birdan ravshanlashganday bo'ldi: qasos daqiqalari yetib kelgan edi! Ana endi, bu cholning popugini shunday pasaytiradi-ki...

— Nima qilganingiz bu?! Esingiz joyidami?! Qani, yuring! Siz bilan boshqa yerda gaplashamiz!

Tolib aka, ko'zi yerda g'ujanak bo'lib yotgan Zokir chapanida, es-hushini yo'qotgan bir ahvolda shalvirab turardi. Nodir yosh bolani turtkilaganday, uning yelkasiga turtgandan so'nggina, chol itoatkorona unga ergashdi.

Ro'molni ko'zlarigacha tushirib tang'igan juvon depo hovlisini changitib supurar, har supurgi tortganda, axlatga qorishib bir parcha non bo'lagi ham koptokdek dumalardi..." [Норқобилов Н. 1990,40] Keltirilgan parchadagi detal orqali bir vaqtning o'zida o'quvchi personajlarning xarakter xususiyatlari, muallif badiiy niyati, asar g'oyasini anglaydi.

"Judolik quvonchi" hikoyasida ham non detali badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. "Deraza raxida esa kecha cholning qo'lidan tortib olingan non bo'lagi yotardi. Allaqachon unga ega chiqqan chumolilar bandalarning bu yolg'on uvvoslari bilan ishlari yo'q, non uvoqlarini bir jon-u bir tan bo'lib, imi-jimida o'z inlariga tashirdi." [Норқобилов Н. 2022,191] Ayni ikki hikoyada bir detal turli poetik ma'no vazifalarini istifoda etib keladi.

Badiiy asar sarlavhasi xususida adabiyotshunos H.Umirov shunday yozadi: "Asar sarlavhasi shunday bir yoki bir nechta so'zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o'zida aniq, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim." [Умиров Х. 2004,136] Shuningdek, K.Hamrayev "Hikoya kompozitsiyasi" nomli monografiyasida sarlavhaning tiplari va strukturasiga alohida to'xtalib, sarlavhaning to'rt xil turini keltiradi, ruhiy-emotsional sarlavhalar qatorida A.Qahorning "Dahshat", Sh.Xolmirzayevning "Ko'ngil", "Nimadir yo'q bo'ldi", A.Yo'ldoshning "Yolg'on va haqiqatlar" hikoyalari bilan birga N.Norqobilovning "Ayriliq quvonchi" hikoyasini ham sanab o'tadi. Ruhiy-emotsional sarlavhalar haqida gapirib, K.Hamrayev "Qaysidir ruhiy holatning butun asarda mujassam qilinishi sababli u sarlavha o'laroq hikoya tepasidan joy oladi" [Хамраев К. 2020,100] — deydi.

Bizningcha, ijodkor o'z asarini yozish jarayonida uning ongida asarni jamlab, butlab turgan yagona bir chiziq, yo'l, deylik bu asar g'oyasi bo'lsin, mavjud bo'ladiki, sarlavha ana shu g'oyaning yoki aytaylik, asar mazmunining muxtasar nomi. Ushbu jumlar sarlavhaning butun mohiyatini o'zida ifoda etmagan bo'lsa-da, har holda asarning barcha qism va bo'laklarini o'zida mazmunan istifoda etgan lo'nda bir so'z yoki jumla ko'z oldimizda sarlavhani gavdalantiradi. Sarlavha tanlash tabiiyki, muallifning mahorati bilan bevosita bog'liq, ba'zi asarlarning nomlari ijod jarayonida dunyoga kelsa, ayrim asarlar yakuniga yetgach, muallif unga sarlavha qo'yadi. Ba'zida esa muallif asar nomini o'zgartirib boshqa sarlavha tanlaydi. Bunday holatlar adabiy jarayonda ko'pda kuzatilmaydi, biroq mohir hikoyanavis Shukur Xolmirzayev "Havas" (1972) nomini o'zgartirib "O'zbekning soddasi", To'xtamurod Rustam o'z romanini "Kapalaklar o'yini" deb nomlagan bo'lsa keyingi nashrda "Dengiz ko'rmagan odamlar", Nazar Eshonqul "Evolyutsiya"ni o'rniga "Istilo" sarlavhasini qo'llagan.

N. Norqobilovning hikoyaga sarlavha tanlashi boshqa adiblarnikidan farq qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, adib ijodining kompozitsion o'ziga xosligi aynan sarlavhada ko'zga tashlanadi. Masalan, adib bir hikoyaga ikki xil nom qo'yadi yoki bir nomda ikki xil hikoya yaratganki, chalkashliklarni yuzaga keltirmaslik uchun adib ijodidagi bu jihatga alohida e'tibor qaratish zarurati tug'iladi. Ularni quyidagicha shartli uch xil guruhga bo'ldik:

Birinchi, sarlavha o'zgarsa ham ma'nosi qisman saqlanib, asarning g'oyaviy mazmuni o'zgarishga uchramagan "Yakson bo'lgan qit'a", "Loyxandaqdagi besh qit'a" ("Chetdagi odam", 2016-yil)

yoki “Xandaqdagi besh qit’a” (*“Tanlangan asarlar”, 2022-yil*) “Yuk” hikoyasi (*“Yoshlik” jurnali, 1984-yil, 2-son*) “Tavatosh” nomi bilan (*1987-yilda nashr qilingan “Zangori ko’l”*) “Ayriliq quvonchi” (*2010*) yoki “Judolik quvonchi” (*“Chetdagi odam”, 2016-yil, “Tanlangan asarlar”, 2022-yil*), “Qo’shiq” (*2000-yil*) yoki “Mung” (*Chetdagi odam”, 2016-yil, “Tanlangan asarlar”, 2022-yil*) va “Bo’ron qo’pgan kun” (*2005*) yoki “Quyuni” (*“Chetdagi odam” 2016-yil*) hikoyalar.

Ikkinchi, sarlavha o’zgarishi bilan asar g’oyaviy mazmuni mutloq o’zgargan, biroq ayni syujet saqlangan asar. “Oriyat” (*“O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2014 yil 13-son*) hikoyasining sarlavhasi keyingi nashrda “Chetdagi odam” nomi bilan o’zgargan (*shu nomdagi hikoyalar to’plami 2016-yilda e’lon qilingan, 2022-yilda “Tanlangan asarlar”iga ham shu nom bilan kiritilgan*).

Uchinchi, bir nom turli xil syujetdagi asarlarga qo’llangan. Adib “O’g’ri” sarlavhasi ostida **uch xil syujetdagi** hikoya yozgan (*“Unutilgan qo’shiq” hikoyalar to’plami, 1990-yil, (hikoya qahramoni Sattor), “Paxmoq” qissa va hikoyalar to’plami, 1997-yil, (asar qahramoni Vohid), “Tanlangan asarlar”, 2022-yil, (hikoya qahramoni Mirhaydar)*). “Kurash” (*hikoya qahramoni Hamida momo*) sarlavhasi 2013-yilda e’lon qilingan hikoyaga va 2018-yilda e’lon qilingan qissaga (*qissa qahramoni Xurram qotma*) ham qo’yilgan. 2000-yilda nashr qilingan “Bekadagi oq uycha” to’plamidan “Oriyat” nomli hikoya joy olgan bo’lib uning yuqoridagi 2014-yilda yilda yozilgan hikoyadan syujeti mutloq farq qiladi. Ushbu asar qahramoni Hasan palvon.

Yuqorida sarlavha o’zgarsa ham ma’nosini qisman saqlanib qolgan hikoyalar qatorida “Ayriliq quvonchi” yoki “Judolik quvonchi” hikoyasini sanagan edik. Ushbu hikoyaga “Ayriliq quvonchi” nomini qo’ygan adib keyingi nashrlarda sarlavhani qayta o’zgartiradi. Chunki, sarlavha uchun tanlangan “ayriliq” so’zi asarning mohiyatini to’la ifoda etmaydi. Asar qahramoni bola bobosi Norboy choldan ayrilmadi, balki butunlay judo bo’ldi. Bizningcha ham asarning “Judolik quvonchi” deb nomlanishi to’la ma’noda o’zini oqlaydi.

Hikoyaning ilk jumlasini xabar bilan “Bola do’ngda bobosi Norboy cholni kun qaytganidan beri kutadi” [Норқобилов Н. 2022, 182] — deya boshlanadi. Bizningcha, mana shu ilk jumlaning o’zida asarda ro’y beradigan voqealikka ishora bor. Yani kun qaytishi, quyoshning yaqin orada botishi, kun yakunidan obrazli qilib aytganda esa “umr shomi”dan darak beradi. Ushbu hikoyada his-tuyg’ular, obrazlar, detallar qarama-qarshi qo’yilganini ko’ramiz. Yig’i va quvonchning bir-biriga qarshi qo’yilishi chin ma’noda muallif mahoratini ko’rsatadi. Zero, chinakam badiiy asargina qayg’uda quvonch, quvonchda qayg’uni ifoda etadiki, adib buni sarlavhaning o’zidayoq mahorat bilan ko’rsatib bergan.

Asarda bola va Muso obrazlarining xarakteri Yomonqul, Bozor, cholning qizi fe’l-atvoriga qarshi qo’yiladi. Adib ismlarni ham asar personajlarining xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib tanlaydiki, Bozor, Yomonqul obrazlari nafs kishilari sifatida gavdalanadi. Yozuvchi “Chetdagi odam” hikoyasida ham Muso ismini qo’llagan, ikkala hikoyada ham Muso ismi ramziylik kasb etib insoniylik timsoliga aylanadi.

Asarda detallar ma’lum ma’noda ramziylikka ega. Hikoya do’nglik detalidan boshlangan bo’lsa, yakunida qotgan nonni chumolilar iniga tashib ketishi bilan tugaydi. Do’nglik detali hayotni, chumolilar ini esa qabrni ifodalaydi. “Sarlavhada ma’naviy zidlov kuchli matematik hisobda $2 \times 2 = 4$ bo’lganidek, hayot mantig’iga ko’ra ham “judolik” so’zi “qayg’u, istirob” so’zlari bilan muvofiq keladi. Judolik odam bolasini quvontiradi deyish $2 \times 2 = 5$ degandek gap. Biroq asl adabiyot mana shu paradoksal haqiqatni isbotlay oladi.

N.Norqobilov ham mana shu ikki zidni bir hikoyada jamlab, badiiy asoslab berishga erishgan. Hikoya qahramoni — bola do’ngga chiqib olib, kemshik og’zida qotgan non shimayotgan, munkayibgina shahardagi o’g’lini kutayotgan bobosini yaxshi ko’radi. Ayni paytda uning tezroq o’lishini istaydi. Hikoya mana shu istakni asoslashga, badiiy-mantiqiy yechimini topishga qaratilgan.” [Жўрақулов У. 2018, 7 декабрь №50]

“Mung” (*“Qo’shiq”*), “Bo’ron qo’pgan kun” (*“Quyuni”*) hikoyalarining sarlavhasi haqida aytib o’tish kerakki, adib “Tanlangan asarlar” (2022) to’plamida yana qaytadan mazkur hikoyalarni “Mung” va “Bo’ron qo’pgan kun” sarlavhalari bilan e’lon qildi. Hikoyalarning syujetidan kelib chiqib aytadigan bo’lsak, ushbu sarlavhalar har ikkala hikoyaga munosib nom. “Bo’ron qo’pgan

kun” hikoyasida qahramon asar boshidan psixologik jihatdan tayyorlab kelinadi. Sanam xolaning ichidan asta-sekinlik bilan yetilib kelayotgan, or-nomusni unutgan guzardagi kimsalarga bo’lgan alam va nafrati bir kun kelib kutilmaganda bo’ron kabi o’zini ko’rsatishi aniq edi. “U qassobni nigo-hi bilan “nimta”lab, nari o’tadi. Yemakxonaga yetib-etmay to’xtaydi. Ko’zlari Eshqul somsapazni gangitib, stol tevaragida o’tirganlarda qo’nim topadi. Nechundir faqat tuk bosgan ensalar-u yag’ir yoqalarnigina ko’radi. O’tirganlar qiyofasini ilg’amaydi, to’g’rirog’i, ilg’ayolmaydi. Shunda olam kir, tiriklik chirkin tuyuladi. Najot istab, ufqqa ko’z tashlaydi. Ufq tuproq rangida, osmon ham shu tusda. Qaynoq garmsel borliqni to’zonga burkamoqchidek, o’xtin-o’xtin quturadi. Oqibat, kishi-lik qiyofasi changga belangan-u, ularda mana shu tuk bosgan ensalar-u yag’ir yoqalargina qol-gandek go’yo. Bundan uning yuragi battar siqiladi va beixtiyor tiliga shu gaplar ko’chadi: “Xudo-yim-ey, bularni yaratib nima qilarding, a?!” [Норқобилов Н. 2022, 250] Keltirilgan parchada adib har bir detal va peyzajdan mohirona foydalanadi. Peyzaj qahramon ruhiyatiga mos tasvirlanadi. Ayniqsa, garmselni go’yoki borliqni to’zonga burkamoqchidek tasvirlanishi asarda sodir bo’la-jak “bo’ron”dan darak, ishora berib turibdi. Asar yakunida Sanam xola qo’lida bolta ushlagancha shiddat bilan otilib, guzardagilarga qarshi chiqishi ular uchun to’satdan faydo bo’lgan bo’ron kabi dahshatli bo’ldi.

Agar yozuvchi sarlavhaga “Quyun”ni chiqarganda edi, sarlavha ikki jihatdan asarga mos kelmagan bo’lar edi. Birinchidan, “quyun” so’zi bo’ronga nisbatan muallif yuklamoqchi bo’lgan ma’no bilan birga asar syujetini o’zida ifoda etolmaydi. Ikkinchidan, asarda qahramonni ichidagi g’azabni paydo bo’lishi, uni sekinlik bilan, kun sayin kuchayib, oshib borishi va kuni kelib o’zini ko’rsatishi tasvirlangan. Bu tomondan qaralsa, asar voqeligini, u sodir bo’ladigan kunga berilgan ishorani “Bo’ron qo’pgan kun” sarlavhasi ifodalay oladi.

“Mung” hikoyasida ham “Bo’ron qo’pgan kun” hikoyasi singari ruhiy-emotsional tasvir xususiyati ustunlik qilishini kuzatamiz. Asarda qahramonning voqelikka munosabati sentimentallik kasb etib, cholning ichki iztiroblari, emotsional holati tasvirlanadi. “Mujjalari yumiq — bunaqa payt hech narsani ko’rmaydi, eshitmaydi. Ko’z yoshlari ajin tilimlagan ko’zlarini yumib, moshgu-ruch soqolida marvarid donalariday qotarkan, botayotgan quyoshning qizg’ish nurida bamisoli yoqutday tovlanadi. Kuylayotganida chol bu olamning odami bo’lmay qoladi. Ovozi o’tmishning teran chohlaridan silqib chiqayotgandek, kishida g’alati bir hisni tug’diradi — etni junjiktira-di, ham xayolga toldiradi. Dunyo ko’hna, u esa dunyodan ham qadim ko’rinadi. [Норқобилов Н. 2022, 146] Keltirilgan parchada qahramon ruhiy olamining ich-ichiga kirib, uning yuragi tubidagi alam va iztirobning mohirona chizilgan tasvirini ko’ramiz. Qachonlardir sevikli ayolidan ajralgan, yolg’iz cholning mungli, ezgin qiyofasining gavdalanishi, bu alam va dard hikoya so’ngiga qadar qahramonni tark etmasligi asarga “Qo’shiq” sarlavhasini tanlanishi mos kelmasligini ko’rsata-di. “Qo’shiq” so’zi ma’lum ma’noda ijobiy bo’yoqdorlikka ega, u tushkunlikni emas, jo’shqin va ko’tarinki kayfiyatni bildiradi. Qahramonning ruhiy holati va asar mazmini ham “mung” so’zi hazinlik, ma’yuslik ma’nolarini anglatishi sababli sarlavha darajasiga chiqa oladi. Shuning uchun muallif “Qo’shiq” sarlavhasi o’rniga “Mung”ni qayta qo’yishi o’zini oqlaydi.

“Chetdagi odam” yoki “Oriyat”. Biz ikki nom bilan ataladigan *yagona syujetdan* iborat ush-bu hikoyalarni keyingi o’rinlarda “Chetdagi odam” va “Oriyat” sarlavhalari bilan ataladigan *ikki mustaqil hikoya* sifatida qaraymiz. Hikoya voqealari markazida turgan, uning syujetini siljitib, rivojlantiradigan, asar g’oyasini o’zida tashiydigan *Muso ferma* obrazi “Chetdagi odam” hikoya-sining bosh qahramoni sanaladi. Ushbu hikoyaning nomi asardagi obraz nomidan kelib chiqqan sarlavha hisoblanadi.

“Oriyat” hikoyasida detal sifatida or-nomus tuyg’usi asar qismlari, epizodlarini jamlab tura-di. Badiiy detalning bir turi bo’lgan ruhiyat detali sarlavha darajasiga ko’tariladi. Ushbu hikoya qahramoni — bola.

N. Norqobilov hikoyalarga qisqa va lo’nda sarlavha tanlaydi. Adib obrazlilikka, ramziylikka, polisemantik ma’noga ega so’zlarni sarlavhaga olib chiqmaydi. Adib nisbatan an’naviy yo’ldan boradi. Uning sarlavhalari Abdulla Qahhor hikoyalarining nomlarini yodga soladi. Yozuvchi hi-koyalarining sarlavhalarini quyidagicha tasnif qilish mumkin: bular detal, makon, zamon, ramziy,

emotsional, obraz nomidan olingan shartli tasnifga kiruvchi sarlavhalar. Shartli deyishimizga sabab esa emotsional sarlavha ramziylikka ega bo'lishi yoki vaqt va zamon tasnifidagi sarlavha boshqa tasnifga ham aloqadorlikka ega bo'lishi mumkin.

Detal sarlavha — "Ro'molcha", "Tavatosh", "Kapalak", "Quduq" "Kitob" va boshqa sarlavhalar. Adib hikoyalarining katta qismini detal sarlavhalar tashkil etadi. Detal sarlavhalar haqida gapirganda aytib o'tish kerakki, hikoya syujetida badiiy detal muhim ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, qahramonlar taqdirida ham katta rol bajargani uchun asar sarlavhasi darajasiga chiqadi. Masalan, yozuvchining "Ro'molcha" hikoyasini oladigan bo'lsak u "...xarakterli bir detal — oddiygina ro'molcha bilan bog'liq hodisalar asosiga qurilgan. Hikoyada oshiq-mashuqlarga daxldor, tasodifan bola qo'lga tushub qolgan, bosh hoshiyasiga qizil ipak bilan to'r to'qilgan, bir chetiga esa oshiq-ma'shuqlar ismining bosh harfi chatilgan oddiy sariq ro'molcha bir necha personajlar bisotini ochib berivchi sehrli kalit vazifasini o'taydi... Hikoyada oddiy detal jiddiy ma'nodorlik kasb etib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qiladi." [Ёшлик, 1983, 2-сон. 39]

Makon bilan bog'liq sarlavhalarga "Pivaxonada", "Yo'lda", "Chorraha", "Yo'lak", "Ziyoratgoh", "Dashtda", "Enatepa", "Qorovultepa", "Yakkasuv", "Tepalik" hikoyalari misol bo'ladi. Ushbu sarlavhalar, hikoya syujeti konkret makon doirasida kechishi yoki muayyan makon detalining badiiy obraz darajasiga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bu xil hikoyalar asosiy planda qahramonning ichki olami bilan parallel ravishda ma'naviy qiyofasi, e'tiqodini tasvirlashi jihatidan ajralib turadi. Shuningdek, asar voqeligi ro'y beradigan makon qahramon taqdirida yoki ruhiyatida keskin bu-rilish yasaydi.

Badiiy asar syujetida vaqtni, zamonni ifodalovchi sarlavhalarga adibning "Yomg'irli oqshom", "To'y kechasi", "Yozning birinchi kuni", "Tungi mehmon" va boshqa hikoyalari kiradi. Ushbu hikoyalar syujeti makon va zamon chegarasida, bir xronotop doirasida kechadi. Masalan, "Tungi mehmon" hikoyasida badiiy voqelik Chamanoyning hovlisi va tun bilan chegaralansa, "Yozning birinchi kuni"da voqealar daryo sohilida, quyosh botguncha ro'y beradi.

Qahramonning emotsional holati bilan bog'liq sarlavhali hikoyalarga "Mung", "Quvonchli kun", "Buron qo'pgan kun", "Alam", "Tugatilmagan surat" kabilar kiradi. Mazkur hikoyalarda qahramonning botiniy his-tuyg'ularini tasvirlash yetakchilik qiladi. Bunga "Mung" hikoyasida ichki dard va istirobning keng tasvirlanishi aniq misol bo'ladi. Bu xil sarlavhali hikoyalarda tashqi yoki ichki ta'sir natijasida qahramon muayyan ruhiy holatni boshdan kechiradi.

Obraz nomidan yoki ismidan olingan sarlavhalarga "Buloq", "Do'ngkalla", "Oqbo'yin", "Qizcha", "Qashqa", "Sut sotuvchi bola", "Chol va bola", "Chetdagi odam" hikoyalari kiradi. Ushbu sarlavhalar bevosita hikoyaning bosh obraz nomidan olinib sarlavha o'laroq asar tepasidan joy olgan.

Ramziy sarlavhaga ega bo'lgan hikoyalarga "Quyoshi botmaydigan yurt", "Quyosh tutilgan kun", "Unutilgan qo'shiq", "Zangori ko'l" va boshqalar kiradi. Ushbu sarlavhalar o'ziga xos, shartli ramziylikka ega. "Quyosh tutilgan kun" hikoyasi syujetida quyoshning tutilishi oxir zamonga, qiyomatga ishora qiladi. "Unutilgan qo'shiq" hikoyasida esa yoshlik davriga ishora qiladi.

Xulosa

N.Norqobilov hikoyalari kompozitsion jihatdan o'ziga xos bo'lib, bu uning qahramonlar ruhiyatini peyzaj bilan parallel tasvirlashida ko'rinadi. Bunga misol sifatida adibning "Quyosh tutilgan kun" hikoyasini olish mumkin, negaki ayni hikoyada peyzaj ruhiyat tasviridan tashqari, personajlar mansub muhitning qiyofasini chizishda qo'l kelgan. Shuningdek, yozuvchi detalni asarning konseptsiyasiga mos ravishda mohirona qo'llaydi.

Adib asarlarida sarlavha asarning mazmunini belgilovchi kompozitsiya unsuri sifatida ko'zga tashlanadi. Adib o'z ijodiy niyatiga ko'ra asarlariga nom qo'yadi. Asarning muhim tarkibiy qismi sanalgan sarlavha orqali o'quvchi asar olamiga kirib boradi. Normurod Norqobilovning sarlavha qo'llashdagi mahorati adib hikoyalari konsepsiyasining yaxlitligini ta'minlashiga xizmat qiladi.

Yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarining kompozitsiyasini o'rganish, umuman uning asarlarini badiiy xususiyatlarini tadqiq etish va xulosalarga ega bo'lish bugungi kunda nafaqat

adabiy jarayon, balki adabiyot metodikasining ham muhim vazifalari hisoblanadi. O'quvchi va talabalar tomonidan adib asarlarini badiiy va g'oyaviy jihatdan tadqiq qilish bilan ham metodika fani uchun jiddiy ilmiy xulosalarga ega bo'lish mumkin.

Adabiyotlar

<http://uzsmart.ru>.

Quronov D. 2020. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya -Ziyo. — B.118.

“Yoshlik”, jurnali. 1983, 2-son. —B. 39.

Жўракулов У. Берса инояти, йўкса синоати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018, 7 декабрь №50.

Қўшжонов М. 1983. Сайланма. 2 жилдлик. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. — В.280.

Норқобилов Н. 2022. Танланган асарлар. Тошкент: Фирдавс-Шоҳ. —В. 182, 191, 250.

Норқобилов Н. 1990. Унутилган қўшиқ, Ҳикоялар. Тошкент: Ёш гвардия. — В.37—40.

Умиров Ҳ. 2004. Адабиётшунослик назарияси. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. — В. 136.

Худойбердиев Э. 2007. Адабиётшуносликка кириш, Тошкент. — В. 80.

Ҳамраев К. 2020. Ҳикоя композицияси. Тошкент: Nurafshon business. —В. 83-100.

A COMPOSITION OF NORMUROD NORKABILOV'S STORIES

Khairullayev Azamat¹

Abstract

The composition of stories is the most attentional aspect in the study of modern Uzbek literature. It is important that the author of the story pays special attention to every detail and episode in the story. In addition, the ability to choose the right title for the story also shows the talent of the writer. Because the title expresses a large part of the writer's goal in writing a story.

This article is about the compositional features of the stories of the writer Normurod Norqabilov, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. Story plot, details and title are analyzed as elements of composition. Also, the literary function of the title was discussed and its poetic classification was carried out. Details, space, time, symbolic, emotional, episodic titles' classifications are reviewed.

Key words: *story, composition, landscape, detail, title, concept.*

References

- <http://uzsmart.ru>.
Quronov D. 2020. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya -Ziyo. — B.118.
“Yoshlik”, jurnali. 1983, 2-son. —B. 39.
Жўрақулов У. Берса инояти, йўқса синоати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018, 7 декабрь №50.
Қўшжонов М. 1983. Сайланма. 2 жилдлик. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. — В.280.
Норқобилов Н. 2022. Танланган асарлар. Тошкент: Фирдавс-Шоҳ. —В. 182, 191, 250.
Норқобилов Н. 1990. Унутилган қўшиқ, Ҳикоялар. Тошкент: Ёш гвардия. — В.37—40.
Умиров Ҳ. 2004. Адабиётшунослик назарияси. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. — В. 136.
Худойбердиев Э. 2007. Адабиётшуносликка кириш, Тошкент. — В. 80.
Ҳамраев К. 2020. Ҳикоя композицияси. Тошкент: Nurafshon business. — В. 83-100.

¹ *Khairullayev Azamat Khalikovich* — is a senior lecturer at the Department of World Literature and Comparative Literature of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: azamatxayrulla@gmail.com)

ORCID ID: 0000-0002-0315-1790

For citation: Khairullayev, A. 2024. “A composition of Normurod Norkabilov's stories”. Uzbekistan: language and culture. 4[1]: 75—81.

ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Maxmuda Yuldasheva¹**Annotatsiya**

Adabiyot ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlash, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limning texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Adabiyot fanini o'qitishda, o'tilgan badiiy asarlarni mustahkamlashda turli xil o'yinlardan samarali foydalanish mumkin, sababi didaktik o'yinlar ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bu jarayonda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglashi asosida emotsional — hissiy hamda intellektual-axloqiy jihatdan rivojlanadi.

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiyot ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik metod asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni ya'ni mustaqillik, epchillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, "Mukolima" metodi, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.*

Kirish

Evristik usul birinchi marta qadimgi Yunonistonda Sokrat tomonidan qo'llangan [Гетманская, 2009: 261.]. Sokrat o'z shogirdlariga savollar berib, ularni fikrlashga, mulohaza yuritishga va gapirishga undagan. Va ushbu savol-javob jarayonida shogirdlarida mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin va ravon bayon etish, berilgan savol va topshiriqlarga ijodiy yondashgan holda mustaqil yechim izlash hamda uni topish ko'nikmalari shakllanib borgan. Demak, evristik yondashuvning genezisi Sokratning dialoglariga borib taqaladi. Evristik yondashuv faqatgina XX asrning 90-yillariga kelib A.V.Xutorskoy va uning ilmiy maktabi tadqiqotchilarining samarali ilmiy izlanishlari hamda tadqiqotlari tufayli mustaqil ta'lim turi sifatida shakllangan.

Evristik yondashuvning bizda keng tarqalishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ayniqsa, o'quv jarayoniga mustaqillik va erkin fikrlash, ilmiy izlanuvchanlik, ijodkorlik, yangiliklar yaratishning o'sib borishi munosabati bilan keng qo'llashni talab etadi. Ta'lim maskanlarida adabiyot fanini o'qitishning bosh maqsadi o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirib, ijodiy fikrlarini nutq vaziyatiga mos hollarda to'g'ri va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Umuman olganda, adabiyotda evristika ilhomlantiruvchi va chuqur mutolaa jarayonini yaratishda muhim rol o'ynaydi, o'quvchini turli adabiy vositalar va uslublarni orqali faol fikr yuritishga va o'z-o'zini kashf etishga undaydi. Bizda an'anaviy o'qitish tizimining uzoq davrlar mobaynida amal qilib kelinganligi tufayli evristik ta'limga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Chunki evristik yondashuvda o'quvchilar mustaqil izlanishi, qo'yilgan muammoga o'zi qu-

¹ Yuldasheva Maxmuda Alikulovna — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: mahmudauldaseva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1465-1819

Iqtibos uchun: Yuldasheva, M. 2024. "Adabiyot darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 83—89.

lay yechim topishi, berilgan savol yoki topshiriqqa yechimni o'zlari kashf etishi kerak. An'anaviy ta'limda esa o'quv jarayoni, o'quvchining dars bosqichlaridagi har bir harakati o'qituvchi tomonidan belgilab berilar edi. Ya'ni o'qituvchi yechimi aniq bo'lgan topshiriq yoki vazifalarni beradi, o'quvchi uni bajaradi. Evristik yondashuvda esa o'qituvchi vazifa yuklovchi emas, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Asosiy qism

Jahon ta'lim tizimida evristik yondashuvga oid hamda o'quvchini ijodkorlikka yo'naltirish masalalariga doir juda ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Kogut Marina Tarasovna "Историческая эвристика" asarida, Rozet Isaak Moiseyevich "Что такое Эвристика?", Ulezko Yuliya Danilovna "Методические условия применения эвристических методов обучения на уроках биологии" kabi tadqiqotlarida evristik yondashuvni qo'llash muammolari hamda uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullari haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, Petrosyan Edik Avetisovich nomzodlik dissertatsiyasida 5—9-sinf o'quvchilari tafakkurida evristik yo'nalishni shakllantirish uchun matematika kursining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik-pedagogik shartlarini aniqlash, asoslash va amalga oshirish muammolariga e'tibor qaratsa, Naurizbayeva Raxat Naurizbayevna evristik ta'limning yaxlit tushunchasi va pedagogik tizimini ilmiy asoslash va eksperimental tekshirish muammolarini tadqiq etadi.

Respublikamizda Evristik yondashuv asosida o'quvchilarda ijodiy izlanuvchilikka xos sifatlarini shakllantirish yo'llari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari N.S.Mamatovning "Evristik mezonlar asosida informativ belgilar fazosini shakllantirish usullari va algoritmlari" hamda D.J.Gaipovning "Evristik metod yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faolligini ta'minlash mexanizmlari" mavzusidagi dissertatsiya ishlarida, J.Tursunovning "O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta'lim metodlaridan foydalanish", Saodat Qambarovanning "Navoiy ijodini evristik ta'lim metodlari asosida o'rganish", Rustam Xurramovning "Evristik topshiriqlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida", "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik qobiliyatini rivojlantirish", "Og'zaki mashqlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilari evristik fikrlashini rivojlantirishning metodik asoslari", Oygun Xallovning "Evristik faoliyat texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish", Aziza Turaqulovanning "Evristik ta'lim texnologiyalari" Informatika fani misolida, Kamola Shokarimovanning "Применение эвристического метода на уроках литературы" nomli maqolalarida tadqiq etilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar nuqtayi nazariga ko'ra, Evristik yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadi, adabiy asar, tanqidiy maqola va boshqa materiallar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stiradi.

Evristik yondashuv — o'rganish bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarning intellektual fikri va maqsadini aniqlashga yordam berish, ta'lim olish jarayonida zaruriy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Evristik ta'lim tushunchasi o'quv-tarbiya jarayonida yo'naltiruvchi savollar orqali yangilikni kashf etib borishga asoslangan o'qitish tizimidir. Bu jarayon natijasida o'quvchilarda sinchkovlik, topqirlik, izlanuvchanlik, maqsadlar izchilligini ilg'ay olish kabi ijobiy ko'nikmalar shakllanishi bilan birga muammoli vaziyatlarda mustaqil izlanish, qo'yilgan vazifalarga aniq yechim topish layoqati egallanadi.

Evristik o'rganish — o'quvchi tomonidan yangilikni doimiy ravishda kashf etib borishdir. Evristik yondashuv asosida o'qitish ancha oldin paydo bo'lganiga qaramay, u zamonaviy pedagogikada nisbatan yaqin yillardan boshlab qo'llanilmoqda.

Evristik yondashuv orqali ta'lim jarayonida sifat va samaradorlik oshadi hamda quyidagi muvaffaqiyatlarga erishiladi:

— evristik yondashuv asosidagi ta'lim o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, o'quvchining shaxsan izlanishi, o'rganishi, o'ylanishiga asoslangan, bu jarayonda o'quvchi mustaqil izlanishi, qidirishi, topishi orqali ongli o'zlashtirishga erishadi;

— o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatadi hamda muammolarning yechimini topish orqali in-

tellektual salohiyatini oshiradi. O'quv fanidagi tayyor mazmun, ma'lumotlarni olib qolmay, uni individual ishlashi orqali o'quv materialini olish va o'z salohiyatiga suyanib ish tutish ko'nikma va malakasi shakllanadi.

Evristik yondashuvga xos usullardan foydalanish o'quvchilarga asarlarni talqin qilishda faol ishtirok etish va matn ortidagi chuqur ma'nolarni izlash imkonini beradi. Bu asarlarni mustaqil tahlil qilish va tushunish uchun eshiklarni ochadi, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va adabiy materialga hissiy jalb qilish uchun yordam beradi. Demak, evristik yondashuv asosida o'qitish usuli— o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda, ijodiy yondashuv asosida javob topishga qaratilgan usul. Ta'kidlab o'tish kerak-ki, bu jarayonda o'qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarishda o'quvchi mustaqil izlanadi, o'zi mustaqil yechim topadi va mustaqil qaror qabul qiladi. Ushbu topshiriq bo'yicha o'quvchi qanday yechim topishi, qanday izlanmani qo'llashi va topilma qay tarzda bo'lishini oldindan aniqlab bo'lmaydi. O'quvchi topshiriq yechimini topish uchun izlanib, o'zi istagan yo'ldan boradi va yechimni topadi va yangilikni "kashf etadi". Inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi yaratuvchanlikda, ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi va, aynan, mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatini mustaqil namoyon qila oladi. Bu borada metodist olimi Q.Husanboyeva to'g'ri ta'kidlaganidek, "Kashfiyotning lazzati qanchalar totli ekanini har bir odam biladi. Mana shu lazzatni vaqtliroq tuyish imkonini o'quvchilarga ham berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergan ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirishi, o'sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo'lgan mana shunday tabiiy sifatlar bilan hamohang kechishi o'quvchi shaxsiyatida fikr kishisini tarbiyalaydi" [Хусанбоева, 2006: 67.].

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qitishning evristik usuli o'zida ijodkorlikni mujassamlashtiradi va birlashtiradi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim yoki ma'lumotni bermaydi, balki ularni mustaqil izlanishlari, ijod qilishlari uchun yo'naltiradi. Obyekt sifatida asarlar, shoirlar nomi, tabiat hodisalari, tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslar, san'at asarlari olinishi mumkin. O'quvchilar obyektga asoslanib, o'z mulohazalarini gipoteza, matn, mahsulot, diagramma va boshqa shakllarda taqdim etishlari mumkin. Evristik usul doirasida o'quvchi ijodiy faoliyatini o'z shaxsiy dunyoqarashi va nazariy bilimlaridan kelib chiqib olib boradi. O'quvchilar natijani o'qituvchiga taqdim etgandan so'ng barcha ma'lumotlar va tadqiq etilgan yangiliklar solishtiriladi va umumlashtiriladi. Anglashiladiki, evristik yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, epchillik, qarorlar qabul qilish layoqatlarini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar ta'limida keng qo'llanilayotgan ushbu evristik yondashuvga xos usullarni adabiyot ta'limiga joriy qilish, uning amaliy ko'rinishlarini ishlab chiqish adabiyot o'qitish metodikasi oldida turgan muhim vazifalardanidir. Biz adabiyot darslarining qulay va jonli o'tishi, o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar, grafik organayzerlardan iborat topshiriqlar ishlab chiqishga, ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Evristik yondashuvni tashkil etishda quyidagi samarali metodlarni tavsiya etamiz: "Ijodiy tasavvur qilish", "Loyihaviy topshiriqlar", "Tugallanmagan fikrlar...", "Qo'shaloq bashorat qilish", "Uch bosqichli intervyu", "Zakovat darsi", "Sheringni top", "Kakografiya", "Qiziquvchan bilimdon" usuli, "Suhbat darsi", "O'yin dars", "Munozarali-bahsli dars", "Virtual sayohat darsi", "Musobaqa dars" kabi usullardan foydalanish orqali yaxshi natijalarga erishib kelinmoqda. Maktab adabiyot darslarida evristik yondashuvdan foydalanish bo'yicha bir nechta usullarni keltirib o'tamiz:

"Qiziquvchan bilimdon" usuli — bu usuldan ko'pincha yangi mavzuning kirish qismida foydalanamiz. Unda o'quvchilarga adabiy asarlar, ularning yozilish tarixi, ushbu asarlarga berilgan e'tirof va ta'riflar, asardagi ko'plab so'zlar va iboralarning kelib chiqishi haqida g'ayrioddiy, hayratlanarli ma'lumotlar, shuningdek o'rganilayotgan asar bilan bog'liq ma'lumotlarni topib kelish topshirig'i beriladi. Masalan, ijod maktablarining 8-sinf o'quv dasturiga kiritilgan Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari matni bilan tanishish jarayonidan avval o'quvchilarga asar-

ga berilgan e'tiroflarni yoki kitobxonlar tomonidan yozilgan taqrizlarni topib kelish topshirig'i beriladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilarda asar haqida ilk tasavvurlar, balki savollar ham paydo bo'ladi va ular asar matni bilan tanishish jarayonida tasavvurlarini kengaytirib borish bilan birgalikda, savollarga ham javob topishadi.

Jahon va o'zbek adabiyotidagi mashhur asarlar bilan tanishishda mazkur asarlarning yozilish tarixini, asar yozish jarayoni bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlarni topib kelish topshirig'i beriladi. Masalan, ijod maktablarining 11-sinf darsligida Paulo Koelyoning "Alkimyogar" asari, shu sinfda Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasi va Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" asarini o'tishda yuqoridagi topshiriqlarni berish mumkin. O'quvchilarga yo'nalish berish maqsadida quyidagi ma'lumot aytiladi va ular o'rganilayotgan mavzuga oid shunga o'xshash yangi ma'lumotlarni topib kelishadi.

Namuna: Ma'lumki, Viktor Gyugo 1862-yilda "Rad etilganlar" romanini yozib tugatadi va qo'lyozmani nashriyotga yuborayotib, unga bir xat ham qo'shib qo'yadi. Qizig'i, bu xatda hech qanday so'z yo'q edi. Faqatgina mana bu "?" belgi qo'yilgan edi. Nashriyotdagilar ushbu xatga darhol so'zsiz xat bilan javob beradilar. Ularning xatida esa mana bu "!" belgi qo'yilgan edi.

Bu kabi usullar o'quvchilarni mavzuga qiziqtirib, ularni kreativ fikrlashga, har bir berilayotgan topshiriq va ma'lumotlarga ijodiy yondashishga undaydi. Ularda mavzuga, o'tilayotgan asarga taalluqli bo'lgan qiziqarli ma'lumotlarni topish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

"Sayohat dars". Bu usul bizda umuman boshqacha kechadi. Biz o'tilgan asar muallifi uy muzeyiga sayohatni virtual olib borish imkoniyatiga egamiz. Jarayon qanday kechadi? Masalan, ijod maktablarining 8-sinfida Sadridin Ayniy, 9-sinfida Cho'lpon, Oybek, 10-sinfda Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini o'tishda o'quvchilar bilan adibning uy muzeyiga virtual sayohat uyushtiriladi. Sayohat davomida ularga nimalarga e'tibor berishlari, ko'rganlari yuzasidan taassurot yozishlari haqida topshiriq berilmaydi. Shunchaki, sayohat davomida nimalarni his qilganliklarini so'raymiz. Mazkur jarayonda o'quvchining o'zi ko'rganlari asosida nimalardan hayratlangani, qaysi ma'lumotlarni yangilik sifatida kashf etgani haqida so'zlab berishni boshlaydi.

"Tugallanmagan fikrlar..." usuli. Bu usul o'tilgan asarlarni takrorlash va mustahkamlash darslarida yaxshi samara beradi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga asar mazmuni va g'oyasini ochib berishga qaratilgan quyidagi tugallanmagan fikrlar yozilgan blankalar tarqatiladi. Bu usulni ijod maktablari uchun tuzilgan 9-sinf "Adabiyot" darsligiga kiritilgan Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi misolida ko'rib chiqsak.

1. Dunyodagi barcha mavjudotning soyasi bor. Agar mening soyam bo'lmasa-chi,
2. Agar men Barotning o'rnida bo'lsam, soya haqida....
3. Soyasi yo'q odam nuqsonli odam bo'ladimi...
4. Odamning soyasi bo'ldi nima, bo'lmadi nima...
5. Bu asarning menga yoqqan jihati...
6. Menimcha, asar g'oyasi shu haqda... va h.k.

Ma'lumki, dars mashg'ulotlarida tarqatma materiallardan samarali foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. Ularni tayyorlash pedagogdan sabr-toqat, kreativ yondashuv va mahorat talab etadi. Tarqatma materiallar sifatida berilgan topshiriqlar ta'lim oluvchilarning dars jarayonida individual, juftlikda yoki guruh bo'lib hamkorlikda ishlashiga, berilgan topshiriqlarni hamjihatlikda bajarishiga, vaqtdan unumli foydalanishiga imkon beradi. Shuningdek, tarqatma materiallar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish shubhasiz ta'lim oluvchilarning puxta bilim olishlariga va o'z navbatida ushbu egallangan bilim ular xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

"Ijodiy tasavvur qilish" usuli. Bu usulda o'quvchilar asar bilan tanishish jarayonida asar syujeti asosida joylarni, tabiat tasvirini, qahramonlar siymosini tasavvurlarida jonlantiradilar. Yana ularga tasavvurlari asosida illyustratsiya chizish topshirig'i ham berilishi mumkin. Masalan, ijod maktablarining 8-sinf "Adabiyot" fani darsligiga kiritilgan Isajon Sultonning "Shamolli kecha" hikoyasi tahliliga murojaat qilamiz. Avvalo, o'quvchilarni asar g'oyasi, muallifning hikoyada tasvirlanayotgan voqealarga munosabati va maqsadi bilan tanishtiramiz. So'ng asar sinfda o'qiladi,

hikoya qahramonlari ta'riflanadi. Qahramonlarning asarda berilgan tasviri orqali ularning yoshi, tashqi ko'rinishlari to'liq ta'riflab o'tiladi. Kitobxonning ko'z oldida bu qahramonlar siymosi to'liq gavdalanadi. Aka va singil, buvi bilan nevaraning munosabatlari, buvining qarg'ishlari hamda o'zaro suhbatlari tasviriga asoslanib, ularning shaxsiyati haqida to'liq xulosa chiqarishimiz mumkin. Bularning barchasini tahlil jarayonida o'quvchilarning ongiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usul orqali o'quvchilarga o'z tasavvurlarini boyitish maqsadida quyidagi yo'naltma savol va topshiriqlarni berish mumkin:

1. Hikoyada shamolning real voqelik va ramz sifatida keltirilganligini misollar orqali asoslang.

2. Siz hikoyadagi akasiz, qanday ish tutgan bo'lardingiz? yoki Yigitcha hikoyaning qaysi o'rnida singlisini unutib qo'ydi va nima sababdan? Siz uning o'rnida bo'lganingizda shunday holatda qanday yo'l tutardingiz?

3. Asarda peyzaj ya'ni tabiat tasviri mohirona keltirilgan. Ushbu tasvirlarga tayanib, tabiat tasvirini chizishga harakat qiling.

4. Sizningcha, bu voqea sodir bo'lmasligi mumkin edimi? Adashib qolgan qizchaning ahvoli qanday kechgan bo'lishi mumkin?

5. Yigitchaga singlisini topib olish uchun qanday yo'l ko'rsatgan bo'lardingiz? Asarni shunchaki o'qish — kimningdir taqdiridan xabardor bo'lishdek gap. Tahlil esa asarning mazmun-mohiyatini, voqealar rivojini, asardagi har bir qahramonning hissiyoti, dunyoqarashini tushunishga, yozuvchining falsafiy mushohadalarini anglashga yordam beradi [Tojiahmedova, 2022:7].

Hozirgi davrda zamonaviy madaniyat va sivilizatsiya shu qadar rivojlandiki, har bir o'quvchi bilimni o'zi mustaqil izlanish orqali egallash imkoniyatiga ega. Shu sababli o'qituvchi ham o'z bilimni muntazam boyitib borishi, o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirib borishni ta'minlashi kerak. Adabiyot darslarida qo'llash orqali bilim samaradorligiga erishish mumkin bo'lgan yana bir metodni ko'rib chiqsak. Ushbu metodni darsning takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash va uyga vazifa berish qismlarida qo'llash mumkin.

“Mukolima” (birga takror qilish) metodi — har bir o'quvchi mustaqil ravishda uyda yoki dars jarayonida 3–5 tadan savol tuzadi va tuzgan savollarini boshqa o'quvchi bilan almashadi. Bir o'quvchi tuzgan savollarga boshqa o'quvchi o'z javobini yozadi va savollar kartochkasi o'z egasiga qaytariladi. O'quvchilar bir-birini javoblarini tekshirib ko'rishgach to'g'ri javoblarni yozishadi. Natijalar e'lon qilinadi va o'quvchilar o'z xatolarini anglab olishadi. Yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar baholanadi. Savollar kartochkasining namunasi:

№	Savol	Javob	To'g'ri javob	Ball
1.				
2.				

“Mukolima” metodining yozma va og'zaki shakllaridan foydalanish mumkin. Og'zaki shaklida o'quvchi tomonidan tuzilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlash, ochiq muloqot olib borishga o'rgatadi. “Mukolima” metodi ta'lim jarayonini takomillashtirishga, o'quvchilarning kommunikativ layoqatini shakllantirishga yordam beradi, o'quvchilar o'rtasida erkin fikr almashish, munosabat bildirish, bir-biridan o'rganish va o'rgatishga imkon beradigan do'stona, ijodiy muhitni yaratadi.

Xulosa

Yuqoridagi kabi evristik yondashuvga xos metodlardan foydalanish orqali dars jarayonida quyidagi samaradorlikka erishishimiz mumkin:

1. Adabiyot darslarida o'quvchilar evristik yondashuvga xos metodlar asosida tuzilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida maksimal darajada ishtirok etadi, natijada ular berilgan top-

shiriqni o'zlari bajarishlari orqali o'rganadilar. Ya'ni, o'quvchi bu jarayonda yangi bilimlarni o'zlari amalga oshirish orqali o'rganadilar. O'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni, o'z-o'zini tarbiyalashni rivojlantiradi.

2. Evristik usulda aqliy va fikrlash qobiliyatlari bilan bir qatorda o'ziga hamda o'zaro ishonch va intellektual bog'liqlik kabi malakalarning rivojlanishi ham asta-sekin sodir bo'ladi. Bu ularni kelajakdagi hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday muammoni hal qilishga tayyorlaydi.

3. Bu usul o'quvchilarni qiyinroq ishlarni bajarishga undaydi. O'quvchilar o'zlari ishlaydilar, o'zlari maslahatlashadilar. Bu ularning jismoniy va aqliy kuchlarini muvofiqlashtiradi. Natijada o'quvchida mehnatsevarlik odati shakllantiriladi. Shuningdek, o'rganishdagi individual farqlarning oldi olinadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabatlarni o'rnatish orqali individual e'tibor berish imkoniyatini beradi.

4. Bu mazmunli o'rganish jarayonidir. Ushbu usul o'quvchilarga tayyor bilimlarni yuzaga chiqarishlariga imkon bermaydi. Natijada o'quvchida kuzatish, fikr yuritish va xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi. Bu ularda aniq tushunchalarni paydo qiladi. Bilim faollik bilan o'zlashtiriladi va shuning uchun ham o'quvchi ongida u uzoq vaqt davomida saqlanadi.

5. O'quvchilarga muvaffaqiyat hissini tuyish imkonini beradi va ularda fanga qiziqishni uyg'otadi, irodani ham shakllantiradi. Tanlangan usullar ularni aniq fikrlashga undaydi va haqiqatga yaqinlashtiradi. O'quvchilar o'rtasida ilmiy munosabatni rivojlantiradi, chunki ular haqiqiy kuzatuvlar va tajribalar orqali qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Ta'lim har doim yangilanishga, izlanib o'rganishga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Dars jarayonida har bir usullardan ikki-uch marotaba foydalanilganda o'zini oqlaydi. Usullarning turlicha bo'lishi, o'quvchilarni zeriktirmasligi, me'yoridan oshmasligi darsning samaradorligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

Э.В.Гетманская. Эвристический метод: Генезис и современное функционирование. Статья. 2009.

Қ.П.Хусанбоева. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. — Тошкент, 2006.

Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020.

Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. — Toshkent. 2006. Avtoreferat.

Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma: "Innovatsiya-Ziyo": nashriyoti, 2020-yil.

Z.Tojiahmedova. Adabiyot darslarida badiiy tahlil. Ma'rifat, 2022.

8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. — Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .

8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar — Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .

9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. — Toshkent: "Col-orpack", 2022 .

Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. — Москва: Садовое кольцо, 2006.

ORGANIZATION OF LITERATURE LESSONS BASED ON HEURISTIC APPROACH

Makhmuda Yuldasheva¹**Abstract**

In the process of literary education, it is important to create various conditions for the development of creative activity of students. For this purpose, determining the educational requirements and organizing its priority directions based on these requirements on the basis of searching education, creating problem situations and a technological approach to education prepares the ground for the effectiveness of the development of creative activity of students.

One of the methodological requirements for teaching literature and strengthening the previous works of art is the ability to effectively use various games in the course of the lesson, because didactic games are a form of creative activity. In this process, the student develops emotionally and intellectually and morally on the basis of knowledge and understanding of social and material existence.

In this article, the processes of teaching students creativity, thinking and independent thinking in literature classes, heuristic methods of teaching, ways of heuristic analysis of a work of art, and the main essence of using heuristic methods in the process of literary education, as well as students' together with the discovery of their knowledge, the methods of teaching them to search, tasks and exercises based on the heuristic method, together with initiative, will enable students to effectively form the following abilities, i.e., independence, dexterity, and decision-making abilities.

Key words: *creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, modern pedagogy, innovative methods, dialogue, creative activity, heuristic education, creative assignment.*

References

- Э.В.Гетманская. Эвристический метод: Генезис и современное функционирование. Статья. 2009.
- Қ.П.Хусанбоева. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. — Тошкент, 2006.
- Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020.
- Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. — Toshkent. 2006. Avtoreferat.
- Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma: "Innovatsiya-Ziyo": nashriyoti, 2020-yil.
- Z.Tojiahmedova. Adabiyot darslarida badiiy tahlil. Ma'rifat, 2022.
- 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. — Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .
- 8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar — Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .
- 9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. — Toshkent: "Colorpack", 2022 .
- Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. — Москва: Садовое кольцо, 2006.

¹ Yuldasheva Makhmuda Alikulovna — is a basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Email: mahmudauldaseva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1465-1819

For reference: Yuldasheva, M. 2024. " Organization of literature classes based on modern methods". Uzbekistan: language and culture. 4 [1]: 83—89.

G'AZAL TAHLILIDA YANGICHA YONDASHUV

Intizor Jumaniyozova¹**Annotatsiya**

Mazkur maqolada umumta'lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarining nashr etilishi, darsliklarda rivojlangan mamlakatlarning adabiy ta'limdagi ilg'or tajribalariga tayanilganligi va ularning afzal tomonlari, muammolarning yuzaga kelishi muhokama qilingan. Hozirgi paytda g'azal janrini o'rganishdagi qiyinchiliklardan biri o'qituvchilar va o'quvchilar orasida tasavvuf ilmini anglash va bilishdagi nuqsonlarning mavjudligidir. Mumtoz lirik g'azallarni ayrimlarida tasavvufiy talqinlar mavjud. Mazkur g'azal tahlilida ham shuni kuzatish mumkin. Hozirgi paytda g'azal janrini o'rganishdagi qiyinchiliklardan biri o'qituvchilar va o'quvchilar orasida tasavvuf ilmini anglash va bilishdagi nuqsonlarning mavjudligidir. G'azallar tahlili va talqini borasida hatto olimlar orasida ham jiddiy muhokamalar davom etmoqda.

Milliy metodikamiz tarixida ifodali o'qish, she'rlarni kuyga solib aytishga katta e'tibor berilgan. Chunki qo'shiq qilib aytilgan lirik matnlar o'quvchiga tez yetib boradi va bir umr yodida qoladi. G'azalga xos musiqiy ohangga o'quvchi e'tiborini tortish Avloniydan boshlangan. Hozirgi yangi avlod darsliklarida ham g'azallar, kino, sahna asarlarining QR kodli variantlari joy olgan. Mumtoz matnni tahlil qilishning samarali usullari, "Qaro ko'zum" g'azali tahlilida olimlarning turlicha qarashlari, umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun nashr etilgan yangi adabiyot darsligidan o'rin olgan "Na qilay?" radifli g'azalining tahlilida "Brainstorming" (Fikr chiqarish), "Aqlli jadval" metodidan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish yo'llari tahlil qilingan. O'quvchilar ma'naviy va lafziy san'atlar nafosatini his qila olishlari alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *taqte', qofiya turlari, lafziy va ma'naviy san'atlar, ifodali o'qish, milliy metodika, QR kod, lomakan, tasavvuf, "Brainstorming", "Aqlli jadval".*

Kirish

O'zbek adabiyoti tarixi namunalarini o'rgatishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni belgilash, mazkur kemptikni bartaraf etish yo'llarini topish, ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish zarur. Innovatsion texnologiyalardan xabardorlik, o'quvchilarning mobil qurilmalardan qulay va tezkor foydalanishi kabi holatlar adabiyot darslarini samarali tashkil etishni talab qiladi. Shuning natijasida 2022—2023-yillarda umumta'lim maktablarida adabiyot darsliklarining yangi nashrlari o'quvchilarga taqdim etildi.

Adabiyot darsliklarining yangi nashrlarida yaratilishi Britaniya, AQSH, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarning adabiy ta'limdagi ilg'or tajribalarga tayanilganligi ma'lum bo'ldi. Fikrimiz isboti sifatida shuni ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, darslik o'quvchini badiiy so'zning sehrli olamiga olib kirishda, adabiyotga qiziqtirishda va adabiyot darslarini mazmunli tashkil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yangi avlod darsliklarida mumtoz namunalariga juda kamayib ketganini ta'kidlagan edik. Lekin 10-sinf adabiyot darsligida mumtoz adabiyot namunalari boshqa yangi adabiyot darsliklariga qaraganda nisbatan keng o'rin ajratilgan. Shu o'rin-da 2022—2023-o'quv yili adabiyot fani, xususan, mumtoz adabiyot namunalarining o'qitilishiga qancha soat ajratilgani va o'rganilishini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

¹ *Jumaniyozova Intizor Atabekovna* — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining "Masofaviy ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

E-pochta: intizor.jumaniyozova1974@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5409-7813

Iqtibos uchun: Jumaniyozova, I. 2024. "G'azal tahlilida yangicha yondashuv". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [1]: 90—98

Nº	Mavzular	Soati
1	O'zbek adabiyoti tarixi. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha.	1
2	Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". Tarixiy davr. Muallif haqida. "Qutadg'u bilig" asari. Asar tili. Asar matni bilan ishlash	1
3	Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". Loyiha	1
4	O'zbek mumtoz adabiyoti: XIV asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha.	1
5	Alisher Navoiy. "Xamsa": "Saddi Iskandariy" dostoni	1
6	Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy" Asar matni bilan ishlash	1
7	Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy" Asar matni bilan ishlash	1
8	Alisher Navoiy haqidagi bilimlarni umumlashtirish	1
9	Boborahim Mashrab: muallif haqida ma'lumot. Tasavvuf haqida tushuncha	1
10	Ogahiy. Lirik. Tarixiy davr. Muallif haqida ma'lumot	1
11	Ogahiy. "Ohista-ohista" va "Ustina" g'azallari tahlili. She'riy san'atlar	1
12	Ogahiy. "Bo'lmasa bo'lmasun netay" va "Navro'z bo'lsin" g'azallari tahlili. Tuyuq	1
13	O'zbek mumtoz adabiyotida ayollar. Umumlashtiruvchi kirish darsi	1
14	Anbar Otin. "Risolayi falsafayi siyohon". Muallif hayoti va faoliyati. Asarning yozilish tarixi	1
15	Anbar Otin. "Risolayi falsafayi siyohon". Asar matni bilan ishlash	1
16	Anbar Otin. "Risolayi falsafayi siyohon". Loyiha	1
17	XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlari o'zbek adabiyoti. Umumlashtiruvchi kirish darsi	1
18	Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. Lirik. Hajviyot. "Toleim" va "Navbahor" g'azallari tahlili	1
19	Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. "Saylov", "Sayohatnoma". Satira	1
20	Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. Loyiha	1
21	"O'rtar" g'azali tahlili. She'riy san'atlar	1
22	"Sig'mamdur", "Na qilay" g'azallari tahlili. Loyiha	1

Ko'rinadiki, darslikda XVII asr o'rtalari — XVIII asr boshlaridagi tarixiy davr, Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi, tasavvuf ilmi haqida ham ma'lumot o'rin olgan. Xususan, o'zbek adabiyoti tarixining yetuk namoyandasi Mashrab qalamiga mansub bo'lgan "O'rtar", "Sig'mamdur", "Na qilay", "Meni yo'qlar kishim bormu?", "Onam" singari g'azallari, lafziy va ma'naviy san'atlar bo'lmish tanosib, tazod, talmeh, kitobat, istihroj, tashxis haqidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Oldingi darsliklarning afzal tomoni shundaki, lirik janrlar ostida tabdil varianti keltirilar edi. Yangi darslikda g'azallar tahliliga e'tibor qaratilmagan. G'azallarning sharhi va tabdili berilmagani bir o'rinda ijobiy holat sifatida baholanishi mumkin. Ya'ni, adabiyot darslarida matn bilan ishlayotgan o'quvchilar mustaqil va kreativ fikrlashga majbur bo'ladi, o'z ustida ko'proq ishlab, so'z boyligini oshiradi, lug'at va izohlarni tushunishga harakat qiladi. Ikkinchi tomonini inobatga olsak, namuna uchun bitta g'azalning sharhi: mavzu, g'oya, taqte, qofiya turlari va radifi, lafziy va

ma'naviy san'atlarning muallif tomonidan nima maqsadda qo'llanilganligi yoritib berilishi lozim edi, nazarimda. Mumtoz matnni tahlil qilishda nafaqat o'quvchilar, o'qituvchilarda ham biroz tushunmovchiliklar kuzatiladi. Fikrimcha, darslikda namuna sifatida biror mumtoz matnning tahlil qilingan varianti berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki mumtoz she'riyatning asl mantiqiy mazmunini to'g'ri tahlil qilsakkina barkamol insonni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani amalga oshiramiz.

She'riyat inson ruhiyatiga ta'sir etadi, uning qalbini tarbiyalashga xizmat qiladi. She'riyatni o'quvchilar hissiyotiga singdirish o'qituvchidan juda katta mahorat talab qiladi. Mumtoz matnlarni to'g'ri tahlil qilish ham juda katta samara beradi. G'azallar tahlilida she'riy vazn ham e'tibordan chetda qolmasligi shart. [To'xliyev, 2012: 84.]. "Har kimning she'r ta'bi mustahkam, so'zlari esa ravon bo'lsa, she'r ilmini o'rganishga, aruz o'qishga kirishadi". [Boltaboyev, 2008: 35]. Darhaqiqat, she'riyatni to'g'ri anglash uchun vaznlar haqida tushuncha hosil qilish lozim. Vaznlarni ajrata olmagan o'quvchi lirik asarlar mohiyatini anglay olmaydi. "Bizningcha, darsliklarda g'azal matnini tegishli vaznlarga solingan holda-taqtelarga ajratib berish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq. Ana shunda zamonaviy o'quvchida mumtoz ritm va ifoda tarzidan bahramand bo'lish imkoni paydo bo'ladi". [To'xliyeva, 2023: 4.]. Mumtoz matnlarni ifodali va ritmlarga solib o'qishni o'rgangan o'quvchi matn nafosatini yurakdan his qiladi. Ifodali o'qishning ham juda ko'p ko'rinishlari mavjud. Buni juda ko'plab olimlarimiz ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, milliy metodikamiz rivojiga alohida hissa qo'shgan ilk pedagog A.Avloniy "Maktab va Guliston" darsligida adabiy asarlarni ifodali o'qishning yakka va ko'pchilik bo'lib o'qish, ifodali o'qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko'rsatadi.

Avloniy "Adabiyot" kitobining I juz'ida bolalar aruz vaznida yozilgan she'rlar bilan tanishtiradi. Masalan, "Bo'lak" radifli she'rni o'rganishdan oldin bolalar uning mazmuni bilan tanishadilar, so'ngra "foilotun, foilotun, foilotun" bahrini o'qishni o'rganadilar.

Avloniy "Adabiyot" kitobining II juz'ida ham aruz vaznida yozilgan she'rlarni o'qish yo'llarini ko'rsatdi. U xor bilan o'qishga alohida e'tibor bergan va o'z she'rlarini xalq ashulalari kuyiga uyg'unlashtiradi. Demak, milliy metodikamiz tarixida ifodali o'qish, she'rlarni kuyga solib aytishga katta e'tibor berilgan. Chunki qo'shiq qilib aytilgan lirik matnlar o'quvchiga tez yetib boradi va bir umr yodida qoladi. G'azalga xos musiqiy ohangga o'quvchi e'tiborini tortish Avloniydan boshlangan. Hozirgi yangi avlod darsliklarida ham g'azallar, kino, sahna asarlarining QR kodli variantlari joy olgan. O'quvchilar bo'sh paytlarida bemaol telefon orqali barcha asarlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Globallashuv jarayonida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, adabiy-estetik olamini boyitishda bunday usullarning amaliy natijasi keng. Adabiyot darslarini bunday tashkil etish fanlararo integratsiyani vujudga keltiradi.

Ma'lumki, adabiyot darsliklariga kiritilgan eng yetakchi janr g'azaldir. G'azalni tahlil qilish, o'quvchilarga to'g'ri yondashuvlar asosida tushuntirish juda murakkab hodisa. G'azallar tahlilida necha yillardan beri bahs-munozaralar, turlicha yondashuvlar davom etmoqda. Masalan, Alisher Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azali bir necha yillar umumta'lim maktab dasturlaridan o'rin olib kelgan. Mazkur g'azal ilmda eng ko'p va har tomonlama chuqur tadqiq etilgan g'azallardan biridir. Adabiyotshunos, navoiyshunos olim Nusratulla Jumaxo'ja g'azal tahliliga oid "Qaro ko'zim..." g'azali tadqiqi" nomli kitob yozgan. "Qaro ko'zim..." g'azali tadqiqi" kitobida zabardast, ustoz olimlar Abduqodir Hayitmetov, Alibek Rustamov, G'ulom Karimov, Ismatulla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, Nusratulla Jumaxo'ja, Omonulla Madayev, Boybo'ta Do'stqorayev, Vahob Rahmonov, Sultonmurod Olimov, hatto atoqli shoir Erkin Vohidovlarning ilmiy tadqiqot, tahlil, talqin va bahs-munozaralari o'rin olgan. Bizga ma'lumki, "Qaro ko'zum" g'azali ancha yillar umumta'lim maktablarining adabiyot darsliklaridan tushmay kelgan turlicha talqin qilingan. 10-sinf "O'zbek adabiyoti" darsligida (1999-yil, 82-93-bet), 8-sinf "Adabiyot" darslik-majmuasidagi Sultonmurod Olimov talqinlari (2006-yil 123-125-bet), 8-sinf "O'zbek adabiyoti" darslik majmuasida berilgan Vahob Rahmonov sharhi (1997-yil, 38-39-betlar) shular jumlasidandir. G'azal tahlillarining xronologiyasiga nazar solsak, birinchi tahliliy maqola filologiya fanlari nomzodi Ismatulla Abdullayev tomonidan 1975-yil 22-oktyabrda "Toshkent oqshomi" gazetasida "Mashhur

gʻazallar tahlili” ruknlari chop etilgan va hanuz tahlil jarayoni toʻxtagan emas. Shu hisobdan kelib chiqsak, “Qaro koʻzum...” gʻazali tahlili 45 yillik tarixga ega. Navoiyning bu gʻazali yirik olimlar tomonidan naqd 45 yil tahlil etilsa-yu, muhokama nihoyasiga yetmasa-ya?! Bu hayratomuz hodisa emasmi?!” [Жумахўжа, 2021:60].

Mazkur kitob misolida gʻazal tahlili juda murakkab hodisalardan biri ekanligi oydinlashadi, har bir adabiyot muxlisi, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisini sergak boʻlishga undaydi. “Mumtoz sheʼriyat mazmun-mohiyati, nafosati ruhiy ozuqa ekanligi tushuntirilib, oʻquvchilar qalbiga singdirilar ekan, gʻazal, ruboiy, doston, xullas, adabiy turning qaysi janriga aloqador asar boʻlishidan qatʼiy nazar har birini oʻz vazni ohangi gʻazal mazmun va gʻoyasidan kelib chiqib oʻqish, mutolaasi qanday boʻlishi haqida ham taʼlim berib borish lozim.

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!
Boʻlmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?!
Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!
Ibrohimdin qolgʻon ul eski doʻkonni na qilay?!
Urayinmu boshima sakkiz behisht-u doʻzaxin,
Boʻlmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!
Arshning kungurasin ustiga qoʻydum oyogʻim,
Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?!
Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom
Oshkoro boʻlmasa, sirri nihonni na qilay?!
Bir Xudodin oʻzgasi barcha gʻalatdur, Mashrabo,
Gul agar boʻlsa qoʻlumda, ul tikonni na qilay?!

10-sinf darsligidagi mazkur gʻazal matnida va tushunarsiz soʻzlarni anglash uchun yordam tariqasida lugʻati berilgan. Ular quyidagicha:

Soʻzlar	Izohi
xok	tuproq
ruhi ravon	inson ruhi
boda	may
behisht	jannat
zarraye	bir zarra
nihon	yashirin

Soʻngra qisqacha izoh va uchta savol berilgan.

1. Gʻazalning asosiy gʻoyasi nimadan iborat?
2. Har bir misra oxiridagi ritorik savol qanday vazifa bajarmoqda?
3. Gʻazalda qaysi sheʼriy sanʼatlar qoʻllangan?

Quyidagi gʻazallarni mustaqil tahlil qiling. Tahlil jarayonida lugʻatlar, ensiklopediyalar va boshqa kerakli manbalarga murojaat qiling.

Darslikda keltirilgan ushbu savollarda umumiylik mavjud boʻlib, oʻquvchilarning tafakkuri va tasavvurini kengaytirishga xizmat qilmaydi. Gʻazalning asl mazmun-mohiyatini ochib bera olmaydi. Gʻazallarni tahlil qilishdan maqsad oʻquvchilarga yuzaki bilim berish emas, ularning qalbiga taʼsir koʻrsatish, mavzuni hayotiy bilim va koʻnikmalar bilan uygʻunlashtirish, jamiyatga barkamol, barcha insoniy fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalab berishdir. Metodist Z. Mirzayeva taʼkidlaganidek, “...savol va topshiriqlar oʻquvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga, adabiyotni sanʼatning boshqa turlari, boshqa fanlar va oʻquvchi hayoti bilan aloqasini taʼminlash, oʻquvchida ogʻzaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan oʻziga xos ahamiyat kasb etadi” [Mirzayeva, Jalilov, 2020:18.].

Mumtoz lirik gʻazallarni ayrimlarida tasavvufiy talqinlar mavjud. Mazkur gʻazal tahlilida

ham shuni kuzatish mumkin. Hozirgi paytda g'azal janrini o'rganishdagi qiyinchiliklardan biri o'qituvchilar va o'quvchilar orasida tasavvuf ilmini anglash va bilishdagi nuqsonlarning mavjudligidir. G'azallar tahlili va talqini borasida hatto olimlar orasida ham jiddiy muhokamalar davom etmoqda.

Brainstorming (Fikr chiqarish) metodidan foydalangan holda g'azalni muammoli tahlil qilishda foydalanish sinfda o'quvchilarni matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Mazkur metod 1930-yillarda William Bill Gordon, Alex Osborn va Glaude Sannon kabi reklama sohasida faoliyat yuritadigan shaxslar tomonidan yaratilgan va reklama muhiti bo'ylab paydo bo'ldi. O'zgarishlarni qabul qilish, yangiliklarni yaratish va ijodiy maslahatlarni jamoa o'rtasida qo'llashda ishlatilgan. Bunda o'quvchi va talabalarning darslarda yangi va innovatsion fikrlarni ayta olishi muhim bo'lgan. Ta'lim sohasida bu usuldan foydalanish juda katta ijobiy natijalarga olib keldi. **Brainstorming metodologiyasi yoki fikr yig'ilishi**, yangi va innovatsion idealarni, yechimlarni yoki hal qilishlarni qo'llash uchun guruhda qiziqarli fikrlar va mulohazalar yig'ish usulidir. Guruh a'zolari qo'llanma yoki masala bo'yicha yechimlarini topish uchun ko'rsatkich belgilanadi. O'quvchilar o'z fikrlarini ifodalaydi va boshqa guruh a'zolarining fikrlariga quloq soladilar. Bu metodning asosiy maqsadi innovatsion, yangi va qiziqarli idealar yaratish va yechimlarini topishni ta'minlashdir. **Brainstorming (Fikr chiqarish) usulining afzalliklari:**

O'quvchilar biror mavzuni yoki asar ustida fikrlarini, tasavvurlarini va o'ylarini batafsilroq o'zlaridan chiqarishadi. Bu usul o'zbek adabiyoti mavzulari ustida o'quvchilarning o'ylash va fikrlashga yordam beradi. Bizga ma'lumki, yangi avlod darsliklarida mumtoz namunalarining ko'pchiligi tabdil va nasriy parchalarga ega emas. Bunda asosiy yuk o'qituvchi va o'quvchiga orttiriladi. O'quvchilarni ko'proq o'ylashga va mulohaza qilishga majbur qiladi. O'qituvchi esa mavzudan chetga chiqmagan holda matnlarni to'g'ri izohlashga harakat qilishi zarur.

Dars jarayonida **“Na qilay”** radifli g'azalni o'rganishda **Brainstorming (Fikr chiqarish)** metodidan foydalanish orqali samarali natijalarga erishildi. Bu metod guruhlar o'rtasida yoki individual ko'rinishda ham namoyon bo'ladi. Darsda har bir o'quvchilar o'rtasida ham mazkur metod qo'llanildi va ijobiy natijalarga erishildi Bizga ma'lumki, Abdulla Qodiriy ijod maktabida har tomonlama ijodkor va o'z mustaqil fikriga ega o'quvchilar ta'lim olishadi. Darsni boshlashdan oldin g'azal o'qituvchi tomonidan ifodali o'qiladi. O'quvchilar tinglash jarayonida bir paytning o'zida g'azal matni ohangi bilan tanishadi va o'zlari ifodali o'qishga harakat qiladi. Dastlab g'azal o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Bunda tayyor audio taqdim etish ham mumkin. G'azalni yuzaki emas, undagi botiniy ma'nolarni va nozik jihatlarini ziyraklik bilan ilg'ay olish o'quvchidan katta mahorat talab qiladi. Mashrabning **“Na qilay”** radifli olti baytdan, 12 misradan iborat. G'azalning maqta'si **“Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!”** misrasi bilan boshlanadi. Maqtasi **“Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,”** misralari bilan yakunlanadi. G'azalni tahlil qilish o'quvchilarga yuklatiladi. Har bir bayt o'quvchilarga bo'lib beriladi, berilgan baytlar haqida o'quvchilar o'z fikrlarini bayon etishlari lozim bo'ladi.

1-O'quvchi:

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!

Bo'lmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?!

Ushbu g'azal so'fiyona ruhda yaratilgan. Xok — tuproq. Ruh — insonning ruhi. Biz insonlar tuproqdan yaratilganmiz va tuproqqa qaytamiz. Demak, shoirga tuproqdan bo'lgan tan ham, ruh ham kerak emas. Uning qalbidagi Allohga, ya'ni yorga bo'lgan muhabbat shu qadar kuchli, unga yordan boshqa narsani qabul qilmaydi.

2-O'quvchi:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!

Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?!

Mumtoz adabiyotda qo'llanadigan majoziy obrazlarni o'quvchilarga to'g'ri anglatish lozim. Yor deganda Alloh, boda esa ishq ma'nosini anglatadi. Makkaga — Allohning uyi sifatida tavof qilgani boriladi. Bu muqaddas joyga borish uchun juda katta tayyorgarlik ko'rish kerak. Avvalo, qalbni tozalash, nafsni tiyish, ezgu fazilatlar sohibi bo'lish, haqiqiy ishqqa ega bo'lish orqali bu

ziyosatni amalga oshirish mumkin. Demak, qalbida haqiqiy ishq bo'lmagan inson bu maqomga erisha olmaydi. Ishqsiz, qalbida muhabbat bo'lmasdan Ollohga yaqinlashib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Ka'bani "Ibrohimdan qolgan eski do'kon" deya ta'riflamoqda. Ibrohim alayhissalom Makkaga o'z o'g'li Ismoilni olib kelganda Alloh unga Ka'ba poydevorini tiklashni buyurgan. Ibrohim alayhissalom bu amrni bajargan va Baytulloh musulmonlar uchun ziyorati ibodat hisoblanadigan muqaddas joyga aylangan.

3-O'quvchi:

Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do'zaxin,
Bo'lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!

"Chinakam so'fiyga xos jihatlar g'azalning ayni shu misralarida yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy kishining Ollohga muhabbati, undan qo'rquvi tagida jannatga yetishish maqsadi turadi. Mutasavvuf uchun bunday maqsad ta'magirlik hisoblanadi. So'fiy Yaratganning jamoliga yetishishnigina o'ylaydi. Unga Yaratganga muhabbat sababli jannatga erishish va do'zaxdan qutulib qolishni niyat qilish — uyat. Chunki go'yo muhabbat uchun haq talab qilganga o'xshab qoladi. Chin ishq beg'araz bo'lmog'i kerak"[Qosimov, To'xliyev, Yo'ldoshev, 2004: 300.].

Har bir g'azalning shoh bayti mavjud. Shohbaytlar maqta'dan oldin keladi. Lekin mazkur g'azalda shohbayt maqta'dan oldin kelmagan. Bizning qarashimiz bo'yicha mana shu bayt shohbayt hisoblanadi. Chunki shohbaytlarda fikrning qaymog'i beriladi.

4-O'quvchi:

Arshning kungurasin ustiga qo'ydim oyog'im,
Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?!

Bizga ma'lumki, Mashrab bu dunyoning, ya'ni o'zi yashagan muhitiga daxldor odam bo'lgan. Bu inson ilohiyat odami bo'lgan. U darajasi ham, o'y-xayollari ham, qarashlari ham, fikrlari ham yuqori darajada bo'lgan. Arsh degani osmondan ham baland joy arshi a'lo deyiladi. Man o'sha arshga oyog'imni qo'ydim, deyapti. Lomakon — makonsizlik. Alloh makondan tashqarida, U yaratgan barcha mavjudotlar esa makonda mavjuddir. Bu dunyoda yaratilgan har bir moddiy narsa makonda yaratilgan va qaysidir zamonga aloqador. Makonsizlik esa faqat Ollohga xos. Barcha moddiy narsalar foniidir. Lomakonlik esa boqiy. Man Ollohning muhabbati bilan lomakondan joy olgan ekanman, bu foniy dunyo nimaga kerak, degan fikrlar aytilgan. Ollohning oshiqqlari Ollohga yetishmoq uchun ayrim insonlar hech qanday moddiy kerak emasligini ta'kidlaydilar, Yorsiz bu Olloh, boda bu — ishq qalbimda Ollohga bo'lgan ishq bo'lmas ekan, Makkaga borishning qanday ahamiyati bor.

5-O'quvchi:

Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom
Oshkoro bo'lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Koinotda yer kurrasining o'zi bir nuqtadek o'sha nuqtaning ichida inson bir zarradek ekan, Ollohga oshiq bo'lganlar hech qanday moddiyatga qiziqmaydilar, bu dunyodan uziladilar. Ular faqat Olloh ishq bilan yashaydilar.

Asar maqta'sida bu fikr ochiq va aniq aytiladi.

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay?!

G'azal shu tarzda o'quvchilarga to'g'ri va aniq tahlil qilib berilishda o'qituvchi ham, albat, yordam beradi, chunki o'quvchilar g'azalning tasavvufiy ma'nolarini tahlil qilishda biroz qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. O'quvchilarga mumtoz matnni tuhuntirishda tasavvufiy bilimlarni o'rgatish muhim. Toki bu yo'l orqali O'quvchilar qalbida chinakam ezgu fazilatlar shakllantiriladi.

G'azalni yanada aniq ravshan va "Aqlli jadval" zamonaviy usulida quyidagicha tahlil qilib berish mumkin.

G'azal tahlilida yangicha yondashuv

1.	G'azalning mavzusi	Ishq
2.	G'azalning g'oyasi	Yorga, ya'ni Allohga bo'lgan kuchli muhabbatning aks etishi
3.	Qofiyasi	Ravonni, jonni, do'konni, jahonni, makonni, nihonni, tikonni,
4.	Radifi	Na qilay?
3.	Bahri	Ramal
4.	Taqte'si	-V- - -V- - -V- - -V-
5.	She'riy san'atlari: Ta'did	Xokini-yu ruhi ravonni, yorsiz ham bodasiz, behisht-u do'zaxin
6.	Talmeh Talmeh va istiora	Makkaga Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni
7.	Mubolag'a	Arshning kungurasin ustiga qo'ydim oyog'im, Lomakondin joy olibman
8.	Tashbeh	Zarraye nuri quyoshdek
9.	Tanosib va istiora	Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni

G'azal tahlilida nazariy tushunchalarga ham ko'proq e'tibor qaratish kerak. O'quvchilar ma'naviy va lafziy san'atlar nafosatini his qila olishlari katta ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, umumta'lim maktab va ijod, ixtisoslashgan maktablarning dasturlarida vazn va qofiyalarning murakkab tomonlarini o'rganishga soat ajratilmagan. Adabiyotshunos olim To'xta Boboyevning quyidagi fikrlari ayni shu masalaga bag'ishlangan, nazarimda: "Hozirgi dasturda qofiya ilmi va poetik sintaksis butunlay unutilgan. O'zbek she'riyatida 300 dan ortiq badiiy (she'r) san'atlar qo'llanilgani holda faqat tazod, husni ta'lil, radd ul-matla' eslatilgan xolos... Dasturda maxsus tasvir vositalari ham o'ta kambag'al ko'rinadi... Achinarli tomoni shundaki, dasturda adabiy-nazariy tushunchalar, shu jumladan, she'r ilmi masalalarini o'rganishga bir soat ham ajratilmagan" [Бобоёв, 1997: 32.].

Adabiyot darslarida mumtoz matnlarni to'g'ri tahlil qila olish, ulardagi she'riy san'atlarni ilg'ay olish juda muhim. Mumtoz adiblarimizning noyob durdonalari hisoblangan she'rlar buyuk adiblarimiz tomonidan turlicha sharhlanib kelingan. Bu esa avlodlarimizning ta'lim-tarbiyasida katta ahamiyat kasb etgan.

Darhaqiqat, hozirgi darsliklarda nazariy ma'lumotlarning tobora kamayib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Adabiyot fani uchun tuzilgan dasturlarda badiiy san'atlarni o'rganishga ham soat ajratilishi muhim hisoblanadi. "Badiiy asar, jumladan, g'azalni sharhlashning o'z talablari bor. Avvalo shuni aytish kerakki, sharh, hamma vaqt asarning o'zini anglash uchun yordamchi vosita, u hech qachon shoir asarining o'rnini bosa olmaydi. Sharhning bosh maqsadi, ta'kidlaganimizdek, asarning (jumladan) g'azalning qiyin iboralari, ko'p ma'noli murakkab o'rinlarini soddaroq qilib tushuntirishdir. Shunday bo'lgach, qadimgi sharhlarda ko'proq istilohlar, tasavvufiy-irfoniy iboralarning mag'zini chaqishga e'tibor qilingan" [Комилов, 2012: 4.].

Najmiddin Komilovning "Ma'nolar olamiga safar" kitobida g'azal janrini sharhlab tushuntirishdagi quyidagi usullarga alohida e'tibor qaratilgan. Asar tilidagi hozirgi kitobxonga tushunilishi qiyin so'zlar lug'atini berish;

1. Baytlarning nasriy bayonini taqdim etish;
2. G'azalning umumiy mazmun-ma'nosi, badiiy xususiyatlari ustida mulohaza yuritish".

Bundan tashqari olim g'azal xususiyatlari va g'azalni o'qish, undagi so'zlarni talaffuz etish haqida ham maxsus to'xtaladi: "G'azaldagi ma'nolarni tushunish bilan birga g'azalni o'z vazni-ohangi bilan o'qish, talaffuz etish ham juda muhimligini, har bir g'azal o'z vazni bilan o'qilmasa, undagi ma'nolar yorqin va ta'sirchan chiqmasligini, bitta so'zgina emas, bitta tovush yoki qo'shimcha noto'g'ri talaffuz etilsa, ohangiga tushmasa, butun asarning ohori to'kilishi, g'alizlik va dag'allik yuz berishi lozimligini ta'kidlab o'tadi [Комилов, 2012: 7].

Mumtoz matnlarni, ayniqsa, g'azallarni ifodali qilib vaznga solib talaffuz etish juda muhim. Agar matndagi bir tovushga zavol yetsa, noto'g'ri o'qilsa, misralardagi ma'no-mazmun ta'sirchan chiqmaydi, nafislik yo'qoladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga to'g'ri talaffuzni tushuntirishimiz ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

Boltaboyev H. 2008. *Sharq mumtoz poetikasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

To'xliyeva, D. 2003. *G'azal tahlil qilish metodikasi*. Toshkent: Bayoz.

To'xliyev, B. 2012. *Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy va loybaratoriya mashg'ulotlari*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi.

Комилов Н. 2012. Маънолар оламига сафар. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. Тошкент: "ТАМАДДУН" нашриёти.

Бобоев, Т. 1997. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърляти поэтикаси асосларини ўрганиш. Тошкент: ДДҚ.

Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. 2022. *10-sinf uchun adabiyot darslik*. Toshkent: "O'QITU-VCHI".

Жумахўжа, Н. 2021. "Қаро кўзум..." ғазали тадқиқи: адабий-илмий. Тошкент: Мухаррир нашриёти.

Mirzayeva Z, Jalilov K. 2020. *Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka)* Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Respublika ta'lim markazi.

Abstract

This article discusses the publication of new generation textbooks for general education schools, reliance on advanced experiences of developed countries in literary education in the textbooks, their advantages, and the occurrence of problems. Currently, one of the difficulties in studying the ghazal genre is the existence of defects in the understanding and knowledge of Sufism among teachers and students. Some of the classic lyrical ghazals have mystical interpretations. This can be observed in the analysis of this ghazal. Currently, one of the difficulties in studying the genre of ghazals is the lack of understanding and knowledge of Sufism among teachers and students. There are serious discussions even among scientists about the analysis and interpretation of ghazals.

In the history of our national methodology, great attention has been paid to expressive reading and reciting poems. Because the lyrical texts sung in song quickly reach the reader and remain in his memory for a lifetime. Avloni began to attract the reader's attention to the musical tone characteristic of ghazal. The current new generation textbooks also include QR code versions of ghazals, films, and stage works. Effective methods of analyzing a classic text, different views of scholars on the analysis of the ghazal «Black Eye», «What to do?» from the new literature textbook published for the 10th grade of secondary schools. in the analysis of Radifli's ghazal, the ways to achieve effective results by using the «Brainstorming» (Thinking) and «Smart table» methods were analyzed. It is emphasized that students can feel the elegance of spiritual and verbal arts.

Key words: *taqte', types of rhyme, verbal and spiritual arts, expressive reading, national methodology, QR code, lomakan, mysticism, «Brainstorming», «Smart table».*

References

- Boltaboyev H. 2008. *Sharq mumtoz poetikasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- To'xliyeva, D. 2003. *G'azal tahlil qilish metodikasi*. Toshkent: Bayoz.
- To'xliyev, B. 2012. *Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy va loybaratoriya mashg'ulotlari*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi.
- Комилов Н. 2012. Маънолар оламига сафар. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. Тошкент: "ТАМАДДУН" нашриёти.
- Бобоев, Т. 1997. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърияти поэтикаси асосларини ўрганиш. Тошкент: ДДҚ.
- Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. 2022. *10-sinf uchun adabiyot darslik*. Toshkent: "O'QITUV-CHI".
- Жумахўжа, Н. 2021. "Қаро кўзум..." ғазали тадқиқи: адабий-илмий. Тошкент: Мухаррир нашриёти.
- Mirzayeva Z, Jalilov K. 2020. *Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka)* Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Respublika ta'lim markazi.

¹ *Jumanyozova Intizor Atabekovna* — is a teacher of the "Distance Education" department of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Email: intizor.jumanyozova1974@gmail.com.

ORCID ID: 0009-0003-5409-7813.

For reference: Jumanyozova, I. 2024. "A new approach in the analysis of ghazal". Uzbekistan: language and culture. 4 [1]: 90—98.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) — jurnalining "Metodika" seriyasi global ta'limda yuz berayotgan yangilanishlar, til va adabiyot o'qitish muammolari, ta'lim va tarbiya nazariyasi, uzluksiz ta'limdagi zamonaviy yondashuvlarni qamrab olgan ilmiy-metodik jurnaldir. "Metodika" seriyasi munozarali, zamonaviy, innovatsion, texnologik yondashuv asosida konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal ta'lim va tabiyyat nazariyasi, til va adabiyot o'qitish masalalari, gumanitar fanlarning metodik asoslariga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta orqali yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000—5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100—150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5—10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi — normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi — to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifnisi" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anjion, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida va *boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174—184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatildi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3—8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI — bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 — 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

VII.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско — русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko — russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.

Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 19.02.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100_{1/16}, Ofset bosma. "Cambria" garniturasini. Shartli b.t. 7,75. Nashr b.t. 8,25.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.

"Ildiz nashriyoti" bosmaxonasida chop etildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qoraqamish 2/4, 5-uy.